

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

S.U.PO'LATOVA, H.H.SAIDOVA, X.Q.RAHMONOV

# LIBOS KOMPOZITSIYASI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

TOSHKENT  
2006

## Taqrizchilar:

A.A. Hayitov — «CHM va TST» kafedrasi dotsenti,  
M.S. Hakimov — Buxoro yengil sanoat kasb-hunar kolleji direktori.

S.U. Po'latova va boshq.

Libos kompozitsiyasi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma  
Toshkent, «Turon-Iqbol», 2006-y., 128-bet.

Mazkur o'quv qo'llanmada libosning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi, libosning  
bichim turlari, libosni badiiy loyihalash, libos kompozitsiyasi, kompozitsiya  
kategoriyalari haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu o'quv qo'llanma kasb-hunar kollej  
o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

## KIRISH

Libosni konstruksiyalash — libosning tashqi ko'rinishi va tuzilishiga doir badiiy hamda texnik masalalar yechimini o'z ichiga olgan murakkab ijodiy jarayondir.

Badiiy masalalarga libosning modaga mos shakli, silueti va bichimini yaratish, libos qismlarining o'zaro proporsional nisbatlarini aniqlash, libosning badiiy obrazini ifodalash kiradi.

Texnik-muhandislik masalalari hisoblash formulalari va libosning tayyor holda kerakli shaklini ta'minlaydigan konstruksiya detallarini grafik usullar yordamida qurishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, detallar o'lchamlari va konfiguratsiyasi, yig'masi va birikmalari libosning figurada yaxshi o'rashishini, ekspluatatsiyada qulaylik va ishonchlilikni, ishlab chiqarish jarayonida tejamkorlikni ta'minlashi kerak.

Badiiy va muhandislik konstruksiyalash — chambarchas bog'langan yagona jarayon. Uning maqsadi estetik jihatdan insonning his-tuyg'ularini qoniqtiradigan liboslarning mukammal modellarini yaratishdir.


Qo'yilgan ushbu masalalarga erishmoq uchun bichuvchidan quyidagilar talab qilinadi:

- libosga doir joriy va istiqbolli moda yo'naliшини bilish;
- modelni tahlil qila olish va qanday konstruktiv vositalar yordamida model silueti, bichimi va funksional-dekorativ elementlarining yechimiga oid yo'llarini to'g'ri tanlash;
- libos kompozitsiyasi;
- plastik anatomiya, aholi tipologiyasi, odam psixologiyasiga doir bilimlarga ega bo'lish;
- libosni konstruksiyalash metodikalarini, gazlama va materiallarning fizik-mekanik va ishlov berishga oid xossalari, libos detallarining ratsional ishlov berish usullarini bilmog'i kerak.

O'quv qo'llanmaning mazmuni «Libos kompozitsiyasi» fani dasturiga va mutaxassislar tayyorlash Davlat standarti talablariga to'liq javob beradi.

Libos bichimi. Libos — ijod obyekti, shaxsni estetik tarbiyalash vositasi.

Bichim — bu libosning muayyan konfiguratsiya va razmerga ega bo'lgan



1.1-rasm. Libos shaklining kompozitsiyasi.

detallarga bo'linishi.

Libos yoqasiz va yoqali bichimda bichiladi. Yoqalar asosiy detallar (orqa va old bo'lak) bilan yaxlit bichilgan, qirqma va kombinatsiyalashgan (yoqanining qismi orqa yoki old bo'lak bilan birga bichilgan) holda bichilgan bo'lishi mumkin.

Yengning tana qismi bilan birikishiga bog'liq holda libos yengsiz va quyidagi bichimdagi yenglilarga bo'linadi (1.1-rasm):

- a) o'tqazma yengli;
- b) reglan;
- d) yaxlit bichilgan;
- e) kombinatsiyalashgan.

Libosning o'tqazma yengli bichimi modada har doim qatnashgani sababli, u klassik uslubdagi yeng hisoblanadi.

Bu bichimning o'ziga xos xususiyati o'miz chizig'inining shakli qo'lning tanaga birikish chizig'i konturiga mosligidadir.


Yeng qiyamasi o'mizning yopiq konturiga ko'proq yoki kamroq kirishtirib o'tqaziladi (1.2-a rasm).

Reglan bichimi. Bu bichimga yoqa o'mizidan boshlangan ochiq o'miz chizig'i va libosning yelka qismi bilan yaxlit bichilgan yeng xos. Yelka choki o'rniда yengning o'rtा (ustki) biriktiruvchi choki yoki vitachka joylashadi. Reglan yeng quyidagi variantlarga ajratiladi: oddiy reglan, nolli reglan, reglan-pogon, yarim reglan, ixtiyoriy reglan.

Kichik hajmli, shaklan sal yopishgan siluetli liboslardan konstruksiyalashda reglan nisbatan kam ishlataladi.

Moda reglan bichimini asosan to'kis va to'g'ri siluetli liboslarga tavsiya etadi. Kichik hajmli, sal yopishgan siluetli liboslarga esa reglan nisbatan kamroq ishlataladi (1.2-b rasm).

Yaxlit bichilgan yeng hajmi katta bo'lgan liboslarda yelkaning shaklini ravon pasaygan yoki ravon yumaloqroq ko'rsatish maqsadida qo'llanadi. Yengning shakliga bog'liq holda, yaxlit bichilgan yengning turli variantlari qo'llanadi: erkin harakatni ta'minlaydigan, xishtakli, qirqma yon bo'lakli. Lekin ularning barchasi old va orqa bo'laklar bilan yaxlit bichiladi (1.2-d



1.2-rasm. Yeng bo'yicha libos bichimlarining turlari.

rasm).

Kombinatsiyalashgan bichim bitta buyumda yengning bir necha variantlari qo'llanishi bilan tavsiflanadi. Orqa bo'lak yaxlit bichilgan yengli, old bo'lak esa o'tqazma yengli variant ko'proq uchraydi (1.2-e rasm).

Libosning sirti gorizontal chiziqlar bilan bo'linishiga bog'liq holda, gorizontal chiziqlar bilan bo'linmagan (yaxlit bichilgan) va gorizontal chiziqlar bilan bo'lingan (koketkali, bel chizig'ida qirqma) bichimlar farqlanadi (1.2-rasm).

Muayyan davr mobaynida har bir bichim o'ziga xos joylashgan bo'linish chiziqlariga va shaklga ega. Bunday variantlar tipik bichimlar deyiladi.

Libos kishilik jamiyatni rivojlanishining ilk bosqichlarida paydo bo'lgan. Hayvonlar terisi, baliq ichaklari, o'simliklar va hokazolar libos uchun material vazifasini o'tagan.

Libosning tarixiy rivojlanishiga, uning o'zgarishiga uslub va moda sabab bo'ladi.

Uslub — jamiyat moddiy va ma'naviy madaniyatidagi muhim hamda xarakterli belgililar obrazli tizimi ijodiy prinsiplarining tarixan tarkib topgan, bir qadar barqaror mushtarakligidir. Uslub — bu davrning badiiy tili, uning badiiy xarakteristikasi. Davr o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya bilan belgilanadi.

Har bir davrning o'ziga xos badiiy uslubi bo'ladi. Bu jamiyat hayotidagi muhim omillarni aks ettiradi. Har qaysi tarixiy davr o'zi uchun xarakterli shakllarni tanlaydi, insonning ma'lum darajada libosda o'z ifodasini topgan muayyan estetik idealini o'ziga bo'ysundiradi.

Har qanday tarixiy davrdagi libos shaklining zaminida odamning

muayyan darajada plastik nafis obrazi va gavdasi (qad-qomati) yotadi. Har bir garmoniya (yunoncha harmonia — predmetlar, voqealar, butun qismlar turli sifatlarining bog'liqligi, kelishganligi, muvofiqligi, monandligi) va barkamolligi haqida, inson gavdasining estetik idealligi to'g'risida o'zining tushunchasini rivojlantiradi, bundan esa libosdagi mutanosiblik, ko'lam, geometrik hajm, shakl va ranglarning turli-tumanligi kelib chiqadi. Antik estetikada me'yor go'zallikning asosi, me'yor yo'qligi esa o'xshovsizlik ekaniga haqida qoida bor.

Qadimiy yunon libosining uslubi gazlama bilan inson shakli va tabiiy mutanosibligining garmonik birga qo'shilganligi, bu yelkadan pastga tomon bermalol osilib turadigan libosdagi behisob xilma-xil taxlamalarda, drapirovkalarda o'z ifodasini topgan edi. Libos to'g'ri to'rtburchak gazlamadan iborat bo'lib, uni yelka ustida bog'lab yoki yelkaga tashlab qo'yib, gavdaning tabiiy go'zalligi va harakat bermalolligini ko'rsatadigan, unga xalaqit bermaydigan nafis taxlamalar tushirib, drapirova qilib qo'yildi.

Inson moddiy va ma'naviy madaniyatining hamma sohalarida cherkov hukmronlik qilgan. Odamzot gavdasining go'zalligidan zavqlanish nomunosib va gunoh ish hisoblanar, shuning uchun gavdani qo'poldan-qo'pol, og'ir, keyinchalik esa cho'ziq shakllarga o'rab tashlar edilar. Tor yuqori qismi qator-qator murakkab taxlamalardan iborat, orqa etagi nihoyatda uzun ko'ylak juda baland konussimon bosh kiyim va nihoyatda cho'ziq poyabzal bilan birga qo'shilib, qad-qomat ko'rinishini o'zgartirib yuborardi.

O'rta asrlar libos gavdani turli vositalar (shnurlar, korsetlar) yordamida qattiq qisib, tabiiy shakldan uzoqlashtiradigan «g'ilof» tizimining rivoj topishini boshlab berdi.

Uyg'onish davrida estetik dunyoqarashlarni qayta baholash yuz beradi: yangi mafkura shakllanadi. Bu buyuk geografik kashfiyotlar, ilm va texnika yutuqlari davri, san'at davri edi. Bu Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo kabi ulug' allomalar davri edi.

Bu davr kishisi faol, kuchli, g'ayratli, harakat qilib to'ymaydi. U o'rta asrlardagi singari gavdasidan uyalmaydi, balki u bilan faxrlanadi. Taxlamalar qilingan va basavlat turadigan yubka, ko'plab bukmali va kesmalari bor yengli, ochiq dekolte liboslar. Libos og'ir duxobadan, parcha, atlas, movutdan, mo'ynalardan tikiladi. Libosda juda ko'plab qimmatbaho tosh bezaklari ko'zga tashlanadi. Soch oddiy, tabiiy holda, to'r tortib, harir gazlama tutib, qimmatbaho ziynatlar taqib bezatilgan.

Gavdaning plastikasi o'zgaradi, chunki podsho saroylarida oyoq uchida yurish lozim bo'lib, bu poshnali poyabzal paydo bo'lishiga olib keladi.

Gavdani munosib ko'rsatish uchun libosning yelkasi, qorin qismi tagiga har xil tagliklar qo'yadilar. Ayollar libosi qimmatbaho gazlamalardan (parcha, muar, atlas, duxobadan) ko'p qavatlari qilib tikilib, naqsh jimjimalari, bantlar va to'qilgan to'r bilan bezatiladi. Erkaklar modasida bant boylangan, to'r tikilgan, qimmatbaho toshlar taqilgan harbiy libos (mushketyorlar libosi) hukmronlik qiladi. Parik modaga kiradi. Ayollarni ozodlikka chiqarish harakatining boshlanganligi, ayollarning velosiped, tennis, chavandozlik kabi ayrim sport turlariga qiziqishi ham libosda aks etdi. Erkaklar libosi ishchanlikka, amaliy faoliyatga moslanib, ular uzil-kesil va batamom ayollar modasiga birinchilikni berib qo'yadi.

XX asr shakl va materiallar tanlashda qat'iy xizmatboplikni, soddalikni, bemalollikni o'z prinsipi deb e'lon qiladi. Bu asr fan-texnika taraqqiyoti asri, sanoat ishlab chiqarishning gurkirab o'sish asri, ayol kishining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida va ijtimoiy ishlab chiqarishda faol qatnashuvi asri, kosmos asridir.

Libos korset, krinolin, turnyur va hokazo sun'iy narsalardan gavdani xalos qiladi, ayol gavdasini ozod etadi, bashanglik haqidagi eskicha tasavvur o'zgaradi.

Libosning obrazli ifodaliligiga endilikda ilgarigidan boshqa vositalar yordamida erishiladi, ya'ni siluet tez-tez al mashib turadi, chiziqlar injiq va doimiy emas: gavda bilan libosning o'zaro bog'liqligi dinamikasida ifoda topadi — libos bir qarasangiz gavdaga yopishib, gohida unga salgina tegib, ba'zan esa gavdadan juda qochib turadigan bo'ladi. Libosni shakllantirishda xizmatboplikni asos qilib olgan dizayn, ya'ni sanoat buyumlarini badiiy loyihalash faol rol o'ynaydi.

Libos — bu materialarning odam tanasidagi qobiq sistemasi bo'lib, tanani iqlim ta'siridan saqlaydi va odamning o'ziga xos ba'zi xususiyatlarini namoyon qiladi.

Libos — bu libos qismlarining muayyan obrazli-badiiy sistemasi va bu qismlar insonning shaxsiy obrazini yoki ijtimoiy guruhni xarakterlovchi, qaror topgan prinsiplarga asosan yaratilgan, muayyan tarixiy bosqichda erishilgan ma'lum texnik, ilmiy va madaniy yutuqlarni aks ettiruvchi kiyib yurish tarzi.

Odatda, erkaklar va ayollar kiyimining pidjak va shimdan yoki jaket va yubkadan iborat ma'lum bir turi ham libos deb ataladi.

Qo'shimchalar libosga tugallik bag'ishilaydi. Bularga sharf, sumka, zont, hassa, qo'lqoplar kiradi.

«Ko'ylak» terminining ikkita ma'nosi bor. Birinchidan, bu bevosita badan ustidan kiyiladigan ich libosni (ich libos va poyabzaldan tashqari) bildirsa, ikkinchidan, ich libos ustidan kiyiladigan yengil libosni anglatadi.

Bundan tashqari, ayollarning eng keng tarqalgan libos turi ham ko'ylak deyiladi.

Kiyim-kechak — bu ma'lum vazifaga mo'ljallanganlikni ifoda etuvchi detallar xarakteriga binoan sinchiklab tanlangan, kosmetika va soch turmak bilan qo'shilib, libosni to'ldiruvchi va bezovchi predmetlar bilan birlashgan libos. Nimaga mo'ljallanganiga qarab libos — kiyim kishilik, kechalik, yo'lboy va hokazo bo'lishi mumkin.

Garnitur — bu odatda aynan bir tur materialdan tayyorlanib, ma'lum bir nimaga mo'ljallangan bir sidra predmetlar yig'indisi (ich libos garnituri, zargarlik buyumlari garnituri va hokazo).

Garderob — bu bir qator hollarda zarur bo'lган bir sidra libos komplektlari va libosni to'ldiruvchi boshqa qo'shimcha predmetlar, ya'ni bir kishining va butun oila a'zolari hamma liboslarining yig'indisi.

Komplekt — bir xil yoki har xil materialdan tayyorlangan, nimaga mo'ljallangani va uslubiy hal etilishi umumiyligi bo'lган bir sidra to'la buyumlar to'plami: komplektdagi ayrim buyumlarni mo'ljallanganligi va uslubiy hal etilishiga ko'ra o'xshash boshqa buyumlarga almashtirish mumkin. Komplekt — bu ochiq sistema bo'lib, ayrim buyumlarni unga qo'shish va undan olish mumkin.

Ansambl — libosning muayyan badiiy uslub birligiga ega bo'lган hamma qismlarining yig'indisidir. Ansambl o'zaro mustahkam birlikni, bo'linmaslikni bildiradi. Ansambl — bu biron qismini olib tashlab bo'lmaydigan va biron boshqa qism qo'shib bo'lmaydigan yopiq tizim.

To'plam — umumiyligi vazifa bajaruvchi bir qancha buyumlar: unda material bilan uslub birligi bo'lishi shart emas (bolalarining ich libosi to'plami).

«Model» so'zi libosga nisbatan ko'rinishi, shakli, materiali, bezagi yoki boshqa sifatlari yangicha bo'lган libos namunasini bildirib, keyinchalik tikuvchilik fabrikalarida, artelda yoki uyda o'shangacha qarab liboslar tikiladi.

Bir nomli libos guruhidagi shakl, bichiq va boshqa xususiyatlar farqini fason deyiladi. Fason libos modelining o'ziga xos xususiyatlari yig'indisini bildiradi.

Kolleksiya — obrazli yechimi, uslubi, konstruksiyasi, shakli va materiallar strukturasining yagonaligi asosida qurilgan, vazifasi turlichcha bo'lган modellar seriyasi.

## 1. LIBOSNING PAYDO BO'LISH TARIXI

Arxeologlar fikricha, libos insoniyat rivojlanishi davrining ilk bosqichida paydo bo'lgan. Poyabzal esa ancha keyin paydo bo'lgan, libos elementlariga ko'ra tor qamrovdagi tarqalgan edi. Libos dekorativ-amaliy san'at buyumidir. Ob-havo ta'siri, hasharotlar chaqishidan saqlanish maqsadida, odamzot loy, yog', o'simlik bo'yoqlari, keyinchalik tatuirovkadan foydalaniib, o'z tanasini himoya qilgan. Bular libosning birlamchi ko'rinishi bo'lib hisoblanadi. Jonivorlarning pat, suyak, soch, tishlari libosning himoya va ramziy elementlari bo'lib, ular quloq, burun, lab, yonoqlardan teshib o'tkaziladi.

Tarixiy liboslardagi taqinchoqlarning ahamiyati o'sib, kengayib borgan: tabaqaviy, ramziy va estetik. Ularning shakli murakkablashib, turli xili mavjud edi, yechiladigan, tanada mahkamlanadigan uzuk, bilakuzuk, zirak va yechilmaydigan matoga tikiladigan kashta, muhri rasm va hokazo.

Hayvon terilari va o'simlik materiallari odam tanasida o'ralib, yelkada yoki belda mahkamlanardi. Shu tarzda yelkali va belbog'li kiyimlar paydo bo'ldi.

### 1.1. QADIMIY MISR LIBOSI

#### Mamlakatning umumiyligi tavsiyi

Qadimi Misrning tarixi quyidagi asosiy davrlarga bo'linadi:

- qadimi hukmronlik davri: miloddan oldin 3000—2400-yillar;
- o'rta hukmronlik davri: miloddan oldin 2400—1710-yillar;
- yangi hukmronlik davri: miloddan oldin 1500—1090-yillar.

Qadimgi Misrning sinify jamiyati turli tabaqalardan iborat edi: quzdorlar, shaharliklar (yozuvchilar, hunarmandlar), ozod dehqonlar va qullar.

Davlat fir'avn va oliv tabaqalar, ya'ni quzdorlar va amaldorlar tomonidan boshqariladigan zo'ravon monarxiya edi. O'ziga xos Misr dini Quyosh, Oy, Yer xudolari va yovvoyi hayvonlar (timsoh, sher, shagod, sigir, mushuk, burgut, ilon)ga asoslangan bo'lib, hayotning hamma sohalariga chuqr singib ketgandi.

Qadimgi misrliklarda bo'yning balandligi, yelkaning kengligi, bel va boldir ingichkaligi, yuz tuzilishining kattaligi estetik go'zallikning timsoli edi. Go'zallik haqidagi tasavvurlar: ayolning xushbichimligi, yuz go'zalligining to'g'ri va ingichka chiziqlari, ko'z kesimining bodomsimonligi, bu tavsiflarga ko'ra qadimi zamona viy ayol qiyofasi o'rtasida katta o'xshashlik kuzatiladi.

Matolar, rang, naqsh. Nil vodiysining tabiiy sharoiti zig'irpoya o'stirishga qulay edi. Zig'ir matoning 1 sm<sup>2</sup>da 84 ta asosiy va 60 ta yordamchi ip, 240

m uzunlikda yupqa, qariyb ko'zga ko'rinarsiz iplar 1 g og'irlikka ega edi. To'qimachi bunday matoni faqatgina barmoqlar yordamida sezardi. Inson tanasi zig'ir matosining besh qavati ostida ham ko'rnardı.

Oq rang va ko'k, moviy, qizg'ish-jigar, sariq, qizil kabi turli ranglar did bilan ishlatilardi. Naqsh elementlari geometrik tavsifga (to'g'ri va siniq chiziqlar) ega bo'lib, nilufar (hosildor va abadiylik timsolidir) gul barglarining, qamish, palma va yoylarning umumlashgan rasmlari bilan bezatiladi.

Hukmdorlar libosida hayvonning, inson (hukmronlik timsoli) va qo'ng'izlarning umumiylashgan naqshi bajariladi.

Libos jamiyatning iqtisodiy va ma'nnaviy tarkibiy qismidan biri bo'lib hisoblanadi. Libos va kiyim tushunchalari ko'p jihatdan bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, lekin ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Libos inson tanasini yopadigan turli buyumlarni o'z ichiga oladi. Ularga ichki va bosh libos, ko'ylaklar, paypoqlar, poyabzal misol bo'ladi. Libosni kiyim bilan birgalikda, aksessuar, soch turmag'i va pardoz yaratadi. Aynan libos insonning yoshi, jinsi, xarakteri, estetik didini ko'rsatuvchi ijtimoiy va shaxsiy belgi bo'lib hisoblanadi.

Libosning eng tarqalgan turi drapirovka hisoblangan. Drapirovka orqa tomondan oldga yo'naltiriladi. Son atrofida yig'iladigan gazlama bo'lagi — sxenti misr erkaklarining asosiy libosi bo'lib hisoblanadi.

Ayollar libosi ham drapirovka qilingan ko'krak atrofida aylantiriladi. Tabaqalar o'rtaсидаги farq libos matosining sifati bilan aniqlanar edi. O'rta hukmronlik davrida misrliklar libosining shakli murakkablashib, bir necha libos ustidan kiyilganligi tufayli hajmi ancha oshdi. Siluet pastga tomon kengayib, plissirovka bilan bezatilardi. Erkaklar libosi bir necha sxentidan iborat bo'lib, bir-biri ustiga kiyilardi.

Libosning ramziy elementlari. Taqinchoqlar ramziy ma'noga ega bo'lib, oltin va imbirdan tayyorlangan bo'yin taqinchoqlari quyoshni anglatar edi. Qo'l va oyoqqa taqiladigan braslet, halqalar, munchoqlar, diademalar keng tarqalgan edi. Fir'avnning qadimiy bosh libosi ikkitalik toj — ztev, burgut va ilon — urey (hukmronlik ramzi) hisoblanadi. Fir'avnning rafiqasi esa lotos guli bilan bezatilgan bosh libos (telpakcha)ni kiyardi. Ayol va erkaklar o'simliklar yoki qo'y junidan tayyorlangan parik kiyishardi.

Oliy tabaqaga mansub kishilar uzun, mayda o'ralgan va trubasimon kokilli pariklar kiyishardi. Qullarning parik va shapkasi zig'irdan tayyorlanardi.

Palma barglaridan tayyorlangan sandal va keyinchalik oyoq libosini faqatgina fir'avn va unga yaqin kishilargina kiyishardi. Sandallar — oddiy shaklda bort va orqa qismsiz bo'lib, yuqoriga qaytgan taglik va 2—3 ta mayin tasmalardan iborat edi. Sandallarning tagliklariga har xil maishiy va

urush hayotidan lavhalar chizilar edi.

## 1.2. QADIMIY GRETSIYA LIBOSI

### Mamlakatning umumiy tavfsifi

Bolqon yarim orolining janubiy qismida miloddan oldingi VII—I asrda Qadimiyl Gretsiya madaniyati gullab-yashnadi.

Gretsiyaning san'ati realistik xarakterda edi. Gretsiyaning siyosiy tuzilishi sharqiy olamdan keskin farq qilardi.

Estetik go'zalllik timsoli — inson hayotida birinchi marta ideal sifatida ruh va tananining uyg'unligi yotadi.

Gazlama, rang, naqsh. To'g'ri to'rtburchak gazlama bo'lagining turli uzunligi va eni badanda drapirovka qilinib, badan va libosning uyg'unligini ta'kidlardi. Drapirovkaning plastikligi va shaklning bichimi gazlama narxi va naqshning go'zalligiga ko'ra qadrlanardi. Greklar o'z liboslari uchun elastik, ajoyib drapirovka qilinadigan jun va zig'ir gazlamalarni ishlatardilar. Ularni asosan libosning konstruktiv tuzilishi emas, balki manzarali plastik tomoni jalb qilardi. Naqshli gazlamalar o'rnnini turli tusli — ko'k, qizil, yashil, sariq va oqish rang gazlamalar egallaydi. Azali ranglarga kulrang va jigarranglari misoldir. Liboslar uqa, kashtalar bilan bezatilgan. Naqshlar geometrik va myeandr, to'lqinsimon va o'simliklar xarakterida ifodalanardi.

Libosning asosiy shakllari va turlari. Erkaklar libosi qismi xiton va gimatiyidan iborat edi. Xiton — vertikal buklangan va yelkada ikki tuka (iðyæêà) fibula bilan qadalib, yon tomonlar biri tiqilmasdan ham qoldirilardi. Xiton ustida belbog' o'tkaziladi. Gimatiy — 1,7½ m o'lchamli to'rtburchak jun gazlama bo'lib, odam tanasi ustida drapirovka usulida o'raladi. Gazlama tanadan sirg'alib tushmasligi uchun bir bo'lak qo'rg'oshin, ya'ni yuk ilib qo'yildi. Xlamida libosning bir ko'rinishi bo'lib, xitondan farqli bir yelkada fibula bilan qadaladi.

Metall bezakli va munchoqli, rangli teridan tayyorlanadigan sandallar libosni to'ldirardi.

Ayollar libosi erkaklar libosidek, xiton va gimatiyidan iborat bo'lsa-da, o'zining rang-barangligi va bezagi bilan farqlanadi. Ayollar xitoni yoqa o'mizidan qaytarmali bo'lib, uzunligi ko'krak, son, tizzagacha yetardi. Spartankalar yon tomonlari choksiz, atrofi hoshiya bilan bezatilgan xiton — peplos kiyishardi.

Taqinchoqlar, bosh liboslar, soch turmag'i, poyabzal.

Grek ayollar kam holda boshni libos, liboslar, yomon ob-havoda gimatiy yoki xlamida chekkasi bilan yopishardi.

Kalta soch lenta bilan bezatilardi. Soch zar ipli setka, dadema, shpilkalar bilan bezatilardi.

Libosni quyoshga qarshi soyabon yoki yelvizak to'ldirardi. Past tabaqadagi kishilar libosining hajmi kichikroq, gazlamasi arzonroq, bezagi oddiyoq edi.

### 1.3. QADIMIY RIM LIBOSI

#### Mamlakatning umumiy tavsifi

Rim san'ati shartli Respublika davridagi (eramizdan avvalgi IV—I asrlar) va Imperiya davridagi (eramizdagil—V asrlar) san'atga bo'linadi. Respublika davrida Rim Gretsiyani (eramizdan avvalgi II asr) bosib oldi va san'atida uning ta'siri sezildi.

Estetik go'zallik tavsifi — pastga yo'nalgan yelka, keng son va tekis ko'krak. Ideal kolorit — ochiq ranglar. Soch yoki pariklar sariq rangda.

Mato, rang, naqsh. Rimliklar libosi grek an'analari ta'siri ostida edi. Masalan: libosning chiziqli-ritmik yechimi, 2—3 qavat libosning kiyilishi, o'xhash tarkibi va rangli gazlamalardan foydalanish.

Greklar libosidan chetlanish Imperiya davrida Sharqdan qimmat shoyi (1 funt shoyi — 1 funt oltin)lar kelishi bilan boshlandi. Parcha kabi zich va og'ir gazlamalar orqali drapirovkali libos g'ilofsimon, tekis shaklni qabul qiladi.

Ranglar gammasi — turli ochiq-iliq ranglar.

Naqshlar geometrik — aylana, kvadrat, romb va o'simlik motivida — dub, lavr.

Tunika va toga — qadimiy Rim erkaklari libosining asosi bo'lib, grek xiton va gimatiysiga o'xhash bo'lsa-da, konstruktiv farqqa ega edi. Tunika turli uzunlikda va kenglikda bo'lib, tabaqaviy farq, ya'ni mato sifati bilan farqlanardi, ranglari qizg'ish ko'kishtob. Purpur rangli yo'l-yo'l tunika senator va chavandoz-qo'mondonlarga tegishli edi. Toga — 6½1,8 m o'lchamli to'rtburchak, yarim aylana va ellips shaklli gazlama bo'lagidan tayyorlangan, murakkab drapirovka usulidagi libosdir. Drapirovka maxsus qotishma orqali fiksatsiyalanadi. Penula — aylana va yarim aylana bo'lib, unga kapyushon o'rnatiladi. Rimda sharqiy osiyo shakllari va xristian g'oyasining tarqalishi ta'siri ostida qirqimsiz qoplama libos — dalmatik paydo bo'ldi.

Rim ayollari tunika ustidan stolani kiyishardi. Ustki libos bo'lib esa drapirovkali plash — palla, penula hisoblanardi. Bosh vual yoki palla cheti bilan yopilardi. Ranglar gammasi — jigar va oltin, moviy va kul rang.

Taqinchoqlar, bosh va oyoq liboslar, soch turmag'i.

Har bir barmoqqa 5—6 tadan uzuk taqish keng tarqalgandi. Bakenbard va qisqa gajak (lokon)lar Rim imperatori Tita Vespasiana nomi bilan atalardi. Soch turmag'i yelvizaksimon karkasli, kuydirma, ulama sochli bo'lardi.

Poyabzal — yarim etik, sandal va boshmoqlardir.

#### 1.4. G'ARBIY YEVROPA LIBOSI (V—XX ASRLAR)

O'rta asrlar davrida yangi go'zallik ideali — bibi Maryam, Xudoning onasi timsoli paydo bo'ldi.

XII—XIV asrning 1-yarmi. Erkak va ayollar libosi uzun, yopishib turadi. Libos ort qismi o'rta va yon qirqimlar orqali va bel sathida ovalsimon qirqimli chokning shnur orqali o'tkazilishi oqibatida yopishib turardi.

XIV asrning 2-yarmi va XV asrning 1-yarmi (gotika davri). Erkaklar kalta libosining paydo bo'lishi. Birinchi bo'lib ritsar libosi yaxlit metalldan tikildi (detallari sharnir bilan biriktirilgan), kolchuga paydo bo'ldi, bu libos alohida detallarga bo'lingach, old, ort bo'lak va yeng shakllari aniqlanadi. Hajm vitachkalar orqali hosil qilinardi. Bel esa qirqimli edi.

XV asrning 1-yarmida uzun va tor liboslar, osilib turuvchi yenglar, uchli tuflilar, ulkan bosh liboslar modada edi.

Ranglar gammasi — ochiq va tiniq qizil, ko'k, yashil.

Ilk o'rta asrlar davri (VI—XII asrlar). Erkaklar libosida ritsarlar qurol-yarog'i shaklining ta'siri kuzatiladi. Bilo — pastroq joylashgan qirqma bel bo'lib, usti berk libos. Naramnik — yon tomonlari ochiq, bosh uchun qirqimi gazlamaning to'rtburchak yoki ovalsimon gazlama bo'lagidir. Naramnik — mipartn gerbsimon belgilar bilan bezatiladi. XIII asrda syurko — yon tomonlari tikilgan, chuqur yeng o'mizli libos bo'lib, kott — ko'ylak ustidan kiyilardi.

Kech o'rta asrlar davri (XIV—XV asrlar). Erkaklar libosi siluetlari, yopishib turuvchi va etagi kengaygan, yengli, bezak belbog'li, oldindan tugmali, belda tortilib turuvchi, kalta jaket bilan almashdi. Ushbu kurtka uzun tumshuqli (70 sm), «pigash» nomli poyabzal bilan kiyiladi. Poyabzal rangi liboslar rangiga mos tanlanadi.

Syurko upedyand — belbog'li va belbog'siz, yengi keng (3 m), etagi (eni 3 m) va uzunligi keng, qadalmaydigan qoplama libos bilan almashdi. Boshga esa kapyushon-shaperon — uchlari osilib turuvchi drapirovkali bosh libos kiyiladi. Soch turmag'i — uzun gajakli va chyelkali.

Ayollar libosi. Ilk o'rta asrlar davrida ayollar asosan ikkita tunikani ustma-ust kiyishardi. Unda ostki tunika keng, uzun, yengi tor bo'lsa, ustki tunika etagi kalta, yengi keng va kaltaroq edi. O'z vaqtida ko'krakni qisib turuvchi kalta jilet, blio, plash-mantiya paydo bo'ldi. Bosh yopinchoqlari yo'qolib, o'rniga soch yoyib yoki o'rib qo'yilardi. Oyoq kiyimi erkaklar poyabzaliga o'xshash.

Kech o'rta asrlar davrida xayrlashayotgan gotika arxitekturasining ta'siri

libosning cho'ziq proporsiyasida kuzatiladi. Siluetlar — yopishib turuvchi va trapetsiya shaklida.

#### 1.5. RUS XALQI LIBOSI

Ruslarning tashqi ko'rinishi, bo'y-basti, qaddi-qomati, terisining oqligi, yuzidagi qizillik, oltin rang sochlari yevropaliklar va osiyoliklarni zavqlantirardi. Ruslar libosi — to'g'ri yoki yengi kengaytirilgan bo'lib, ularda simmetrik, asimmetrik, kompozitsiyada bosiqlik, oltin va kumush effektli naqshli gazlamalar va turli rangli gazlama, mo'yna, kashtalardan bosh libos sifatida foydalanish kuzatiladi.

Gazlama, rang, naqsh. Turli sifatli zig'ir va jun matolardan, chetdan keltiriladigan shoyi va atlaslardan, bo'yoq va marvariddan kashta tikish bilan liboslar tikishardi.

O'rmon hayvonlari mo'ynasidan, iqlimga ko'ra foydalanishardi.

Erkaklar libosi to'y libosi (kaftan), drapirovkali plash, ya'ni korzis misol bo'ladi. Shlyapalar gardishi va qulochchini mo'ynali. Ichki libos rubaxa va porti hisoblangan. Rubaxa bir necha bo'lak gazlamadan (gazlama eni 30—60 sm), yengi esa uloq-lastovitsa ulanishi bilan tikiladi. Porti keng bo'lmasdan, pastga tomon toraygan, uzungina bo'lib, onuch, ya'ni ustidan lapti kiyiladi, oyoq o'ralsan gazlama bo'lagiga kiritiladi.

Ayollar libosi sifatidagi rubaxa uzun bo'lib, uning yoqa o'mizi va yeng uchlari kashta yoki rangli sidirg'a mato bilan bezatiladi. Rubaxa ustidan «poneva» — belbog'da mahkamlangan, uchta tikilmagan gazlama bo'laklaridan iborat yubka kiyilardi.

Ustki libos rubaxadan kaltaroq bo'lib, yonlari tikilmagan, naramnikka o'xshash qoplama libos hisoblanadi. U belbog' bilan kiyilib, pastda mahkamlanadi. Ko'krak yopqich (nagrudnik) — kalta, keng yengli, yoqa o'mizi, yeng uchlari bezatilgan, rubaxa ustidan kiyiladigan libosdir.

#### 1.6. O'RTA OSIYO XALQLARI MILLIY LIBOSI

XIX—XX asr O'rta Osiyo mintaqasida ulkan siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar davri bo'lib, uning ta'siri an'anaviy libosda ham seziladi. Bu paytda Rossiyaning O'rta Osiyo va Qozog'istonga ta'siri kuchayib, ular o'rtasida savdo muomalasi rivojlanadi, Rossiyadan keltiriladigan gazlama assortimentining kengayishi bilan ulardan tayyorlanadigan liboslar bichimi, eni (mato eni kengaydi), bezaklari, ranglar o'zgaradi.

XX asrda tikuv mashinasining keng tarqalishi tikuvchi ishini yengillashtirib, ular imkoniyatini ancha kengaytirdi. Bu davrda «yevropa» libos bichimi kirib

kelishi bilan O’rtal Osiyo xalqlarining an’anaviy libosi qadimiy ko’rinishidan birmuncha o’zgarsa-da, ularda urfiy elementlar saqlab qolingandi.

O’rtal Osiyo va Qozog’iston xalqlari milliy liboslarida iqlimi, etnosiga ko’ra farq bilan birgalikda, ularni birlashtiruvchi, deyarli bir xil bichim kuzatiladi. XX asrga qadar ushbu xalqlar tunikasimon, yelkadan oshiriladigan, bosh uchun qirqimga ega libos kiyishardi. Bunday o’xshashlik bosh, belbog’li libos va oyoq kiyimda ham uchraydi.

O’xshashlik tarzi barcha xalqlarda uchraydigan yo’l-yo’l matoli liboslarda namoyon bo’lsa-da, ulardagagi ranglar o’zaro farq qilar edi. Oq rangdagi libos, asosan erkaklardagi kalta ko’ylak — rubaxa barcha xalqlarda uchraydi.

Liboslarni bichib tikish, ya’ni yelkasi qirqimli, yengning ovalsimon o’mizi, old va orqa qismli liboslarning tarqalishi, avvalo, Rossiyaga chegaradosh Qozog’iston va Qirg’izistonda bo’lib, so’ng ular atrofiga (kamzol misol) tarqaldi.

Qoraqalpoq yoshlarining ardoqli rangi ko’k bo’lsa, o’zbek va tojiklarda qizg’ish ranglar hisoblanadi.

Bosh libos etnik xususiyatga ega bo’lib, u nafaqat xalqlar, balki undagi ma’lum hududlarda ham farqqa ega edi. Shunday bo’lsa-da, barcha xalqlarda salsa, ro’mol ko’rinishidagi umumiy bosh libos uchraydi, lekin ularning o’lchamlari o’zaro farq qiladi. Sallasimon bosh libos (uzunligi 3—11 m bo’lgan, shoyi va paxtalik mato) qadimdan butun Sharq davlatlari — Hindistondan Misrga qadar tarqalgan edi. Xorazm bosh libosi va Shimoliy Hindiston bosh libosidagi o’xshashlik kiyimlarning Hindistondan kelib chiqqanligi haqidagi fikrni ilgari surdi. Salla turk ayollariga ham mansub. Yozda salsa do’ppi, qishda esa telpak ustidan o’raladi. Oq rangli salsa oliy tabaqaga tegishli erkaklarga mansub bo’lsa, o’rtal tabaqadagilar yashil, sarg’ish rangli salsa o’rashardi.

Farg’onaliklar fikriga ko’ra, salsa o’ragan kishidan qat’iy tartib, namunali xulq-atvor talab etilardi. Shundan bo’lsa kerak, bu mintaqada sallani o’rash cheklangan edi.

Ustki libos bo’lib to’n — joma, kamzol, chakmon, yaktak hisoblanardi.

Keyinchalik umumiy do’ppisimon bosh liboslar tarqalishi rivojlandi. Turmush qurban ayol va erkaklar do’ppi kiyishardi.

Doimo o’zaro muloqotda bo’lib kelgan O’rtal Osiyo xalqlarining liboslari o’ziga xos xususiyatlari bilan birgalikda, o’xshash tomonlarga ham ega.

## 2. LIBOS MODASI

### 2.1. MODA TUSHUNCHASI

Moda — libos, poyabzal, aksessuarlarning turli ko’rinishlarini

shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

Moda nima? U qanday vujudga keladi?

«Moda» so'zi fransuzcha «mode» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u o'z navbatida lotincha «modus» so'zidan olingan. «Modus» so'zi o'lcham, qiyofa, uslub ma'nolarini bildiradi.

V.Dal izohlashi bo'yicha moda — bu odamlar yashayotgan jamiyatdagi libosning va bezaklarning vaqtinchalik o'zgaruvchanligi, tantiqligi.

Libos vaqtı-vaqtı bilan juda tez, ba'zida esa juda sekin, lekin doimo o'zgarib, rivojlanib kelgan. Libosdagi o'zgarishlar jamiyat o'zgarishlari, yangi gazlamalar yaratilishi va ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan hamohangdir. Millatlar va davlatlararo aloqalar va savdo-sotiqlar rivojlanishi bilan, odamlarning kiyinish uslubi ham almasha boshladi.

Madaniyat tarixchilari fikricha, moda XII—XIII asrlarda vujudga kelgan, chunki bu davrga mansub baland shlyapalar, uzun shleyflar, juda tor erkaklar shimplari va uchi yuqoriga egilgan poyabzallar qulay bo'lmasa-da, ularni kiyishgan va shu yo'l bilan ko'pchilikdan ajralib turishga intilishgan.

Modaning eng muhim xususiyati — uning tez-tez almashib turishi hisoblanadi. Yangi moda paydo bo'lishi bilan ma'naviy eskirgan libos va boshqa buyumlar o'zining estetik va pul qiymatini yo'qotadi.

Bu dalil muhim estetik va iqtisodiy ahamiyatga ega. Demak, libos shakllarining o'zgarishi insonning yangilanishga bo'lgan tabiiy intilishiga va jamiyat rivojlanishiga bog'liq.

Taniqli fransuz rassom-modeleri Per Karden modani shunday izohlagan: «Moda — bu ... yangilanish! Tabiat azaldan intiladigan tamoyil. Daraxtlar eski barglarini to'kadi, odamlar esa jonga tekkan libosni! Moda zeriktiruvchi birxillikdan qutqaradi. Odamlar bir-biriga yoqishga intiladi: chiroylı kiyinish, ko'r kam ko'rinish — odam zotining tabiiy istagi».

Moda odam va buyum o'rtasidagi munosabatlarni xarakterlaydi.

Moda — bu ham yangilik, ham eskirgan bo'lsa-da, antiqa narsaga taqlid etishdir.

Mutaxassislar gohida o'zlariga savol berishadi: bugun moda qayerda dunyoga keladi? Madaniyatshunos E.Vende yozishicha: «Parijning katta-katta modellar uylarida: Parij — moda beshigi hisoblanadi, chunki bu yerda kiyinish madaniyatining ko'p asrlik an'analari mavjud va bu yerda rivojlanish qonunlarini yaxshi bilishadi va his etishadi, boy tarixiy merosni qo'llab bilishadi va bu yerliklar nozikta'b hisoblanadilar».

## 2.2. XALQARO MODA USTALARI. LIBOSNI BADIY LOYIHALASH — DIZAYN

Fransiya XVII asrdan boshlab o'zini Yevropa modasining qonunchisi sifatida tanitgan va bugunga qadar birinchilikni saqlab kelmoqda. Har yil ikki marotaba butun insoniyatning nigohi Parijga qaratiladi, chunki bu yerda ko'pchilik taniqli fransuz firmalarining «ot-kutyur», ya'ni yuksak mahoratlil liboslar kolleksiyalari namoyish etiladi.

Bu an'ana uzoq tarixga borib taqaladi. Italyancha uslub butun Yevropada hukmronlik qilib kelgan. Uyg'onish davrida Venetsianing Avliyo Mark xiyobonida yangicha kiyintirilgan fransuz qo'g'irchoqlarining ko'rgazmasi bo'lib o'tgan va venetsiyalik badavlat ayollar qo'g'irchoqlar liboslarini ko'chirib chizib olishgan.

Bu hodisaga shunday katta ahamiyat berilganki, o'sha davrda olib borilayotgan Fransiya va Angliya davlatlari orasidagi urush generallar tomonidan vaqtinchalik to'xtatilib, yangi libos modellari kiydirilgan qo'g'irchoqlar yuklangan kemalarga yo'l ochib berilgan.

Birinchi jahon urushidan so'ng «moda qirolichasi» sifatida Gabriel Shanel tan olindi, uning moda yo'naliishiga ta'siri bizning davrimizgacha yetib keldi. Gabriel Shanel 1970-yil vafot etdi. Gabriel Shanelning asosiy shiori — «Libos xushbichim bo'lishi kerak va unda xohlagan joyga borish mumkin bo'lsin. Odam tanasi o'ziga xos shaklga ega va bu shakl buzilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Xushbichim, ya'ni «elegant» libos — bu erkin harakatga imkon yaratuvchi libosdir».

Gabriel Shanel libos madaniyatining rivojiga katta hissa qo'shgan. Shanel nomi butun dunyoga mashhur, bu nom bilan XX asr modasi chambarchas bog'liq. Shanel o'zining birinchi libos modellarini Birinchi jahon urushi vaqtida erkaklar o'rnnini zavod va fabrikalarda egallagan ishchi ayollar uchun yaratdi. Uzun, noqulay, xalaqit beruvchi yubkalar o'rniga Shanel kalta, sodda yubkalarni, korsetsiz, yengil poluver ko'yylaklarni tavsiya etdi. Bu yangilik zavq bilan qarshi olindi.

Shanel, shuningdek, ayol qiyofasini ham yangiladi — kalta soch turmag'i va ayollar shimi — modadagi qonuniyatlarni batamom o'zgartirdi va yangi moda qonunlarini yaratdi.

Shanel qo'lida ayollar libosi san'at asariga aylanardi. Shanel to'q ranglarni qo'llab, libos bichimini batamom oddiylashtirgan, o'zining jiddiy liboslariga antiqa tus berish uchun sun'iy marvarid va shishali munchoqlarni qo'llagan. U tavsiya etgan sun'iy bezaklar bugungi kundagi bijuteriyaga asos solgan.

Shanel vaqtinchalik modaga qarshi bo'lgan, u modaga bo'ysunmaydigan xalqaro uslubni yaratishga intilgan va ma'lum ma'noda bunga erishgan ham.

Shanel nomidagi firma bugungi kunda ham faoliyat ko'rsatib

kelmoqda.

Per Karden — yana bir mashhur fransiyalik modeler bo'lib, uning shiori — «nufuzli mijozlar kichik guruhchasingin ehtiyojlarini emas, balki butun xalqning ehtiyojlarini qondirish»dan iborat. U turli matolar, bichimlar va ranglar yordamida odamlarning yangi qiyofasini mohirona yaratgan.

Mashhur fransuz modeleri Kristian Diorning shiori — yangi liboslarda sifatning an'analariga riosa qilishdan iborat.

1947-yilda Kristian Dior o'zining Modellar uyini ochib, birinchi modellar kolleksiyasini namoyish etishga tuyassar bo'ldi. Bu kolleksiya Diorni «Nyu-luk», ya'ni «yangi uslub» kashfiyotchisi darajasiga ko'tardi. «Nyu-luk» — bu «eski uslub»ga qarshi reaksiya edi. Kalta, to'g'ri bichimli ayollar libosi ortda qolib, yana jozibali uzun va keng etakli ayollar libosi hayotga kirib keldi. Dior — yuksak mahoratlari kasb egasi nomiga tuyassar bo'ldi.

Dior aksessuarlarga, ayniqsa, shlyapalarga juda katta e'tibor beradi. Ko'pincha, u shlyapa tanlashga model yaratishdan ko'proq vaqt sarflagan. Diorning fikricha, modada eng muhimmi — bu umumiylilik, bosh libosdan boshlab to'poyabzalgacha siluet yagona bo'lishi shart. Dior tomonidan yaratilgan modellar nafaqat ko'rkar, balki qulay va funksional bo'lgan. Diorning har bir modeli — san'at va yuksak mahorat asaridir, shuning uchun doimo unga talab katta.

### 2.3. BADIY LOYIHALASH VA SANOATDA KO'PLAB ISHLAB CHIQARILAYOTGAN BUYUM SIFATI

Bugungi kunda iste'molchilar tomonidan libos, poyabzal va boshqa keng iste'mol mollariga juda katta talablar qo'yilmoqda, buyumlarning ko'rkarligi va qulayligi ularning eng asosiy xossalari bo'lib qoldi.

Mahsulot sifatini yaxshilashda dizaynning o'rni juda katta.

Dizayn — bu buyumlar olamini loyihalashga qaratilgan faoliyat turidir. Dizaynning asosiy vazifasi — buyumlarni tartibga solish, ulardan foydalanishni oson va qulay qilish, chiroyli va estetik ta'sir etuvchi muhit yaratishdan iborat. Sanoatda buyum ishlab chiqarish tizimida badiiy loyihachi, ya'ni dizaynerga juda muhim o'r'in ajratilgan.

Dizayn mahsulotlarini yaratishda texnik va ijodiy faoliyat turlarida hukmronlik qiladigan iste'molchilik va ishlab chiqarish tendensiylarining o'rni juda katta (2.1-sxema).

### 2.4. LIBOSNI BADIY LOYIHALASH JARAYONI

Loyihalashning boshlang'ich bosqichi — dastlabki tahlil bo'lib, mahalliy va chet elda mavjud bo'lgan o'xshash namunalarni o'rganadi. Bu jarayonda

modelning ijtimoiy kerakligi, iste'molchilar talabini qondirish uchun ishlab chiqarish lozim bo'lgan mahsulot soni aniqlanadi.

Masalani yechishda jamoatchilik fikrini o'rganish yordam beradi. Libos yaratish dizaynerdan turli bilimlarga ega bo'lishni talab etadi: falsafa, san'at va hokazolar. Lekin eng muhim, dizayner libosni odam qiyofasiga hamohang yaratishi, uning kasbi, yoshi, tana tuzilishi, qiziqishlarini hisobga olinishi shart.

Birinchi bosqich — loyihalash obyektini shakllantirish bo'lib, uning maqsadi dastlabki ma'lumotlarning tahlilidan iborat. Bunda loyihalash obyekti qaysi tipologik guruhga mansub, qanday elementlar va jarayonlardan iborat, bu jarayonlar qanday o'tmoqda va iste'molchilar talablaridan kelib chiqqan holda ularni baholash kabi masalalar yechiladi.

Dizayner faoliyatining ikkinchi bosqichida ayirboshlash jarayoni amalgaga oshiriladi, ya'ni loyihalash obyekti shunday o'zgarishi kerakki, uning tarkibidagi morfologik elementlar ijobiy signalga ega bo'lsin.

## 2.5. ODAM TANASINING PROPORSIYALARI VA SHAKL TAVSIFI

Libos shakli odam tanasining shakli bilan chambarchas bog'liq.

Tana proporsiyalari — bu tana va uning alohida qismlarining mutanosibligi hisoblanadi. Tananing to'g'ri proporsiyalari odamga estetik ko'rksamlik va garmonik barkamollik ko'rinishini baxsh etadi.

Azaldan tana proporsiyalarini aniqlashda tananing biron-bir qismi o'lchov birligi sifatida qabul qilingan va shu asosda tananing boshqa qismlari o'lchangan.

Odam tanasining proporsiyalari haqidagi ilm — qonunlar barpo etish uchun, ya'ni tana o'lchamlari va proporsiyalarini amaliy qo'llash nuqtayi nazaridan juda qulay bo'lgan yagona tizimga keltirishga qaratilgan.

Bu qonunlar ichida eng mashhuri qadimgi grek haykaltaroshi Poliklet



2.1-sxema.

qonuni hisoblanib, unda o'lchov birligi sifatida qo'l kaftining kengligi qabul qilingan.

Poliklet qonuni bo'yicha bosh-tana uzunligi — 1:10, yuz — 1:10, bosh va bo'yin birgalikda — 1:6 qismiga teng. Shunday nisbatlar asosida haykallar yaratilgan, Polikletning «Dorifor» haykali ham shu qonun asosida yaratilgan.

Leonardo da Vinchining qonuni (2.1-a, rasm) quyidagicha: qo'l va oyoqlari keng yoyilgan odam gavdasi aylanaga sig'ishadi va odam kindigi aylana markazi hisoblanadi. Bu qonun bo'yicha o'lchov birligi — bosh balandligi bo'lib, tana uzunligi 8 ta bosh balandligiga teng bo'lishi kerak.

Odam tanasining asosiy qonuniyatlarini tushunish uchun nemis rassomi A. Dyurer o'zining qonunlarida matematik hisoblashlarni qo'llagan (2.1-b, rasm). A. Dyurer qonuni bo'yicha tana quyidagi nisbatda tuzilgan: bosh tana uzunligining 1/8 qismini tashkil etadi. Odam gavdasining balandligi 2 qismga bo'linadi:

- I — bosh va bo'yin qismi to ko'krakkacha;
- II — tananing pastki qismidan iborat kvadrat.

Tana proporsiyalarini Shmidt-Fritch qonuni asosida aniqlash (2.2-rasm) umurtqa pog'onasining uzunligiga asoslangan. Umurtqa pog'onasasi 4 ta teng qismga bo'linib, har bir qismi o'lchov birligi sifatida tana proporsiyalarini tuzishda ishlatilgan.

«Oltin kesim» deb, AV to'g'ri chiziqning shunday proporsiyasi hisoblanadi: (2.3-rasm).

$$AV:VE=VE:AE$$

Raqam bilan «Oltin kesim»ni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$1.62:1=1:0.62$$


Normal proporsiyali tanada poldan kindikkacha bo'lgan masofaning odam bo'yiga bo'lgan nisbati «Oltin kesim» nisbatiga teng. Erkaklarda bu nisbat taxminan  $13:8=1.625$ , ayollarda esa  $8:5=1.60$  ga teng.

Ko'r kam qomatli zamonaviy kishi obrazi — bu proporsional rivojlangan, baland bo'yli, sportchi tarzidagi qomatli shaxsdir.


Tana proporsiyalariga libos proporsiyalari chambarchas bog'liq. Rassomlar libos eskizlarini yaratganda, odam tanasi proporsiyalarini bir qancha uzaytirishga intilishadi, chunki baland bo'yli, uzun qo'l-oyoqli va bo'yinli tana sohibi yengil va ko'r kam ko'rinishga ega. Shuning uchun baland bo'yli odamlar gavdasida libos ko'r kam ko'rinaldi.

2.4-rasmda odam gavdasining chaqaloqlik davridagi proporsiyasidan (1:4) to katta odam tanasi proporsiyalari (1:8) dinamikada ko'rsatilgan.

Bolalar gavdasi proporsiyalari turli rivojlanish va o'sish davlarida turli



a



b

2.1-rasm. Leonardo da Vinchi  
(a) va A. Dyurerning (b) proporsiya qonunlari.

xil: chaqaloqlarning bosz uzunligi tananing uzunligiga nisbati 1:4 ga teng, qo'llar uzunligi 2:5 ni, oyoqlar uzunligi esa 1:3 tana uzunligini tashkil etadi. Gavda markazi — bolaning kindigi hisoblanadi. Chaqaloq boshining kengligi uning bo'ksa kengligiga teng bo'ladi.

Kamolga yetgan sari bolalarning bir tomondan tanasi va uning qismlari kattalashadi, ikkinchi tomondan turli tana qismlarining proporsiya nisbati o'zgaradi. Bolalarda boshning balandligi faqat 2 marta kattalashadi, tana


uzunligi esa 3 marta, qo'llar uzunligi 4 marta, oyoqlar uzunligi taxminan 5 marta, bo'yin uzunligi 7 marta, ko'krak qafasi aylanasi 3 marta kattalashadi.

Odam tanasining tashqi shaklini o'rganish bilan plastik anatomiya shug'ullanadi. Konstruktor ishida odam tanasining tashqi shaklini aniqlaydigan asosiy morfologik belgilarni mukammal bilish muhim ahamiyatga ega. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: umumiy (total) o'lchamlar, tana proporsiyasi, qomat va tana tuzilishi. Loyihalanayotgan libosning sifati, ya'ni uning siluetli shakli, detallar va ular qismlarining o'zaro mutanosibligi, bichimi va dekorativ-konstruktiv chiziqlarining xususiyatlari, libosning odam figurasida o'rashuvli va h.k. ko'p jihatdan bu belgilarning to'g'ri aniqlanishiga bog'liq.

Tana o'lchamining total belgilari. Odam tanasining tuzilishi to'g'risida asosiy tasavvurlar raqamlar bilan ifodalanadigan jismoniy rivojlanganligining muhim ko'satkichlaridan olinadi. Ularga tana uzunligi (bo'y), ko'krak aylanasi va tana massasi kiradi.

Tana uzunligi yosh va jinsga, yashash hududiga, shaxsga va davrga oid o'zgaruvchanliklarni aks ettiradi.

Antropoglarning fikri bo'yicha, ayollar tanasining o'sishi 17—18 yoshga, erkaklarniki esa 18—20 yoshga qadar o'z nihoyasiga yetadi. Erkaklar bo'yining o'rtacha uzunligi 168—170 sm, ayollarniki esa 157—159 sm. Odam tanasining uzunligi 45—50 yoshgacha o'zgarmaydi, so'ngra har besh yilda 0,5—0,7



2.2-rasm. Shmidt-Fritch proporsiya qonuni.

sm ga kamaya boshlaydi.

Ko'krak aylanasining o'zgarishi qizlarda 18—20 yoshga, o'spirinlarda esa 25—26 yoshga borib to'xtaydi. Yosh oshgan sari muskullar va teri ostida yog' qatlamlari o'sishi tufayli ko'krak aylanasi kattalashadi. 60 yoshdan so'ng u biroz kamayishi mumkin.


Ayollarda ko'krak aylanasi juda keng miqyosda o'zgarib, 72 sm dan 136 sm gacha bo'ladi. Keltirilgan parametrlardan og'gan holdagi figura normal hisoblanmaydi.

Ayollar turli libosini konstruksiyalashda ko'krak aylanalarining I, II, III o'lchamlari ishlatalidi.


Uchinchi ko'krak aylanasi ( $O_{g_3}$ ) ko'proq tana tuzilishini ifodalab, boshqa o'lchamlar bilan uzviy bog'langan. Shu bois  $O_{g_3}$  libos konstruksiyalashda asosiy o'lcham sifatida qabul qilingan va figura razmerini hamda libos razmerini aniqlaydigan asosiy o'lchamdir.

Tana massasi — uchinchi asosiy morfologik belgidir. Ayollar tanasining massasi o'rta hisobda 56—63 kg bo'lib, u juda keng miqyosda o'zgaradi.

Ayollar tanasining massasi (organizm normal holatdaligida) 25—40



2.3-rasm. «Oltin kesim» proporsiyasi.



2.4-rasm. Odam gavdasining chaqaloqligidan to'katta yoshigacha o'zgarish dinamikasi.

yoshga qadar deyarli o'zgarmaydi. 40 yoshdan 50 yoshgacha ayollar tanasining massasi oshadi. 60 yoshdan so'ng tana massasi kamayadi.

Ko'krak aylanasi, bo'y va tana massasi odam tanasining tashqi shakli to'g'risida muayyan ma'lumot beradi. Lekin figurani to'liqroq va aniqroq ifodalash uchun bu belgilar ozlik qiladi, chunki odam skeletining shakli va razmerlari turlicha va har xil figuralarda muskul sistemalarining rivojlanishi va yog' qatlamlari har xil bo'ladi.

Odam tanasining proporsiyasi deb tana ayrim qismlarining nisbatiga aytildi. Proporsiyalar yoshiga va jinsiga bog'liq holda o'zgarib turadi. Hattoki bir xil yoshdagagi guruhda ham proporsiya turlicha bo'ladi.

Katta yoshli aholi orasida antropologlar ma'lumotlariga ko'ra, asosan uch xil proporsiya tiplari aniqlangan: dolixomorf, braximorf va mezomorf.

Dolixomorfga kalta, tor tana va uzun oyoq-qo'llar xosdir; braximorf — nisbatan kalta oyoq-qo'llar va uzun, keng tana bilan tavsiflanadi; mezomorf bu tiplar oralig'ida joylashgan.

Libosni modellash va konstruksiyalash jarayonida ayollar figuralarining qomati bo'yicha xillarini oldindan farqlamoq muhim ahamiyat kasb etadi, chunki libosning odam figurasida sifatli o'rashuvli asosan qomat turini to'g'ri aniqlashga va asosiy o'lchamlarni to'g'ri o'lhashga bog'liq.

Qomat — bu odam yurganda va turganda, vertikal muvozanatini saqlagan holda tanasining holatidir. Qomat bo'yicha figuralar normal, bukchaygan va kekkaygan turlarga ajratiladi (2.5-rasm).

Shartli ravishda to'g'ri (normal) qomatli figuraga gavdasini to'g'ri tutish xos. Yelkalari asosan o'rta balandlikda, orqasi sal yumaloqroq, kuraklari turtib chiqmagan, ko'krak qafasi silliq, to'g'ri, ko'krak bezlari o'rtacha joylashgan, qorin sal chiqqan, umurtqa bel sohasida o'rtacha egilgan bo'lishi kerak (2.5-b rasm).

Bukchaygan figurada gavdasi ozmi-ko'pmi old tomonga og'gan bo'ladi. Bu holatda oldinga yo'nalgan yelkalari pastroq yoki past bo'ladi. Orqasi dumaloq, kuraklari turtib chiqqan, ko'krak qafasi tor, ichiga kirgan, ko'krak bezlari past joylashgan, qorin chiqqan. Normal qomatli figuraga nisbatan umurtqa pog'onasi bo'ylab bel sohasi kamroq kirgan, dumba esa kamroq chiqqan (2.5-a rasm).

Kekkaygan figura gavdasi orqa tomonga ko'proq og'ishi bilan tavsiflanadi. Yelkalari orqa tomonga yozilgan, orqasi vertikal bo'yicha nisbatan to'g'ri, ko'krak qafasi baland, kerilgan, ko'krak bezlari baland joylashgan, qorin yassi yoki kirganroq. Bunday figuralar umurtqa pog'onasi bel sathida ko'proq kirgan va dumba ko'proq chiqqani bilan normal qomatli figuralardan farq qiladi (2.5-d rasm).

Bukchaygan figuralarda gavdaning old tomonga egilganligi va

kekkaygan figuralarda gavdaning orqaga og'ganligi turli darajada namoyon bo'ladi, shu bois ba'zi o'lchamlar qiymatlarining farqi katta bo'lishi mumkin.

Qayd etilgandan tashqari, bir figuraga ikki xil qomatning xususiyatlari xos bo'lishi mumkin. Masalan, figurada dumaloq orqa va nisbatan baland ko'krak qafasi yoki dumaloq orqa, umurtqa pog'onasi belda ko'proq kirgan va dumbasi ko'proq chiqqan va h.k. bo'lishi mumkin.

Tana tuzilishi. Odam tanasining tuzilishi muskullar rivojlanishiga va yog' qatlamlari taqsimlanishiga bog'liq. Teri ostidagi yog'lar qatlami va ularning taqsimlanishi qator omillarga bog'liq, lekin bunga birinchi navbatda odamning yoshi va jinsi ta'sir etadi. Ayollarda yog'lar ko'proq ko'krakda, qorinning old devorida, dumbada va bo'ksaning yuqori qismida yig'iladi. Bu vaziyat modellash va konstruksiyalashda hisobga olinishi kerak.

Ayni holda odamlarning ko'pchiligiga o'rtacha tana tuzilishi xos, ya'ni tana aylanalarining o'lchamlari, bo'yлari va massalari o'rtacha qiymatlarga ega. Tana bo'yicha yog' qatlamlari bir tekisda taqsimlangan figuralar shartli ravishda proporsional figura deyiladi. Bunday figuralarda gorizontal tekisliklarda joylashgan (yelka kengligi, ko'krak, bel va bo'ksa aylanalari) asosiy o'lchamlar va vertikal tekislikda joylashgan (bo'y, oyoq-qo'llar va tana uzunliklari) asosiy o'lchamlar o'zaro muayyan proporsional nisbatda bo'ladi.

Ayollarfigurasiga xos tuzilishlar xillari yog' qatlamlarining taqsimlanishiga bog'liq holda 2.6-rasmida ko'rsatilgan.

## 2.6. LIBOS SHAKLI

Libos va odam tanasi yagona birlik hisoblanadi. Libos shakllari odam tanasining tayanch sirtlaridan kelib chiqqan holda quriladi. Tayanch sirtlari doimiy va siljishga moyil sirtlarga bo'linadi.

Birinchi tayanch sirt — bu bosh sirti hisoblanib, unga turli bezaklar, bosh liboslari kiygiziladi.


Ikkinci tayanch sirt — bu yelka sirti bo'lib, unda yelkaga oid liboslar yaratiladi. Libosning bu qismida bo'yin o'mizi, yelka, yeng o'mizi, yeng boshi joylanishi aniqlanadi.

Libosning rivojlanish tarixi turli bichimli yelkaga oid liboslar shaklini o'z ichiga oladi: yopinchoqlar (plashlar), tunikasimon va yelkali sarafanlar.

Uchinchi tayanch sirt — ko'krak sirti.

To'rtinchi tayanch sirt — bel sirti. Bel sirtining joylashishi bilan siluet shakli chambarchas bog'liq.

Masalan, bel chizig'i ko'krak chizig'i ostida, beldan pastda, ya'ni bo'ksa chizig'ida joylanishi mumkin, shuning uchun bel sirti asosiy tayanch sirt hisoblanadi.



2.5-rasm. Qomat turlari.

Libosning (libos, poyabzal, aksessuarlar) tashqi ko'rinishi fazoviy strukturani eslatadi.

Libos shakli nazariyasi asoschisi rassom T.V. Kozlova hisoblanadi. Uning tushunchasi bo'yicha libos shakli bu «odam — libos — muhit» ko'p pog'onali tizimining elementlari o'rtasidagi bog'lanishning dinamik modeli hisoblanadi.

### Libosni konstruksiyalash asoslari

**Libosning shakli.** Shakl predmetning tashqi ko'rinishini ifodalaydi. Zamonaviy libos yumshoq va egiluvchan bo'lgani sababli o'z shakliga ega emas. Shu boisdan libosning shakli deganda uning odam tanasida hosil qilgan konfiguratsiyasi tushuniladi. Shaklni asosan uning tuzilishi, konfiguratsiyasi, yuzasining ko'rinishi tavsiflaydi. Ushbu xususiyatlarning parametrlari o'zgarib turadi. Ular modaga, yil fasliga, yoshga, tana o'lchamlariga va shakliga, libos turiga va materialiga hamda estetik talablarga bog'liq. Tuzilishi bo'yicha shakllar oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy shakl bir bo'lakdan iborat. Masalan, yubka yoki ko'ylak. Murakkab shakl yagona yaxlitlikni tashkil etgan bir necha bo'laklar tizimidan iborat

bo'ladi.

Vazifasiga ko'ra shakl asosiy, qo'shimcha va dekorativ qismlarga bo'linadi.

Shaklning asosiy qismi libosning xilini aniqlaydigan bo'laklardir. Masalan, yengil libosda asosiy qismlar lif va yubka hisoblanadi, ust liboslarda ular qatoriga yana yeng va yoqa qo'shiladi.

Shaklning qo'shimcha bo'laklari — muayyan libos xilining tarkibiga kirishi shart bo'lмаган qismlar (ko'ylakning yengi va yoqasi).


Dekorativ qismlar shaklning asosiy va qo'shimcha qismlarini o'zgartirib, xillarini ko'paytiradi.

Shaklning konfiguratsiyasi — bu uning geometrik ko'rinishi va tashqi konturlarining chizig'i.

Shaklning konfiguratsiyasini ifodalaganda geometrik shakllar (to'g'ri to'rtburchak, trapetsiya, oval va h.k.), harflar va raqamlar (D, 8, X — shakllar va h.k.) bilan obrazli solishtiriladi. Shakl konfiguratsiyasi rasm, fotografiya, haykal shaklidagi tasvirlar orqali grafik tarzda ifodalanadi.

Siluet — hajmiy shaklning soddalashtirilgan ramziy ifodasi.

Libosning asosiy siluetlari figuraga nisbatan (tanaga yaqinlik darajasi) va geometrik shakliga ko'ra tashniflanadi. Tanaga yaqinlik darajasi bo'yicha



2.6-rasm. Ayollarning tana tuzilishi turlari.

siluetlar quyidagicha farqlanadi (2.7-rasm):

- yopishgan;
- belda yopishgan (lif va yubka turli hajmga ega);
-  nim yopishgan;
-  to'g'ri;
-  kengaygan;
-  toraygan.

Geometrik shakl ko'rinishi bo'yicha quyidagilarni keltirish mumkin:

-  — to'g'ri to'rtburchakli;
- trapetsiyasimon;
- iks shaklida;
- sal yopishgan;
- kombinatsiyalashgan;
- ovalsimon.

Yopishgan siluet tana shaklini yaqqol ko'rsatishi bilan tavsiflanadi (2.7-a rasm).

Belga yopishgan siluetli libos belga zinch yopishganligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan bir paytda lifning shakli yopishgan holatdan — juda kengaytirilgan holatgacha o'zgarishi mumkin. Yubkada ham katta o'zgarishlar kuzatilishi mumkin — etak tomoni toraytirilgan yoki belga burma berib juda kengaytirilgan. Ushbu siluetda bel chizig'inинг holati aniq belgilanadi (2.7-b rasm).

Nim yopishgan siluet ko'krak yuzasida ravonligi, belda bo'shroq turishi va etakka me'yorda kengayganligi bilan tavsiflanadi (2.7-d rasm). Belga yopishganlik darajasi figuraning xususiyatiga ham bog'liq. Masalan, beli bilinmaydigan figuralar uchun konstruksiyada bel chizig'iga beriladigan to'kislik qo'shimchasi yopishgan siluet qo'shimchasiga teng bo'lishi mumkin. Bu holda libos shakli sal yopishgan siluetday ko'rindi, chunki bel chizig'ida eng ko'p yopishgan muayyan nuqta sezilmaydi. Yon chiziqlar va bo'rtma chocklar chiziqlarining konfiguratsiyasi moda yo'nalishiga bog'liq holda farqlansa ham, bel qismida doim ravon shaklga ega bo'ladi.

Nim yopishgan siluet figuraning konturini takrorlasa ham uni bo'rttirib ko'rsatmaydi.

To'g'ri siluet shaklan to'g'ri to'rtburchakka juda yaqin. Bu guruhga hajmi katta liboslar ham kirishi mumkin (2.7-e rasm).

Kengaygan siluetga doir liboslarning tepa qismi hajman katta bo'lmaydi, lekin etakning pastki qismi kengaytiriladi. Ba'zan ushbu siluet trapetsiyasimon (A-ga o'xhash) deyiladi. Siluetning barcha turlarida ko'krak chizig'idan pastroqda ma'lum darajada to'kislik nazarda tutiladi.

Moda yo'nalishiga bog'liq holda siluetning kengayish darajasi hamda kengayishning boshlanish nuqtasi yelkadan, o'mizning o'tasidan, ko'krak chizig'idan va undan pastroqdan bo'lishi mumkin.

## 2.7. LIBOS MAZMUNINING TASVIRIY IFODASI

Libos, poyabzal va umuman libos mazmuniy, badiiy va emotsiyal-g'oyaviy mazmunga ega bo'lgan holda, shuningdek, foydali va ko'rkar bo'lganidagina badiiy buyumga aylanadi.

Loyihalash tizimida libos shakli markaziy o'rinni egallaydi. Libosda shakl hosil qilish plastika tushunchasi bilan chambarchas bog'liq.

Plastika — bu shaklning uzlusiz harakati bo'lib, u bir elementdan ikkinchi elementga ravon o'tishni bildiradi. Libos yoki poyabzal plastikasi haqida so'z yuritganda, avvalo, odam tanasi plastikasi ko'zda tutiladi.

Odam hayot faoliyati davomida ko'pgina reflekslarga ega bo'ladi. Bahor, kuz, qish fasllari odam ongida yangilanish, xazonrezgi, sovuq tushunchalari bilan hamohang. Xuddi shunday «og'ir», «yengil», «yumshoq», «qattiq» so'zlari ham odam ongida aniq emotsiyal ifoda aks etadi.

Turli shakllar, ularning chiziqlari, detallari ham ongimizda aniq shakllanadi (2.8-rasm). Masalan, uchburchak, to'rtburchak, shar, kvadrat, ellips shakllari haqida so'z yuritganda, bu jismlar ko'z o'ngimizda shakllanadi.

Libosni shakllantirishda dizayner turli chiziqlardan foydalanadi: to'g'ri chiziq, gorizontal to'g'ri chiziq, vertikal to'g'ri chiziq, parallel, siniq, egri, o'zaro kesishuvchan va hokazo chiziqlar (2.8-b, d rasm). Gorizontal chiziqlar buyumning kengligi haqida tasavvur beradi.


Gorizontal chiziqlar to'lalik, xotirjamlik, barqarorlik illuziyasini beradi. Masalan, poyabzalning oyoq uchi qismi keng bo'lsa, barqarorlik hissini baxsh etadi (2.8-a rasm).

Vertikal chiziqlar buyumning uzunligi, chidamliligi tasavvurini beradi, bunday chiziqlar insonga ko'rkalilik, baland bo'y baxsh etadi. Egri chiziqlar — libosdagi asosiy konstruktiv va kompozitsion chiziqlar hisoblanadi, chunki ular yordamida libosning hajmiy shakli yaratiladi.

Parallel va kesishuvchan chiziqlar bezak va dekorativ choklar uchun mo'ljallangan.

Chiziqlar xilma-xilligini 3 ta emotsiyal guruhga bo'lish mumkin: 1) to'g'ri chiziqlar; 2) yoyslar; 3) parabola, giperbola, spirallar (2.8-rasm).

To'g'ri chiziqlar va doimiy radiusli yoyslar odamga sokinlik va xotirjamlik hislarini baxsh etadi, parabola va giperbolalar esa faol emotsiyal ta'sir ko'rsatib, odam psixikasini charchatadi. Demak, bunday chiziqlarni libosda qo'llash chegaralanishi lozim.



2.7-rasm. Libos shaklining konfiguratsiyasi.

Insonning hayoti va faoliyatida libos rangiga e'tibor juda katta. Masalan, turli xalqlarda libos ranglari turli ma'noga ega bo'lishi mumkin. Aytaylik, aza rangi ba'zi xalqlarda qora rang hisoblansa, ba'zilarida oq yoki ko'k hisoblanadi.

Turli tabaqaga mansub kishilarning go'zallik tushunchasi har xil bo'ladi. Masalan, ayol go'zalligi haqida gapirganda, dehqonlar uchun bir xil proporsiyalar, savdogarlar uchun ikkinchi xil va aristokratlar uchun tamoman boshqa turdag'i gavda proporsiyalari ko'zda tutiladi.

Insonning emotsiyonal hissiyoti uning hayot faoliyati davomida shakllanadi. Kulol ko'za yasashda biladiki, ko'zaning bo'yni toraygan, pastki qismi esa kengaytirilgan bo'lishi kerak. Lekin kulolning emotsiyonal hissiyotiga ko'ra, ko'za turli shakllarda yaratiladi (2.9-rasm). Birinchi ko'za og'irroq va «jiddiy» yasalgan bo'lib, u stolda barqaror turibdi, proporsiyalarning cho'zilishi natijasida ikkinchi ko'za balandroq ko'rinishga ega; uchinchi ko'za shaklining nafisligi unga beqiyoslik va takrorlanmas joziba baxsh etadi.

Shunga o'xshash hodisa libosda ham kuzatiladi. Turli davrlar va davlatlar xalqiga mansub liboslar ko'rinishi va shakli turli xil bo'lib kelgan. Libosning chiroyi, zamonaviyligi doimiy, o'zgarmas hisoblanmaydi. Libosda yangi shakllar paydo bo'lishi bilan oldingisi ma'naviy eskiradi va qadrsizlanadi.

## 2.8. LIBOS SHAKLINING FAZOVIY XOSSALARI

Libos fazoviy shaklining xossalari — bu uning ko'zga tashlanadigan belgilar majmuasi bo'lib, geometrik shakl (konfiguratsiya), fazoning xossasi va o'lchami, massa, faktura, rasm, rang, yorug'lilik-soya jilosi kabi xossalari

shular jumlasidandir.

Libosning shakl xossalari odam figurasiiga — konstruktiv tayanch sifatiga bog'liq.

Geometrik ko'rinish — bu libos shaklining xossasi bo'lib, uning uch koordinata bo'yicha o'lchamlari nisbati bilan aniqlanadi.

Libosning geometrikko'rinishi odam gavdasining fazoviy konfiguratsiyasi bilan aniqlanadi.

Shaklining uch turi mavjud:

1) hajmiy, bunda uchta koordinata bo'yicha o'lchamlar tengligi kuzatiladi;

2) tekislik, bunda uchta koordinata bo'yicha birining o'lchami keskin kamayishi kuzatiladi;

3) chiziqli, bunda uch koordinatali o'lchamdan faqat bittasining qolgan ikkita o'lcham ustidan ustuvorligi kuzatiladi.


O'lcham — bu shakl va uning uch koordinata bo'yicha elementlarining davom etish xossasidir. Libos shaklining o'lchami odam gavdasi o'lchamiga nisbati bilan o'lchanadi. 2.10-b rasmida ayollar ustki libosining turli hajmiy shakllari ko'rsatilgan. Libos shaklining katta yoki kichik ko'rinishi uning detallarining o'lchamlariga ham bog'liq. Masalan, libosdagi kichik detallar uni katta qilib ko'rsatadi va teskarisi: katta detallar libosni kichik qilib ko'rsatadi.

Libosning muhim xossalardan biri — uning shaklining odam gavdasi bilan bog'liqligidir. Libos, poyabzal turli siluet o'lchamlarida aniqlanadi. Shu o'rinda shaklining harakati uning tektonikasi va gavda xususiyatlari bilan bog'liqligi haqida aytib o'tish joiz.

Ko'pchilik kompozitsion masalalarni yechishda libos massasining ko'zga tashlanishini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Katta shakllarning massasi ham katta tuyuladi. Masalan, kub yoki sharning massasi juda katta ko'rindi, chiziqli shakllarga yaqin jismalar massasi kichik tuyuladi (2.10-d rasm).

Shaklining ko'zga tashlanishida yorug'lik va soya xossalaring ham ahamiyati katta. Yorug'lik va soyaning joylashuvi jismning shakli, relyefi, uning sirti va yoritilishiga bog'liq. Soya bo'lmasa, jismning hajmiy shakli ko'zga aniq tashlanmaydi. Agarda yorug'lik  $90^{\circ}$  burchak ostida jismga tushsa, fazodagi shakl yorug' siluetda ko'zga tashlanadi, uni qurshab turuvchi jismalar esa soyada qoladi.

Material fakturasi — bu jism shaklining ko'zga tashlanish xossasining yana bir bog'liqlik jihat. Silliq yuzali materiallar yaltiroq, jilodor bo'ladi. Yuzasi relyefli, naqshli materiallar g'adir-budur (silliq emas) bo'ladi. Lekin material fakturasi faqat unga yorug'lik tushganida seziladi, soyada fakturasi




2.8-rasm. Turli emotsional taassurot  
uyg'otuvchi geometrik shakllar va chiziqlar:  
a) geometrik shakllar; b) chiziq turlari; d) chiziqlar plastikasi.

sezilmaydi, ya'ni yaltirashsiz, tekis yuzadek ko'zga ko'rindi.

### 3. LIBOS KOMPOZITSIYASI ASOSLARI

#### 3.1. TEKTONIKA TUZILISHI VA SHAKL BIRLIGI. KOMPOZITSIYA TOIFALARI

Rassom insonlarga xursandchilik baxsh etuvchi va ayni paytda ularni ma'naviy va estetik tarbiyalovchi mukammal buyumlar dunyosini yaratish talantiga ega bo'lib, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlardan kelib



2.9-rasm. Turli shakldagi ko'zalarni emotsiyal qabul etish.

chiquvchi obyektiv qonun va prinsiplar asosida ish yuritadi.


Libos yaratilishi to'g'risida dizayn mahsuloti sifatida gapirganda mashhur Rim arxitektori Vitruviyning so'zlarini eslash o'rinnlidir: fansiz iste'dod, iste'dodsiz fan barkamol rassomni yaratishga qodir emas. Bu so'zlar bilim va his eta olish, faoliyatda ratsionallik va ta'sirchanlikning bog'liqligini ifoda etadi, birinchi navbatda, bu loyihalashtiruvchi — rassom faoliyatiga taalluqlidir.

Kompozitsiya nazariyasi yaxlit, uyg'un san'at asarini yaratish qonunlari, qoidalarini ifodalaydi. Kompozitsiya to'g'risidagi fan san'atda shakllar tuzilishi umumiy ichki qonuniyatlarini, ularning yaxlitligi va mazmun bilan uyg'unlikka erishish aniq vositalarini o'rganadi. Dizaynda kompozitsiya maqsadi — funksional, konstruktiv, estetik qiymatga ega bo'lgan, utilitar oqlangan buyum shaklini yaratishdir. Kompozitsiya qonuniyatları bo'yicha shakllanuvchi predmet tuzilishi uning vazifasiga javob beruvchi funksional va konstruktiv xususiyatlarga ega.

Kompozitsiya — lotincha so'zdan olingan bo'lib, tuzish, bog'lash, birlashtirish demakdir.

Kompozitsiya nazariyasi qarab chiqilayotgan hodisalar o'rtasidagi umumiy va muhim bog'lanishlar hamda munosabatlarni aks ettiruvchi toifalarga asoslanadi. Libos kompozitsiyasida bunday toifalar tektonika va hajmiy-fazoviy tuzilish hisoblanadi.

Tektonika predmetning moddiy-texnik tabiatini uning badiiy shaklida qanday aks ettirilgan, degan savolga javob beradi. Buyum shaklida material konstruksiysi va tashkil etilish ishining ko'rinarli aksiga tektonika deyiladi.



2.10-rasm. Libos fazoviy shaklining xossalari:

- a) libosning geometrik shakllari turlari;
- b) libos shaklining o'lchami;
- d) libos massasining shakliga bog'liqligi.

Shunday qilib, poyabzal uchun charm bilan bir qatorda, to'qimachilik materiallarining qo'llanishi shaklining muvofiq yechimiga olib keladi. Afsuski, shakli tektonik aniqlikdan mahrum sanoat mahsulotlari ko'p uchrab turadi, ya'ni konstruksiya, material ishi to'g'risidagi ma'lumot yo'q. Konstruksiyada mahsulot shaklini tashkil etish, muhim estetik jihatni ko'ra olish uchun uni yaxshi tushunish kerak.

Aniq bir materialda ifodalangan konstruksiya va shaklining o'zaro shartlanishi har qanday mahsulot va uning ustida ishni aniqlovchi eng muhim jihatdir. Har bir mahsulot shakli, shuningdek, hamma elementlarning o'zaro va fazoda hajmiy-fazoviy tuzilishi — oddiy va murakkab kabi ma'lum ta'sirlanish nuqtayi nazaridan qaraladi. Hajmiy-fazoviy tuzilish barcha elementlarning bog'lanish tizimi tektonika bilan bir qatorda haqiqiy uyg'unlikka erishishda muhim ahamiyatga ega. Kompozitsiyaning har ikkala toifasi o'zaro yaqin bog'langan.

Tektonikaning buzilishi — konstruktiv asos ishining noto'g'ri aks ettirilishi — hajmiy-fazoviy tuzilish elementlarining bog'lanish uyg'unligiga ta'sir etadi, xuddi shunday noto'g'ri hajmiy-fazoviy yechim tektonik xarakterdagi xatoliklarga olib keladi.

### 3.2. KOMPOZITSIYA XUSUSIYATLARI

Gap odam gavdasi tuzilishi bilan bog'liq narsalar haqida bo'lgani uchun bunda shaklning odam figurasi va fazo bilan o'zaro ta'siri muhim shartdir. Bu o'zaro ta'sir xarakteri eng avvalo simmetriya yoki asimmetriya bilan aniqlanadi.

Simmetriya — bu shakl holatini aniqlovchi kompozitsiyaning eng yorqin va ko'zga tashlanuvchi xususiyatlaridan biri, bu shakl tashkil etuvchi vosita, va nihoyat, bu kompozitsiyaning eng faol qonuniyati. Ma'lum bir nuqta, o'q yoki tekislikka nisbatan bir xil joylashgan figuraning bir xil elementlari simmetrik bo'ladi. Figuraning markaz, o'q yoki tekislik atrofida burilishida simmetrik elementlar to'liq mos keladi. Simmetriya libosda odam figurasi simmetrik shaklining qobig'i sifatida kompozitsiyaning yaxlitligi va badiiy ifodaliligiga erishishning muhim vositalaridan biri.

Simmetriyaning turli xillari mavjud: oynali, markaziy, tekislikli, o'qli va hokazo. Amaliyotda loyihalashtiruvchi ko'p uchratadigan simmetriya xususiyatlaridan biri simmetrik shakllarda nosimmetriyaning namoyon bo'lishidir. Simmetriyadan cheklanish shaklning buzilishi degani emas. Asimetrik elementni ratsional kompanovkalashda keyingisi qolgan hajm bilan uzviy bog'lanadi hamda kompozitsion muvozanatga erishiladi, umuman, simmetrik kompozitsiya nozik o'ziga xoslikka va ajiblikka ega bo'la oladi.

Asimetrik shakl ham, agarda uning asosida birlashtirilganda asimetrik shaklining kompozitsion muvozanatini aniqlovchi ma'lum qonuniyatlar yotsa, yuqori tashkil etilgan bo'la oladi. Asimetriya kompozitsiyaning o'ziga xos prinsipi sifatida xizmat qila oladi. Asimetrik kompozitsiya odatda yechim, dinamiklikni qayd etish uchun qo'llanadi. Simmetrik shakl yaxlitligining asosiy sharti — bu uning kompozitsion barqarorligidir. Simmetriya va asimetriyaning mohirona qo'llanishi turli-tuman poyabzal, libos modellarini yaratishga imkon beradi.

Mahsulot shakli barcha elementlarining birligi, ya'ni ularning mosligi va bog'liqligi kompozitsiyaning muhim xususiyati va vositasi hamda uning mavjudligi shartlaridan biridir. Birlik libos kompozitsiyasi xususiyati sifatida san'atning barcha turlari va janrlarida namoyon bo'ladi.

Sanoat mahsuloti shaklining badiiy loyihalashdagi yaxlitligi, konstruktiv yechimi va uning kompozitsion aks ettirilishi bilan bog'liqligi mantiqi va uzviyligini aks ettiradi. Yaxlitlik kompozitsiyaning boshqa muhim xususiyati — o'zaro bog'liqlik bilan bog'liqdir (natija va sabab kabi). Poyabzal, libos va hokazolarning har qanday kompozitsiyasiga asosiy, kam ahamiyatli va ikkinchi darajali elementlarning o'zaro bog'liqligiga asoslangan ma'lum tizim sifatida qaralishi mumkin. Shakl elementlari o'zaro kontrast, nyuans va o'xshashlik prinsipi bo'yicha muvofiqlashishi mumkin. Kontrast — shaklda

qarama-qarshilik, turli xil bog'lanishning ko'rinishi. Bu qarama-qarshilik aql bo'yicha, rang, hajm darajasi, taranglik darajasi bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Kontrastlikni yasatishda va sport modellari yechimlarida qo'llash yaxshiroq. O'xshashlik — poyabzal, libos kompozitsiyasida turli variatsiyalarda rivojlanuvchi, takrorlanuvchi bir elementning takrorlanishi. Nyuans kontrastdan o'xshashlikka o'tish holatidir, u elementlar o'rtasida qo'shimcha, jozibali bog'lanishlar yaratadi, bu bilan yechim uyg'unligiga yordam beradi. Shakl elementlarining nyuansli ishlanishi shaklning aniq kontrast yechimida yengil dekor kompozitsiya g'oyasini aniq ajratib ko'rsatadi.

Poyabzal, sumka, libos kompozitsion — tashkil etilgan, hajmiy shakli o'zaro bo'ysungan qismlar tizimi kabi tushuniladi, unda asosiy va bo'ysungan qismlar yaxlitlik hosil qilib, o'zaro bir-birini kuchaytiradi. O'zaro bo'ysunish ikki noteng elementlar nisbatidan yoki shaklning noteng qismlarga ajratilishidan yuzaga keladi. Shunday qilib, agar to'g'ri burchak (ko'ylak, sumka yoki tuflı silueti shartli umumlashtirilgan shakli) ikki noteng qismga ajratilsa, to'g'ri burchakli shaklning katta qismi kattaligi bilan ajralib turadi va boshqa teng shartlarda shaklning kichik qismini o'ziga bo'ysundiradi. O'sha to'g'ri burchakli shaklni uch qismga ajratishda boshqa teng shartlarda asosiy qismni ajratishning uch imkoniy paydo bo'ladi. Shunday shaklni uch teng qismga ajratishda o'rtada joylashgan qism markaziy holatni egallovchi sifatida boshchilik qiladi. Shaklning markaziy qismi ikki chetki o'zaro teng qismlardan kichik bo'lgan taqdirda ham boshchilik qiladi. Shaklni uch noteng qismga ajratishda ulardan katta qismi boshchilik qiladi.

Faol bir tomonlama yo'naltirilgan shaklni dinamik deb atash qabul qilingan. Shakl dinamikligi avvalo elementlar nisbati, uning qismlarga ajratilishi bilan bog'liq. Tenglik (o'xshashlik) yoki kattaliklar munosabati nyuansi shaklning nisbiy statikligini tavsiflaydi. Munosabatlarda kontrast ustun kattalik yo'nalishida, «ko'rinuvchi harakat» sifatida dinamikani yuzaga keltiradi. Oddiy shakl ichidagi chiziqlar xarakteri va yo'nalishiga qarab (masalan, to'g'ri burchak, trapetsiya) shaklning turli yo'nalganligi yaratiladi, statiklik saqlanib qoladi yoki uning dinamikligi kuchaytiriladi. Shakl ko'rinuvchi harakatning yaratilishi kompozitsiya ifodaliligiga yordam beradi.

Kompozitsion tashkil etilgan shakl (libosning, poyabzalning, sumkaning yoki umuman libosning) o'z asosiy qismiga yoki kompozitsion markazga ega bo'lib, boshqa tobe qismlar unga bo'ysunadi. Asosiy qism — hamma elementlar o'rtasidagi asosiy, muhim bog'lanishlar to'planish joyi. Shaklning istalgan elementi, uchastkasi kompozitsion markaz bo'la oladi. Kompozitsion markazni turlicha ajratish mumkin: miqdoriy, markaziy

joylashuv bilan, sifatli, mazmuniy omil sifatida (masalan, pardozlash). Kompozitsiyaning murakkab ko'rinishlarida o'zaro bog'langan bir necha kompozitsion markazlar bo'lishi mumkin.

Libosda kompozitsion markaz poyabzal, sumka bo'la oladi. Bunda erkaklar libosida shim pasti va tuflilar, ayollar libosida bel yoki yelka libosi va etiklar usti o'rtasidagi nisbatlar kabi kompozitsiya uchastkalarining yaxlit yechimi muhimligini qayd etish lozim. Erkaklar modasiga shimplar osilib turishining kirishi bilan uning poyabzal bilan aniq kompozitsion aloqadorligi o'rnashdi. Ko'p holatlarda uzaytirilgan shimplar pasti poyabzal ustiga tushib, qisman uning ustini qoplab turadi, kengaytirilgan shim pasti poyabzal ustini to'liq qoplab turadi. Biroq bunda sof utilitar talablarga ko'ra tagcharm va poshna ochiq qoladi. Bu borada shim pasti va poyabzal bo'ylama izi yechimining ifodaliligi, bu chiziqlarning plastikligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday o'zaro aloqadorlik — erkak libosining yaxlitligi qomatning kelishganligini ajratib turadi. Modaga kirgan ayollar shim komplektlari jaket va shim, sviter va shim, bluzka va shim va hokazo, shuningdek, libos kompozitsiyasi bu qismining yechimi muhimligini aniqlaydi.

### 3.3. KOMPOZITSIYA VOSITALARI

Kompozitsion markaz va kompozitsiya boshqa qismlarining muvofiqligiga qator shartlarni bajarish asosida, libos hamma elementlari birligi va bog'lanish vositalari orqali erishiladi: qismlarning o'zaro o'lchamlari uyg'unligi, masshtablilik, plastiklik, ritmiy bog'lanishlar proporsiyalari, rang va faktura yechimlari, dekorning uyg'unlik bilan kiritilishi. Kompozitsiyaning bu vositalari orqali mahsulot ifodaliligiga va uyg'unligiga erishiladi. Ularning qo'llanishi mahsulotga qo'yiluvchi funksional va konstruktiv talablarga, shuningdek, mahsulotning muhim va odam bilan optimal o'zaro bog'lanishi talabiga javob berishi lozim. Bunda har qanday kompozitsion usullar o'z oldiga qo'yilgan maqsadni emas, balki shaklda mahsulotning asosiy mazmuniy xususiyatlarini — uning vazifasi, tuzilishi, konstruksiya xususiyatlari va boshqalarni ifodalash vositasi ekanligini esda tutish kerak.

Libos, poyabzal shakllari monolit (yaxlit) emas, odatda, qator tarkibiy qismlardan iborat. Ularning qismlardan iborat bo'lishi libos, poyabzal, aksessuarlar shaklining odam gavdasi, oyog'i, qo'llari tuzilishi, mahsulot tayyorlanish texnologiyasi, mato xususiyatlari, ularning vazifasi, va ayniqsa, badiiy ifodalilik masalalariga bog'liq.

Libos u yoki bu darajada inson gavdasining murakkab konfiguratsiyasini aks ettiradi va to'g'ri geometrik shaklga ega emas.

Mato yuzasida libos, poyabzal va hokazo yuzasini yoyish bilan «Konstruksiyalash» fani shug'ullanadi. Mahsulot assosiy konstruksiyalari ular assortimenti bilan aniqlanadi — palto, ko'yak, yubka, tuqli, etik va hokazo.

Har qanday guruh konstruksiyasi asosi (libos, poyabzal) tarkibiy qismlar eng kam miqdorini ko'zda tutadi. Masalan: palto orqa tomon, yenglar, yoqa, polochkalar; ayollar ko'ylagi — lif, yubka, yenglar; lif o'z navbatida — old va orqadan tuzilgan bo'ladi; tuqli — uch qismi, bog'lovchi, orqa qismidan iborat va hokazo.

Libos yuzasining qismlarga ajralishi mato modeli, texnologik ishlov berish turi hamda u tayyorlangan mato kengligiga bog'liq. To'qimachilik matolari kengligi, diapazoni katta — 45 dan to 155 sm gacha. Tor matolarni qo'llashda katta shakllar yaratilishi chegaralanadi va hatto, ba'zan buning imkoniy yo'q. Bu cheklangan o'lchamlar (yuzalar) va spetsifik konfiguratsiyali (mo'yna, charm) matolardan liboslar loyihalashda kuzatiladi. Charm va mo'yna yarimfabrikatlar o'lchamlarining cheklanganligi katta detallarni bir necha qismlarga ajratishga majbur qildi.

Poyabzal, libos, sumkalar, bosh libosi va boshqa mahsulotlar yuzasini qismlarga ajratishning bosh sabablari rassom g'oyasining badiiy ifodaliligiga va shakl hajmdorligiga erishishdir. Libos chiroyli bo'lishi va odamni xushbichim hamda ko'rkar ko'rsatishi kerak. Libos, libosning boshqa tarkibiy qismlari kabi, odam figurasi yutuqlarini ajratib ko'rsatishi yoki ularning ko'rinishini o'zgartirishi mumkin.

Qismlarga ajratish ko'krak, bel, tizza, yelka oldi va hokazo chiziqlar holatini aniqlaydi. Libos, poyabzal, sumka va hokazo uzunligi va o'lchamlari ularning vazifasi hamda badiiy tafakkurga bog'liq. Masalan, kechki ko'yak, har kun kiyiluvchi va tennis o'yini uchun mo'ljallangan ko'yakning turlicha uzunligi; erkaklar shimi vazifasiga ko'ra turli uzunlikda bo'lishi; jaket kalta yoki uzun bo'lishi; etiklar ham xuddi shu tariqa.

Arxitektor va rassomlar proporsiyalarni kompozitsiya vositalari orasida birinchi o'ringa qo'yishadi. Shakl elementlari o'lcham munosabatlari ustida butun kompozitsiya shakllanuvchi asosdir. Shakl detallari, elementlari o'zicha yaxshi bo'lishi mumkin, biroq butun hajmiy tuzilishni aniq proporsional sxema birlashtirmasa, shakl yaxlitligiga erishish qiyin. Proporsiyalar kuchi mohirona maqsadga yo'naltirilgan uyg'unlashuvning bevosita samarasidadir. Shakl proporsiyasi, loyihalovchi unga narsa mohiyatidan kelib chiqib yondoshgandagina, ta'sirli kuchga ega bo'ladi. Poyabzal, libosni qo'llanuvchi material va qo'llanuvchi texnologiyalarni hisobga olgan holda, konstruksiyaning injener ishlovi va shaklning inson gavdasi yoki uning xususiyatlariga qarab badiiy-konstrukturlashga ko'ra yaratish talab etiladi.

Shu sababli proporsional tuzilish, qismlar va buyumning mos o'lchamliligi konstruksiya texnik mukammalligining muhim tekshiruvi bo'lib xizmat qiladi. Konstruktiv mantiqqa to'g'ri kelmagan narsa noprropsionaldir.

Shaklning ikki qismi orasidagi o'lcham munosabatlari proporsiyalar deb ataladi. San'atda proporsiya tushunchasini va matematikada proporsiya tushunchasini farqlay olish lozim. Matematikada proporsiyalar to'rt kattalik —  $a : b = c : d$  ni bog'lovchi munosabatlar tengligi sifatida aniqlanadi. San'atda proporsiyalar, shu jumladan, libosda asar badiiy timsoli tushunchasi bilan yaqindan bog'langan, kompozitsion amaliy ish uchun proporsiyalarning matematik nazariyasi faqat yordamchi ahamiyat kasb etadi. Aniq kompozitsion vazifa, badiiy did va rassom tajribasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kompozitsiyada proporsiyalarning ikki turi ajratiladi — sodda va murakkab. Sodda proporsiyalar sodda ratsional sonlardan tuziladi. Sodda proporsiyalar arifmetik yoki modulli deb ataladi, chunki unda hamma qismlar uchun o'lchov bo'lib xizmat qiluvchi ma'lum yagona boshlang'ich kattalik mavjud. Modul — biron-bir predmet, narsa, inshoot, ularning detallari, tugunlari, elementlari o'lchamlarini hisoblashga asos sifatida qabul qilinuvchi kattalik bo'lib, ular tanlangan modulga karralik bo'ladi. Bunday kompozitsiya modeli bo'lib keng tarqalgan o'lchov birligi (metr, santimetr) emas, ushbu narsa, predmet, material o'lchamlari xizmat qiladi. Xalq libosida, masalan, bunday kattalik uyda to'qilgan mato kengligi yoki po'st o'lchami bo'lgan.

Sodda nisbatlarda ikki kattalik sonli bog'liqligi kasr soni bilan ifodalangan bo'lib, unda surat ham maxraj butun sonlar bilan beriladi (odatda 1—6 gacha). 1:1 nisbatda eng sodda geometrik shakllar — kvadrat, kub tuziladi. To'g'ri burchakli shaklda 1:2, 1:3, 1:4, 1:6 nisbatlar kvadratning butun son marta takrorlanishini beradi. 2:3, 2:5, 3:4, 3:5, 5:6 nisbatlar (1—6 gacha) nisbatga kiruvchi har bir geometrik kattalikka butun son marta joylashuvchi modulni o'z ichiga oladi.

Ikkinci proporsional tizimni geometrik yoki irratsional deb atash mumkin, chunki unda kattaliklarning irratsional nisbatlariga asoslangan geometrik tuzilishlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Quyidagi irratsional nisbatlar ajratiladi: kvadrat diagonalining uning tomoniga nisbati, ya'ni  $a:b = 1 : \sqrt{2}^2 + \frac{1}{\sqrt{2}} = 1 : \sqrt{3}$  yonli uchburchak balandligining asos yarmiga nisbati, ya'ni  $a:h = 1 : \sqrt{3}^2$ ; oltin kesim deb ataluvchi kasr sonlar bilan ifodalanadigan nisbat 1:1,62...

Oltin kesimlar deb nom olgan prinsipga asoslangan proporsiyalar keng yoyilgan. Oltin kesim qadimdan ma'lum bo'lgan va qo'llangan. Bu atamani Leonardo da Vinchi iste'molga kiritgan. Oltin kesim (bo'lak)ning geometrik

tuzilishi katetlar 1:2 nisbatli to'g'ri burchakli uchburchak yordamida juda oson amalga oshiriladi. To'g'ri beshburchakka qo'shilib ketuvchi beshqirrali yulduz tuzishda yulduz tomonlari har bir kesishish nuqtasida oltin kesimga nisbatan ikki qismga bo'linadi. Amaliyotda yaqinlashtirilgan oltin kesim ko'p qo'llanadi (3:5, 5:8, 8:13, 13:21 va hokazo). Bu yerda qatorning har bir keyingi a'zosi oldingi ikkitasining yig'indisiga teng.

Oltin kesim prinsipidan foydalanib poyabzal, sumkalar, liboslar kompozitsiyasida eng proporsional nisbatlarni topish mumkin. Kompozitsiyada arifmetik proporsiya statiklikni, geometrik proporsiya dinamiklikni ifodalaydi. Proporsiyalar katta badiiy ahamiyat kasb etadi, libos san'atida ular shakl elementlari o'lchamlarining mosligi va uyg'unlagini aniqlaydi. Proporsiyalar mashtablilik bilan uzviy bog'liq.

Masshtablilik — shakl va uning elementlarining odam, atrofdagi fazo va boshqa shakllarga nisbatan o'lchamlari mosligidir. Libos va uni tashkil etuvchi barcha elementlar (libos, poyabzal, sumka, bosh libosi va hokazo) har vaqt odam o'lchamlariga mos. Libos va uning tarkibiy qismlari masshtabliligi libos vazifasi, mavsum, muhitga bog'liq bo'ladi.

Masshtablilik va shaklning qismlarga ajralishini qabul qilish o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Shakl qismlarga ajratilishi qanchalik yirik bo'lsa, u shunchalik yirik masshtabli bo'ladi. Predmetlar va inshootlarning masshtabli ifodaliligi, shuningdek, ko'rish orqali qabul qilishning boshqa ko'p xususiyatlariga bog'liq. Oq va ochiq predmetlar, narsalar, umuman libos, unga o'lchamlari teng qora tuslilarga qaraganda yirikroq ko'rinati. Ko'rishning oddiy illuziyasi — vertikal chiziqlar uzunligining gorizontalg'a nisbatan ortiqcha ko'rinishi. Shunga muvofiq vertikal qismlarga ajratilgan shakl ham qismga ajratilmagan yoki gorizontal qismga ajratilganga ko'ra balandroq ko'rinati. Libos va uning tarkibiy qismlari masshtabliligi masalalarining to'g'ri hal etilishi ko'p hollarda materiallar xususiyatlari, mahsulot konstruksiyasi va ularni tayyorlash usullarini tushunishga bog'liq. Masshtablilik narsa, mahsulot shaklini tashkil etuvchi boshlardan biridir. Predmetlarning real kattaligi yoki masshtabi to'g'risidagi tushuncha ularni bir-biri hamda odam gavdasi o'lchamlariga taqqoslash jarayonida paydo bo'ladi. Masshtablilikka erishish proporsionallashtirish bilan bog'liq. Proporsiyalarni o'zgartirish bilan predmetga haqiqiy masshtab berish, predmetning o'zini ko'rinvchan kattalashtirish yoki kichraytirish bilan sun'iy masshtab berish mumkin.

Rassom o'z ijod obyektini uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Bu intilishni amalga oshirishga ritm qonuniyatları yordam beradi.

Ritm — bu shaklning o'lchanuvchi yoki his etiluvchi elementlarining tabiiy navbatlashuvridir. Ritmg'a tabiat hodisalari va shakllari, mehnat

jarayonlari, san'at asarlari va hokazolar xos. Ritmik tuzilish hamma jonli, o'suvchi, harakatlanuvchi narsaga xos. Hajmlar, qismlar, maydonlar, chiziqlarning tabiiy navbatlashuvi, yuqorida qayd etilgan munosabatlar — kontrast, nyuans, tenglik, proporsiyalar turli ritmik tuzilishlarda kompozitsiyaning spetsifik vositalari sifatida qo'llanadi va libosning timsoliy tavsifiga turli emotsiional rang beradi. Tabiatda va san'at asarlardida ritmik (qonuniyatlar) tabiiylikning qisman namoyon bo'lishi modul va simmetriyadir. Takrorlanishning eng oddiy turi — metrik takrorlanish bo'lib, bu elementning ko'p martali bir xil intervalda takrorlanishidir. Metrik takrorlanish osoyishtalikni, muvozanatni ifodalaydi, asosan statik kompozitsiyaga xos. Kompozitsiyaning metrik tuzilishi ko'pincha predmetning funksional xususiyatlari va uning konstruksiysi bilan aniqlanadi. Metrik takrorlanishlar turlicha berilishi mumkin — teng intervallar orqali teng shakllarning takrorlanishi, interval shakl qismga ajralishi chegarasi bo'lgan teng shakllar takrorlanishi, shakllarning radial joylashuvi.

Metrik takrordan farqli ritm tabiiyligi navbatlashuvchi elementlar qatorida asta-sekin miqdoriy o'zgarishlarda ifodalanadi — hajm yoki yuzaning o'sishi yoki kamayishi, tuzilishining zichlanishi yoki kamayishi va hokazo. Shunday qilib, ritm tartibning tabiiy o'zgarishida namoyon bo'ladi. Ritm shaklga faol kompozitsion harakat beradi, u dinamiklik va kompozitsion muvozanatning namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Ritm tabiiyligi to'rt asosiy sxema bo'yicha berilishi mumkin: teng elementlarning ular o'rtasidagi intervallar o'zgarishida navbatlashuvi (oshadi yoki kamayadi), shakl elementlari o'sadi yoki kamayadi, interval esa o'zgarmaydi; shakl elementlari ham, ular orasidagi intervallar ham o'sadi yoki kamayadi; shakl elementlari va intervallar ularning radial joylashuvida o'sadi yoki kamayadi.

Metrik va ritmik qonuniyat tushunchasi tuzilishida qator belgilari bo'lmagan eng oddiy geometrik shakllarda ham qo'llanadi. Hamma uchastkalari bir-biriga teng to'g'ri chiziq tekislik, silindrik va shar yuzasi metrik tuzilishga ega. Konik kesilish egrilari — ellips, parabola, giperbolani — ular asosida hosil bo'lgan hamma yuzalar turi kabi dinamik egrilarga kiritish mumkin.

Metr va ritm bir predmetda qo'shilishi mumkin. Metroritmik qator turlitumanligi ichidan rassom predmetlar, ansambl mohiyatiga javob beruvchi, ularga statik yoki dinamik ifoda beruvchilarini tanlaydi.

Libos kompozitsiyasining muhim vositasi rangdir.

### 3.4. LIBOS KOMPOZITSIYASIDA RANG

Kompozitsiya vositasi sifatida rang ayni vaqtda uning muhim elementi hamdir. Libosda nafaqat libos rangi, balki poyabzal, sumka va libosni to'ldiruvchi boshqa predmetlar rangi ham muhim. Libosni yaratishda rangni chiziqlar, shakllar, mato fakturasi, libos vazifasidan alohida qarab chiqish mumkin emas.

Ranglarning tartibga solinishi va sistemalashtirilishi masalasi turli mutaxassislar: fiziklar, ximiklar, matematiklar, fiziologlar, psixologlar, biologlar, san'atshunoslar, rassomlar va faylasuflar e'tiborini tortib kelgan.

Rang nazariyasi asoslari I. Nyuton tomonidan yaratilgan bo'lib, u birinchi bo'lib ranglar dunyosini sistemalashtirishga harakat qildi, yorug'likning sinib o'tishini va rang o'rtaсидagi bog'liqlikni kashf etdi. Uning faraz etishicha, ungacha bir turda hisoblangan yorug'lik prizmada sinib o'tishida ko'p turli yorug'lik to'lqinlariga parchalanadi. Nyuton aylanada o'z spektr ranglarini joylashtirdi va tushmayotgan to'q qizil rangni qo'shdi. Ranglarning bunday joylashtirilishi ko'rsatdiki, bir rang tusi asta-sekin boshqasiga o'tadi. Nyuton yetti asosiy ranglar mavjudligini ko'rsatgan: qizil, to'q sariq, sariq, yashil, moviy, ko'k va binafsha. Ranglarni aylanasimon joylashtirish rang tuslarining keyingi sistemalashtirilishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Ranglar turli-tumanligi ikki guruhga bo'linadi: xromatik va axromatik. Axromatik ranglar — bu oq, qora va kul rangning oqdan to qoragacha ranglari. Xromatik ranglar — spektr ranglari va spektrda bo'lmagan to'q qizil ranglar. Xromatik ranglarni to'q qizil ranglar bilan birga ularning spektral ketma-ketligida aylana bo'ylab joylashtirish mumkin. Natijada rangli aylana hosil bo'ladi. Yengil sanoat mutaxassislar o'z amalii va ilmiy faoliyatlar asosida dotsent V.M. Shugayev ishlanmalari bo'lgan rangli aylana bilan ish olib borishadi.

«Rang» tushunchasi anchagina murakkab bo'lib, o'z ichiga uch aniq tavsifni oladi.

1. Rang tusi — rang nomi, ifodasi, bu atama faqat bitta rangga xos xususiyatni ifodalaydi: sariq, yashil, ko'k, qizil va hokazo. Rangni ifodalash uchun rang nomini ifodalovchi so'zlarning bosh harflari qo'llanadi. Rangli aylanada 4 rang asosiy deb ko'rsatilgan: sariq, qizil, ko'k, yashil; 4 oraliq ranglar: sarg'ish-qizil, qizg'ish-ko'k, ko'kimtir-yashil, yashil-sariq.

2. Rang ochiqligi bir monoxrom rang ichidagi farqni ifodalaydi. Bu atama bir monoxrom rangga oq yoki qora rangning qo'shilish darajasini ifodalaydi. Och qizil — bu suyultirilgan qizil, moviy — suyultirilgan ko'k. To'q ranglar qora rangni sof rangga qo'shish bilan hosil qilinadi. Ba'zi ranglar sof holda ham juda ochiq (masalan, sariq), boshqalari esa sof holda ancha

to'q (masalan, to'q qizil rang) bo'ladi.

3. To'qlik — xromatik rangning teng ochiq rangli axromatikdan farqlanish darajasi, rang intensivligi. Axromatik ranglar to'qlikka ega emas. Libos, poyabzal, libos aksessuarlari uchun deyarli barcha materiallar rang intensivligini pasaytirish xususiyatiga ega. Juda ochiq ranglar ko'zga tashlanuvchan ko'rinishga ega bo'lib, tana rangi bilan mos kelmaydi. Bunday ranglarni libosning juda muhim qismi bo'lgan poyabzal kompozitsiyasida qo'llashda juda ehtiyyotkorlik qilish zarur. Rang intensivligining o'zgarishiga axromatik yoki qo'shimcha ranglarni qo'shish natijasida erishiladi.

Yumshoq tusli ranglar uchun ochiqlikning pasaygani xarakterli. Kul rang tusli ranglar mato bo'yalguncha bo'yash vannalariga ma'lum miqdorda qo'shimcha rang qo'shish bilan hosil qilinadi. Yostiq (ochiq) ranglar ham past to'yinganlik bilan xarakterlanadi, ular nafaqat asosiya qo'shimcha rangni qo'shish bilan, balki ularni rangsizlashtirish orqali hosil qilinadi.

Sof rang — spektr rang bo'lib, u shu rangda bo'lishi mumkin bo'lgan eng ochiq rang. Spektr tahlili ranglarida sariq rang eng ochiq bo'lib, uning har ikkala tomonida ochiqlikning pasayishi yuz beradi.

Ikki rang bir xil nomga ega bo'lishi mumkin (masalan, ikkalasi ham qizil) hamda ochiqligi bo'yicha ham bir xil, biroq ayni paytda rang kuchi bo'yicha farq qiladi: biri ochiq-qizil, boshqasi och-qizil, kulrang-qizil bo'lishi mumkin. Ular o'rtaсидagi farq — to'yinganlikda, ya'ni rang intensivligi darajasida.

Yorug' fonda hamma ranglar to'q, qora fonda — ochiq bo'ladi. Bu hodisa bir vaqtli yorug'lik kontrasti deb ataladi. Rangning haqiqiy ochiqligi o'rtacha yorug'likda kuzatilishi mumkin. Bir vaqtli kontrast hodisalarda ranglar bir-biriga ta'sir etib, nafaqat ochiq yoki to'q tusga kiradi, balki axromatik ranglar ko'rinuvchi ranglarga ega bo'ladi. Masalan, kul rang qog'oz yashil fonda och qizil rangday ko'rindi. Xromatik ranglar yuqori to'yingan ranglar o'rtaсидida rang tusini birmuncha o'zgartiradi yoki to'yinganligini o'zgartiradi. Masalan, sariq rang yashil fonda biroz to'q sariq rang bo'ladi, qizil yashil o'rtaсидida — ancha to'q ko'rindi. Bu hodisa xromatik kontrast deb ataladi. Rang kontrastliligi — beqaror hodisa. Uzoq vaqt kuzatishda kontrast ma'lum vaqt saqlanib turadi, keyin kamaya boshlaydi.

Ranglar bir-biridan ochiqligi, to'qligi va rang toni bilan qancha ko'p farq qilsa, shunchalik bir-biri bilan kam uyg'unlashadi.

Aylananing ikki o'zaro perpendikular diametrлари oxirida mos ranglar joylashadi (V.M. Shugayev bo'yicha): sariq va ko'k, qizil va yashil. Ko'z to'r pardasiga bir vaqtda sariq va ko'k yoki qizil va yashil ranglar ta'sir etganda, ularning intensivligi ma'lum nisbatda ekranada oq yoki kul rang hosil bo'ladi. Optik qo'shilishda xromatikligi yo'qoluvchi ranglar qo'shimcha yoki o'zaro qo'shimcha deb ataladi.

Sof qizil va yashil orqali rangli aylanani ikki qismga bo'lishda — aylananing bir qismida iliq (sarg'ish — qizil, to'q sariq, sariq, sarg'ish-yashil va sarg'ish-yashil) ranglar, boshqasida esa — sovuq (to'q qizil, binafsha, ko'k, moviy) ranglar hosil bo'ladi. Iliq va sovuq ranglarni qabul qilish — emotsiyal, psixologik hodisa; sovuq ranglar ochiq, kam to'qlikka ega, yengil; iliq ranglar — to'q rangda, og'ir. Iliq va ochiq ranglar bo'rtib turuvchi, sovuq ranglar kam ko'zga tashlanuvchan bo'ladi.

Mos keluvchanligi bo'yicha uch guruh ranglar farqlanadi — yaqin (qarindosh), yaqin-kontrast va kontrast ranglar. Yaqin ranglar biz qabul qilgan ranglar doirasining bir choragida joylashadi va o'z tarkibida bitta bo'lsa ham umumiy (bosh) rangga ega bo'ladi. Masalan, sariq, sarg'ish-qizil, sariq-qizil. Yaqin ranglarning to'rt guruhi mavjud: sariq-qizil, qizil-ko'k, ko'k-yashil va yashil-sariq.

Yaqin-kontrast ranglar biz qabul qilgan rang aylanasining ikki qo'shni choraklarida joylashadi va bir umumiy (bosh) rangdan, ikki boshqa rang tarkiblari — bosh rangni o'zarlo to'ldiruvchi ranglardan iborat bo'ladi. Yaqin-kontrast ranglarning 4 guruhi mavjud: sariq-qizil va qizil-ko'k, qizil-ko'k va ko'k-yashil, ko'k-yashil va yashil-sariq, yashil-sariq va sariq-qizil. Kontrast ranglar biz qabul qilgan ranglar aylanasining qarama-qarshi choraklarida joylashadi: sariq-qizil va ko'k-yashil, sariq-yashil va ko'k-qizil ranglar.

Rangli kompozitsiya qabul qilinayotgan ranglar qo'shilishining chegaralangan soniga asoslangandagina tushunarli shaklga ega bo'ladi. Bu cheklanishlar, ayniqsa, kompozitsiyasi tekis rang yuzalaridan tuzilgan rasmlarda yaqqol ko'rindi. Biroq hatto katta rang ottenkalari soni bilan tavsiflanuvchi Velaskes yoki Sezann kompozitsiyalarida ham ranglar qo'shilishi nisbatan ko'p emas.

Intensiv rang har qanday miqdorda libosda katta ahamiyatga ega. To'q qizil, to'q ko'k, to'q sariq yoki boshqa kuchli va intensiv rang qabul qilinishiga kuchli ta'sir etadi. Masalan, to'q qizil libosda rang kompozitsianing boshqa barcha elementlari va vositalari ustida boshchilik qiladi. Mato o'ziga xos bo'lishi, ayniqsa, shakl qiziqarli, aksessuarlar ham chiroyli bo'lishi mumkin, biroq qizil rang ahamiyati bo'yicha libosning barcha tarkibiy qismlaridan ustun turadi.

Rassom, odatda, kompozitsiyada intensivlik kuchini ajratib ko'rsatish uchun qo'llaydi. Libos vazifasi, ko'rilmuvchi yoritilishi, mato fakturasi, uni kiyuvchi kishining yoshi va tipi — bularning hammasi libosning alohida ifodaliligiga erishilishi mumkin bo'lgan rangning tanlanishiga ta'sir etadi. Masalan, ish libosi dam olish libosi yoki sahna liboslari singari ochiq ranglarni talab qilmaydi. Tantanalar uchun mo'ljallangan libos rangga ancha talabchan. Ochiq rangdagi matolar imkonli boricha yumshoq bo'lishi

kerak, sun'iy yoritish bu samarani yana ham kuchaytiradi. Masalan, ochiq ko'k rang yumshoq jun, barxat yoki velvetda yaxshiroq ko'rinishga ega. Yumshoq ranglarda yoshlар uchun liboslar hal etilishi mumkin, faqat figura juda kichik, ayni paytda juda yirik bo'lmасligi kerak.

Oq tusning katta miqdori libosda muhim rol o'ynashi mumkin. To'q qizil, to'q ko'k, to'q yashil kabi ranglar odatda fon bo'lib, agar libos ansamblining deyarli hamma qismlari bir rangda bo'lса, uning rangli yechimida ma'lum ahamiyat kasb etishi mumkin. Bir rangdagi tuqli, libos, shlyapa va palto uni ahamiyatli qilishi mumkin. Pasaytirilgan tusning ko'p miqdorda qo'llanishi, boshqa ranglar ham sof ranglarga nisbatan ancha bosiq bo'lган holda, libosning rang yechimida yaxshi rol o'ynaydi.

Ko'pchilikka yarim tonlar yoqadi. Ular ton bo'yicha rangni oq qo'shish orqali ochartirish natijasida hosil qilinadi. Ayni paytda ulardan ba'zilari bo'yoqqa uni pasaytirish uchun biron-bir boshqa rangni qo'shish bilan hosil qilinadi. Zamonaviy bo'yovchilar o'zi och ranglarni olishga imkon beradi. Och qizil, moviy, yashil, sariq, to'q sariq, to'q qizil ranglar libos kompozitsiyalarida doimiy uchrab turadi.

### 3.5. LIBOSDA RANGLAR UYG'UNLIGI

Libos kompozitsiyasini tuzishda ranglar mosligi hal etuvchi ahamiyat kasb etadi. Uyg'un ranglar qo'shilishiga koloristik yaxlitlik, ranglar o'rtaсидаги aloqadorlik, ranglar muvozanati, birligi taassurotini uyg'otuvchilar kiradi. Ranglar muvozanati deganda, bir-biriga begona ko'rinxmaydigan va ulardan hech biri ikkinchisidan ustun bo'lмаган ranglar nisbati va sifatlari tushuniladi. Ranglarni uch usul bilan muvozanatga keltirish mumkin: asosiy ranglarning teng miqdorlari bilan, teng ochiqlik bilan, teng to'yinganlik bilan.

Ikki rangli va ko'p rangli uyg'unlik turlari. Ranglar aylanasi tuzilishi prinsipiga ko'rake libchiqishigayaqin-kontrastranglarning muvozanatlangan juftlari asosiy ranglarni birlashtiruvchi diametr larga parallel bo'lган vatarlar uchida yotgan ranglar bo'ladi. Yaqin ranglar ular orasidagi asosiy ranglardan birining teng miqdori bilan muvozanatlangan bo'lishi, ya'ni bir xil darajada sarg'ishroq, yashilroq, ko'kroq, qizilroq bo'lishi mumkin. Yaqin ranglarning uyg'unligiga asosiy yoki boshqa ranglar to'qligini susaytirish yoxud ular faolligini qorong'ulash tirish bilan kamaytirish orqaligina erishish mumkin. Yaxshi tanlangan yaqin ranglar rang kompozitsiyasini hal etish uchun katta imkoniyatlar beradi. Libos kompozitsiyasida yaqin ranglardan foydalanishda ulardan biri yoki har ikkalasi pasaytirilgan holda qo'llanadi. Ranglarning kerakli kuchi yaqin ranglarni shunday tanlash bilan amalga

oshiriladiki, ular juda ochiq bo'lmasin. Sariq va sariq-yashil, yashil va yashil-ko'k, ko'k va to'q qizil, to'q qizil va qizil, qizil va to'q sariq va hokazo — yaqin ranglar.

Ton kompozitsiyasida qo'llanuvchi ranglarning turli ochiqligi orqali kuchli ta'sirga erishiladi. Bunday kontrastga och yashil bluzkaning to'q yashil yubka bilan mos kelishi misol bo'la oladi. Mos kelishning bunday uslubi keng tarqalgan. U nafaqat libos alohida detallarining yaxshi mos kelishini, balki kompozitsiyaning yaxlitligini ta'minlab, butun ansambl mosligini kafolatlaydi.

Rang tonlari uyg'unligi (ochiqligi bo'yicha) ranglar taqqoslana olsagina muvaffaqiyatli bo'ladi: jigarrang — och jigarrang va quyoshda qorayganlik rangi — yaxshi mos keladi. Haqiqatan ham, bir libosda bir necha jigarrang tusi bittadan ko'ra yaxshiroq. Och moviy rang o'rtacha ko'k va to'q ko'k ranglar bilan, agar ular bir tonda bo'lsa, jozibali ko'rindi. Bir rang tonlarining uyg'unligi bir rangli kompozitsiyadan ko'ra yaxshiroq ko'rindi, bunda rang izlarining joylashuvi, ayniqsa, muhim. Yaqin ranglarning uyg'unlik mosligi faol emas, muloyim, osoyishta ranglar, ayniqsa, kam toqlikka ega bo'lib, ochiqligi bo'yicha yaqin bo'lsa, yaqin ranglarga nisbatan yaqin-kontrast ranglar uyg'unligi ancha faol, emotsiyal ko'rindi.

Uyg'un kontrast ranglar qabul qilgan ranglar aylanasi diametrlari oxirida joylashgan. Uyg'un kontrast ranglar mosligi, ayniqsa, faol, chunki ranglar o'zlarining qarama-qarshi sifatlari bilan ikki marta muvozanatlangan. Biroq hamma kontrast ranglar ham uyg'un emas. Masalan, sariq-qizg'ish va yashil-ko'kimtir ranglar — nouyg'un kontrast ranglar, chunki ular o'z qarama-qarshi sifatlari bilan muvozanatlanmagan.

Kontrast yoki yaqinlashtirilgan tonlarda libos yechimi ma'lum emotsiyal kayfiyat yaratadi. Kontrast tonlarda, odatda, eksterer uchun (sayr qilish, dam olish, sayohatlar uchun va hokazo) libos yaratiladi. Interer uchun libosni yaqinlashtirilgan rang tonlarida yaratish yaxshiroq.

Libos kompozitsiyasida rang samarasи bir necha ranglar qo'shilishi bilan kuchaytiriladi.

Uch rangli uyg'unlik hollarini qayd etamiz. Ikki uyg'un yaqin-kontrast ranglarga uchinchi — asosiy rang qo'shilishi mumkin. Masalan, sariq-qizil, ko'k-qizil va suyultrilgan qizil. Ikki uyg'un yaqin-kontrast ranglarga uchinchi va to'rtinchи — ular bilan muvozanatlangan yaqin-kontrast ranglar qo'shilishi mumkin. Ranglar juftli yaqin-kontrast va juftli qo'shimcha bo'lib qoladi. Bunday qo'shilishlar yuqori uyg'unlashgan va koloristik jihatdan boy bo'ladi. Ikki uyg'un yaqin ranglarga bir qo'shimcha rang qo'shilishi mumkin.

Aytib o'tish lozimki, badiiy asar mazmuni, uning vazifasi, kompozitsiyasi

va ritmik-plastik tuzilishiga qarab, shuningdek, yuzasi, ranglar dog'lari, ranglar ochiqligi va to'qligiga qarab rassom ranglar uyg'unligi normalarini buzishga haqli.

Libosning rangli kompozitsiyasi qiziqish uyg'otadi, libos kompozitsiyasini rangda ifodali tuzish ancha murakkab vazifa. Rassomning kompozitsiyani rangda muvaffaqiyatli hal etishi rangni his qilishiga bog'liq.

Qayd etilgan ranglar qo'shilishiga qo'shimcha ko'pgina monoxrom qo'shilishlar mavjud. Bir xil nomga ega, biroq turli ochiqlik va to'qlikka ega ranglar monoxrom deb ataladi. Ta'rifdan ma'lumki, monoxrom kompozitsiyalar yaratishda rang faqat ikki yo'nalishda o'zgaradi: to'qlik va ochiqlik, rang nomi esa o'zgarmay qoladi. Monoxrom yechimdag'i libosni libos estetikasi sohasida maxsus bilimga ega bo'limgan odamga variatsiyalash va o'zgartirish osonroq. Monoxrom kompozitsiyalarning mohirona yechimida ko'pranglilik illuziyasi yaratilishi mumkin, biroq bunday libos ansamblida predmetlarning rangda o'zaro mosligi asos qilib olingan, rang umumiyligi bilan oldindan shartlangan bo'ladi.

Kostyum kompozitsiyasini yaratishda kul rang, qora, oq, bej, oltin va kumush ranglar qatnashadi. Ular kontrast tonlarda olingan bo'lsa, kuchli ta'sir qilishi mumkin, masalan, fonga nisbatan. Qora va oq alohida yoki qo'shilishda ochiq qabul qilinadi, chunki ular fonga nisbatan kontrast. Ikkalasi ham — oq va qora — yaxshi ko'rindi. Qora va oq bilan birga kul rang ham samarali qabul qilinadi. Bunday ranglar kuchi ochiqliknинг turlichaligida. Tasavvur, xotira va ko'rib qabul qilish ranglar kompozitsiyasida katta ahamiyatga ega.

Agar libos yaratishda rang bilan samaraga erishish talab etilsa, ushbu libos turini eng yaxshi qayd etuvchi ranglar kompozitsiyasi qo'llanadi. Kompozitsiyada biron rang boshchilik qilmasa, ancha sokin va monoton ranglardan foydalanish mumkin.

### 3.6. LIBOS — XUSUSIYLIK — RANG

Libosning alohida elementlari, ranglari butun libosga muvofiq yaxshilab tanlanishi va bunda shaxsiy afzalliklar aniqlanishi kerak. Odamga mos keluvchi ranglarni tanlashdan oldin uning xususiy rangini aniqlash lozim. Odamning xususiy rangi sovuq yoki iliq bo'lishi mumkin. Malla sochlilarning ko'pi terisi oq bo'lib, sovuq gammaga yaqin, sochlari esa iliq tusli bo'ladi. Odatda ularga sovuq ton ranglari to'g'ri keladi, ular ko'z rangiga mos bo'lib, soch rangi bilan yoqimli kontrast hosil qiladi.

Qora sochlilar ko'pincha terisi iliq bo'lib, sochlari sovuq tonga ega. Ularga odatda iliq ranglar mos keladi. Rang bilan yuzaga keluvchi kayfiyat

turlicha bo'lishi mumkin. Shunday, sof ko'k rang osoyishtalik kayfiyatini; binafsha yoki to'q qizil rang yosh va qadr-qimmatini; yashil — yoshlikning toza, jonlantiruvchi rang hissini uyg'otadi. Iliq ranglar ichida qizil — eng kuchlisi, bu olov rangi bo'lib, kuchli taassurot qoldiradi. Sariq rang yorug'lik, yozgi iliqlik va xursandchilikni eslatadi.

O'z xususiyligiga xos kiyinmoqchi bo'lgan kishi tanasi, sochi, ko'zlar bilan uyg'unlashuvchi ranglarni tanlaydi. Rang tanlashning umumiyligi qoidalari mavjud. Biroq bu qoidalalar tavsiflar kabi qabul qilinib, har bir kishi rangni xususiy tanlashi kerak.

Oq yuzli odamga nisbatan qoramtilr yuzli odamga to'g'ri keluvchi rangni ko'proq topish mumkin. Qizilroq yoki sarg'ishroq yuzli odamlar yuzi xuddi shunday rangli to'q tusli libos kiyganda ancha ochiqroq va yoqimliroq ko'rindi. Deyarli har bir kishi o'ziga muvofiq rangning to'q tusli rangida libos kiyishi mumkin. To'liq ochiqlikdagi to'q sariq rang norma rangdagiga yuz terisi uchun juda kuchli. Qora va oq ranglar deyarli har qanday teri rangiga to'g'ri keladi.

Libos rangini aniqlashda soch rangi ham muhim. Ochiq rangli sochlilarga oq rang, qora sochlilarga ancha ochiq ranglar tavsiya etiladi. Ko'zlarning rangi libos rangini tanlashda unchalik ahamiyat kasb etmaydi. Rang tanlanishiga figuraning ta'siri bor. To'la qizlar hamda juda oriq qizlar yoki juda past bo'yililar rang tanlashga katta e'tibor berishi kerak. Iliq va ochiq ranglar figurani kattalashtirib ko'rsatadi, sovuq va to'q ranglar esa kichraytirib ko'rsatadi. Ochiq ranglar, ayniqsa, iliq ranglar, gavda o'lchamlarini ajratib ko'rsatadi. Libosda turli ranglar qo'shilishidan foydalanib, figuraning ayrim kamchiliklarini yashirish mumkin. Misol tariqasida quyida turli odamlarga tavsiya etiluvchi libos ranglari keltirilgan. Qora sochlilarga asosan iliq ranglar to'g'ri keladi. Ular ochiq ranglarni kiyishi mumkin, bunda ular iliq bo'lishi va unchalik oqimtir bo'lmasligi kerak. Qizilroq yuzli qora sochlilarga qora va to'q, shuningdek, iliq ranglar to'g'ri keladi. Ko'p qora sochlilarga to'q-qizil, to'q jigarrang va bug'doy ranglari to'g'ri keladi.

Sariq sochlilarga sovuq yostiq ranglari to'g'ri keladi. To'q tonlar ochiq rangli sochlarga yoqimli kontrast bo'lib, ular yanada ochiqroq ko'rindi. Ularga ko'k, yashil, binafsha, qora va oq ranglar to'g'ri keladi. Neytral tusdagi ranglar odatda ularga to'g'ri kelmaydi.

Sariq sochlilarga jigarrangning barcha tuslari va kombinatsiyalari to'g'ri keladi. Sariq sochli qizlarga libosda ochiq yashil rangning qo'llanishi xato. Sariq sochli qiz yuzi oqimtir va ko'zlar ko'k bo'lsa, iliq va sovuq ranglar qo'shilishi to'g'ri keladi. To'q kul rang ham soch rangini ajratib ko'rsatadi. Qora rang sariq sochlarni oltin rang qilib ko'rsatadi.

Jigarrang sochlar, o'rta tusli yuz terisi, kul rang yoki moviy ko'zlar —

ko'pchilik odamning xususiy bo'yanish ranglari gammadir. Bunday odamlarga iliq ranglar to'g'ri keladi, biroq sovuq ranglar afzalroq, chunki ular ko'z, teri rangi bilan uyg'unlashadi va soch rangiga kontrast. Bir vaqtida sovuq va iliq tuslardan foydalanish ranglar kombinatsiyasini kengaytirishga va libosning eng qiziqarli rang yechimini topishga imkon beradi. Ayniqsa, binafsha ranglar yaxshi — sof binafsha rang, qizil-binafsha rang yoki ko'k-binafsha.

O'rta jigarrang sochlar, o'rtacha qoramfir teri, qora yoki yong'oqrang ko'zlar birinchisi bilan o'xhash tashqi ko'rinish tashkil etadi. Ularga iliq ranglar to'g'ri keladi, sariq rang ham ularga mos. Neytral ranglardan kul rangdan ko'ra bug'doy rang ko'proq to'g'ri keladi, oq va qora ranglar odatda rangli qo'shimchalarni talab etadi.

Oqimtir teri, kul rang, yashil yoki moviy ko'zlar va qora sochlar boshqa tashqi ko'rinish turini tashkil etadi. Ularga ham iliq, ham sovuq ranglar to'g'ri keladi. Sovuq ranglar teri va ko'zlar rangi bilan yaxshiroq mos kelib, yetarlicha ochiq bo'lishi mumkin, yostiq ranglar ifodali bo'lmaydi. Sochlar qora yoki to'q jigarrang bo'lsa, qora rang, ayniqsa, ifodali bo'ladi. Bu turdag'i odamlarga rang tonlarining keskin kontrastlari yoki qora va oq ranglar kontrasti mos keladi. Soch rangiga neytral ranglar mos keladi.

Qoramfir teri, qora sochlar va moviy, kul rang yoki yashil ko'zlar — bu keyingi oraliq qo'shilishi, sochlar va ko'zlar oldingi turdagidek, faqat oqish teri o'rniga qoramfir bo'ladi. Bunday odamlarga iliq va sovuq ranglarning ochiq tuslari to'g'ri keladi. Ochiq qizil, ochiq ko'k va to'q yashil ranglar yaxshi mos keladi. Yostiq ranglari xira ko'rindi, ulardan foydalanishdan saqlanish kerak. Qora rang yuzga mos keladi, oq esa yuzning qoramtligini ajratib ko'rsatadi.

Jigarrang ko'zli, oq yuzli sariq sochlilar uchun iliq ranglar yarashadi. Oqimtir sariq va jigarranglar ifodali ko'rindi. Boshqa iliq ranglarning tanlanishi soch tusiga kuchliroq bog'liq bo'ladi.

Och sariq sochlar, moviy, kul rang yoki yashil ko'zlar va juda qoramfir teri — sariq sochlilarning ikkinchi o'rtacha turi. Teri rangi ochiq bo'lgan paytda sochlar va ko'zlar rangi — oqimtir. Bunday odamlarga sovuq ranglardan bosiq o'rtacha — yashil rang, iliqlardan — to'q, qizil va to'q qizil ranglar yarashadi. Agar teri sarg'ish bo'lmasa, binafsha rangning ba'zi tuslari to'g'ri keladi. Qora, oq va neytral ranglar rangli dog'lar bilan kuzatilishi kerak.

Odam chiroyini haqiqatan ham ajratib ko'rsatuvchi ranglar libosda ustun turishi, xilma-xillik uchun qo'llanuvchi ranglar bilan to'ldirilishi, yarashmaydigan ranglar umuman qo'llanmasligi kerak. Bu libos tanlovini nafaqat e'tiborli qiladi, balki odam unda o'zini dadilroq tutadi.

Monoxrom libos kompozitsiyalarining imkoniyatlari juda ko'p. 46—49-rasmlarda monoxrom yechimdag'i ayollar libosi komplektlari eskizlari keltirilgan.

Libos monoxrom kompozitsiyasi yagona badiiy yaxlitlik yaratishda keng imkoniyatlar ochadi. Masalan, kundalik libosni olaylik: bunda fakturalar qo'shilishi, ularning rangni qabul qilishga ta'siri katta ahamiyatga ega bo'ladi. Monoxrom yechimda bir vaqtida yostiq ranglari, pasaytirilgan va ochiq ranglar muvaffaqiyat bilan qo'llanilishi mumkin. Muvaffaqiyat, shuningdek, turli ochiqlikdagi rangli dog'lar o'lchamining nisbatiga ham bog'liqdir. Pasaytirilgan ranglar o'sha rangdagi yostiq tuslari bilan hatto katta miqdorda qo'llanganida ham yaxshi samara beradi.

Libosda rang asosiy rolni o'ynaydi. Libosni to'ldiruvchi poyabzal, sumka va boshqa predmetlar rangi ham juda muhim. Poyabzal rangi libos ranglar gammasini umumlashtiradi, to'ldiradi, yakunlaydi. Libosga nisbatan poyabzal rangi bir xillik yoki nyuans prinsipi asosida hal etiladi. Poyabzal rangi kontrast bo'lsa, libos plastikligini, yaxlitligini buzadi. Poyabzal rangi — murakkab, mazmundor, tarkibiy. Poyabzalni (qisman sumkalarni ham) sof ochiq ranglarda tasavvur etish qiyinroq (sariq, to'q sariq, moviy va hokazo), chunki bu rangdagi poyabzal bilan libosni to'ldirish juda qiyin, ba'zan esa umuman iloji yo'q.

### 3.7. MATERIALLARNING PLASTIK VA MANZARALI XUSUSIYATLARI

Libosni hajmli shakl deb qaralganda, uning qanday materialdan tikilganini bilish kerak (gazlamalar, trikotaj, mo'yna, charm, zamsha, noto'qima materiallar, qavat gazlamalar, pylonka, yog'och, plastmassa, shisha va boshqalar).

Bu materiallardan har birining o'z plastik xususiyatlari (mayinlik, osiluvchanlik, dag'allik va shu kabilar), dekorativligi (faktura, rang, naqsh, gul), fizik-mekanik xususiyatlari (zichlik, qayishqoqlik, cho'ziluvchanlik, kirishuvchanlik, titiluvchanlik va boshqalar) va gigiyenik xususiyatlari (havo o'tkazuvchanlik, nam o'tkazuvchanlik, chang o'tkazuvchanlik, issiq o'tkazuvchanlik va hokazo) bo'lib, shaklning xarakteri va konstruktiv yechim qanday hal etilishini shu xususiyatlar belgilab beradi.

Masalan, harir shifon gazlamalar mayin, osiluvchan, drapirovkabop bo'ladi, shuning uchun ulardan choklari minimal darajada kam, yumshoq ovalsimon shakl yaratilishi kerak. Bunda drapirovkalar, burmalar, mayin taxlamalar, klyosh bichiq hisobiga shakl hosil qiladi: yaltiroq, ko'zga tashlanib turadigan (krepsatin tipidagi) gazlamalarning drapirovkabop ekanligi yetarli darajada hajmli, gavda bo'ylab «sirpanib» osilib turadigan

libos tikish imkonini berib, gazlamaning jimirlashi uning yuqoridagi xususiyatlarini kuchaytirib ko'rsatadi: sintetika aralash jun gazlamalardan juda aniq, qat'yan geometrik shakldagi buyumlar tikiladi.

Materiallarning gigiyenik xususiyatlari ham libos shaklini hosil qilishga ta'sir etadi. Masalan, havo o'tkazishi va nam o'tkazishi yomon materiallardan bo'lган liboslarni, libos tagidagi havo ventilatsiya bo'lib turishi uchun, gavdaga yopishmaydigan ochiq shaklli qilib tikish tavsiya qilinadi.

Faktura — bu material yuzasining tuzilishini xarakterlovchi xususiyat. Faktura tabiiy (mo'yna, teri, yog'och, zamsha va boshqalar) va mexanik yo'l bilan olingan hosila bo'ladi. Materiallar silliq, g'adir-budur, yaltiroq, xira, tukli va hokazo fakturali bo'lishi mumkin. Hosila fakturaning xarakteri materialning qanday usulda (to'qimachilikda, to'r to'qishda va hokazo) olinganiga, yuzadagi bo'rtiq qismlarning baland-pastligini va iplarning merial zichligini belgilaydigan chalishish xarakteriga bog'liq. Sath birligiga to'g'ri keladigan faktura elementlarining katta-kichikligi va miqdoriga qarab materiallarning yuzasi ifodaliligi jihatidan har xil bo'ladi.

Har bir fakturada badiiy obraz belgilari bo'ladi. Faktura sovuqlik va iliqlik, yengillik va vazminlik va boshqa taassurotlar hosil qilishi mumkin.

Faktura tanlashda mavsum, libosning nimaga mo'ljallanganligi, odamning jinsi, yoshi va gavda tuzilishi, turi hisobga olinishi kerak. Kechqurungi bashang liboslarga jilolanib yaltillaydigan sidirg'a materiallar ishlataladi, lekin olachipor gazlamalar zinhon-bazinhor to'g'ri kelmaydi.

Gazlamalarning faktura xususiyatlari umuman shaklni va uning qismlarini idrok qilishda ko'z aldanishi paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, ko'rinishi vazmin, xira, tukli fakturalar shaklni kattalashtirib ko'rsatadi.

Shaklning, va umuman, gavdaning idrok etilishida naqsh gulning muhim ahamiyati bor. Shaklni naqsh guldan ajratib bo'lmaydi. Hamonki shaklda naqsh gul bor ekan, demak naqsh gul shaklning zarur komponenti, bir qismi bo'lib turadi. Naqsh gulning ham libos singari ko'p asrli tarixi, xalqlarga, millatlarga mansubligi bor.

Materiallarning ko'pdan-ko'p turdagining gullari quyidagi dekorativ motivlar ko'rinishida bo'ladi:

1. Abstrakt yoki geometrik motivlar.
2. Realistik yoki predmetli motivlar (o'simliklar, hayvonlar, predmetlar).

Aralash motivlardan iborat rasmlar juda ko'p ishlataladi.

Rasm mayda, o'rtacha, yirik bo'lishi mumkin.

Har xil libos turlarini modellashtirishda naqsh gul tanlashga jiddiy munosabatda bo'lish kerak va naqsh gul xarakterlari bilan xususiyatlarini

jins-yoshga, gavda tuzilishining tipiga, libos nimaga va qaysi mavsumga mo'ljallanganiga, tikish metodiga qarab hisobga olish lozim.

Bolalar libosidagi naqsh gul kompozitsiyasi, ayniqsa, aniq, ravshan, tushunish oson, ko'pincha qiziq-qiziq rasmlni bo'lishi kerak. Chunki bolalar libosidagi naqsh gulining faqat estetik emas, balki bilim orttirish vazifasi ham bor.

Katta yoshli kishilar mayda yoki o'rtacha gulli, bosiqroq bo'g'iq tusni ma'qul ko'rishadi.

Kundalik libosda mayda va o'rtacha gulli gazlama ishlatalidi, bordi-yu, gazlama yirik gulli bo'lsa, unda gullar sokin koloritli bo'lishi kerak. Bashang liboslarda va istirohat liboslarida rasmlar diapazoni juda keng bo'ladi.

Libosni bichayotganda juft detallarda, vitachkalarda, choklarda rasmlar mos kelishini, detallar chokida rapport saqlanishini nazorat qilib borish kerak.

Naqsh gulli materiallarda turli chiziqlar, bo'rtma choklar, drapirovkalar, mayda detallar kam seziladigan bo'lgani uchun, ular ifodali chiqmasligini yodda tutish kerak.

Ularni ko'rinarli qilish uchun sidirg'a gazlamadan mag'iz, tasma va hokazolar qo'yib, qo'shimcha bezash lozim bo'ladi.

Bezak kompozitsiyaning mustaqil elementi emas — bu qo'shimcha ziynat bo'lib, libosda u bo'lmasisligi ham mumkin.

Hozirgi son-sanoqsiz bezaklarni materiali va shakliga binoan quyidagi guruhlarga ajratsa bo'ladi:

1. Barcha turdag'i bo'rtma choklarni, taxlamalar, bo'rtma burmalar, drapirovkalar, plesse, gofre, bezak baxya qatorlarni tikish natijasida hosil bo'ladigan bezaklar.

2. Libosni o'z materialidan yoki bezak gazlamadan yasalgan detallar yordamida bezash (qo'yma burmalar, ikki tomonlama qo'yma burmalar, aylana burmalar, beykalar, mag'izlar, bo'rtma mag'izlar, bantlar, galstuklar, xlyastiklar, fatalar, pogonlar va hokazo).

3. Maxsus bezak materiallar (to'r, tasma, popuk, lentalar, gullar va boshqalar) yordamida bezash.

4. Furnitura (tugmalar, to'qimalar, dekorativ pistonlar, blokcha-pistonlar, «molniyalar» va boshqalar).

5. Kashta, qoplama bezak, emblemalar.

6. Boshqa materiallar (mo'yna, teri, trikotaj, zamsha, to'r, polotno va hokazolar) yordamida bezash.

7. Libos detallarini bosma gul solib bezash.

Bezash turini, uning joyini tanlash libosning turi va nimaga mo'ljallanganligiga, libos shakliga, materialning fakturasiga, jins-yosh

omiliga, odam gavdasining turiga, gavdaning shaxsiy xususiyatlariiga, xarakteriga bog'liq. Libos kompozitsiyasining, uyg'un bir butunlik sifatida, shaklning yaxlitligi, simmetrik, asimmetrik, statiklik va dinamiklik kabi qator xususiyatlari bor.

Shaklning yaxlitligi konstruktiv yechim bilan uning kompozitsion mujassamligi o'rtaсидagi aloqa mantiqini va uyg'unligini aks ettirgan bo'ladi.

Har qanday kompozitsiyani asosiy elementlar bilan ahamiyati kamroq va ikkinchi darajaliroq elementlarning bir-biriga bo'ysunganligiga asoslangan muayyan tizim deb qaralsa bo'ladi.

Kompozitsion markaz gavdaning istalgan qismida bo'lishi mumkin. Masalan, u yuzga yaqin joyda, belda, ko'krakda, bo'ksada, oyoq yaqinida, oldinda yoki orqada va hokazo yerda bo'ladi. Libosning istalgan qismi, masalan, bosh libos, ust libos, oyoq libos, sumka, biron bezak kompozitsion markaz bo'lishi mumkin.

Shakl elementlarining o'zaro tengsizligini belgilaydigan, kompozitsion markazning boshqa qismlaridan ustunligini ta'kidlab beradigan xususiyatlarning qonuniyatları asosida kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatishga erishiladi.

Miqdor qonuni. Bir turli bezakning katta-kichikligi, hajmi, massasi yoki miqdori kattaroq bo'lgan boshqa qismlardan ustunroq kelib turadi.

Markazda bo'lish qonuni. Bo'rttirib ko'rsatiladigan qismning nisbatan markaziy joyda bo'lishi, boshqa hamma jihatlari teng bo'lgan holda, shu qismni asosiy kompozitsion markaz qilib ko'rsatadi.

Sifat qonuni. Xususiyati yoki bir guruh xususiyatlari jihatidan ko'proq bo'lgan qism ustun bo'lib turadi.

Ma'no omili qonuni. Bir butunning ma'nosini bor bezakli qismi (emblema, gullar va boshqalar) rasmiy xarakterdagи bezakli qismlardan ustun turadi.

Simmetrik va asimmetrik. Simmetriya — kompozitsyaning eng yorqin va ko'zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri.

Libos kompozitsiyasida simmetriya masalalari muhim rol o'ynaydi. Bu ikki jihatda: materialdagи rasm kompozitsiyasida va libosning o'zini shakllantirishda o'z aksini topadi. Liboslarda libosning alohida qismlari, uning detallari, rangi, bezagi, furniturasi va shu kabilar simmetrik joylashtirilishi mumkin.

Asimmetrik kompozitsiya ham simmetrik kompozitsiya singari funksional vazifani hal etishning obyektiv natijasi bo'ladi.

Asimetriyaning kundalik libos kompozitsiyasida yorqin ko'zga tashlanmasligi undan shakl xususiyatlarining ozgina qismida foydalanishni bildiradi.

Statiklik va dinamiklik. Kompozitsyaning ifodaliligi, uning tushunishga

qulayligi, shaklning bo'ysungan qismlardan bosh kompozitsion markaz tomon harakati libosning qaysi qismiga qaralsa ham ko'rinishi uchun, harakat, dinamika rassomning bo'rttirib qo'ygan qismini ko'rsatadigan bo'lishi kerak.

Statiklik — shakl turg'unligining, tinchlik holatining bo'rttirib ifoda etilganidir.

Gavdani ko'rib idrok etish libosdagagi dinamikaga qanday ta'sir qilganiga bog'liq: agar harakat yuqoriga tomon yo'nalgan bo'lsa, gavda uzunroqday, pastga tomon yo'nalgan bo'lsa, kaltaroqday ko'rindi.

### 3.8. LIBOS KOMPOZITSIYASIDA FAKTURA VA DEKOR

Libosda turli fakturadagi matolar qo'llanganda bir rangning qabul qilinishi kuchli o'zgaradi. Faktura — mato yuzasi tuzilishini tavsiflovchi xususiyat. Libos, poyabzal, aksessuarlar uchun silliq, g'adir-budur, yaltiroq, tukli va boshqa mato fakturalari farqlanadi. Mato fakturasi yuza zichligi va mikrotuzilishlar kattaligiga bog'liq bo'ladi. Faktura elementlari kattaligi turlicha bo'lishi mumkin: ba'zilari ko'z bilan ilg'ab bo'lmas darajada kichik, boshqalari shaklning mustaqil elementlari kabi qabul qilinadi va ularning miqdori anchagina kam bo'lib, ular aniq farqlanadi. Ikkinci holda yuza fakturasi elementlari yuza relyefi elementlariga aylanadi.

Fakturaning qabul qilinishi ko'rileyotgan yuzagacha masofaga bog'liq bo'ladi. Bu masofa oshganda mayda detallar shaklning alohida elementlari sifatida qabul qilinmay, yuza fakturasi elementlari kabi taassurot qoldiradi.

Libosga libos, poyabzal, aksessuarlar loyihalashda yuza fakturasini tanlash mato tanlash kabi muhim masala. Yuzasiga ishlov berilishi tufayli bir matoning o'zi turlicha ko'rinishi mumkin. Yuza faoliyat xususiyati sifatida faktura shaklning proporsional munosabatlarni qabul qilishiga ham ta'sir etadi.

Fakturaning qabul qilinishi yuza yoritilishi xarakteriga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, yuzaning g'adir-budurligi yon tomondan kuchli yoritilishida yaxshi ko'rindi. Yoritilish burchagi oshirilganda bunday yuza nisbatan silliq ko'rindi. Libosda u yoki bu yuza fakturasini qo'llashda loyihachi qabul qilinuvchi aniq sharoitlarni — kuzatuvchidan uzoqligi, yoritilish xarakteri va boshqalarni hisobga olishi kerak. Tukli mato yuzasida rang ancha yumshaydi va yaltiroq yuzalarda kuchayadi.

Materialning har bir fakturasi o'zida ma'lum timsol belgilari ega bo'ladi. Libos, poyabzal, aksessuarlarni ishlab chiqishda fakturasi turlicha matolardan foydalanib, shakl bitta yoki shakllar yaqin bo'lsa ham katta

badiiy ifodalilik va turli-tumanlikka erishish mumkin. Loyihalanuvchi model uchun mato tanlashda rassom uning massasini hisobga olishi kerak. Og'ir, tukli, xira matolar shakl ko'rinishini kattalashtirib ko'rsatadi. Fakturalar xususiyatlariga yetarlicha e'tibor bermaslik bir libosda turli matolarning muvaffaqiyatsiz qo'shiluviga olib keladi, bu kompozitsiyaning tarqoqligi va shakl uyg'unsizligiga sabab bo'ladi.

Bir narsada mato fakturalarining sifat va miqdoriy mosligini ajratish maqsadga muvofiq. Sifat mosligi ostida «nima nima bilan qo'shilishini» timsoliy tushunish lozim (masalan, charm va mo'yna, tekstil va charm). Miqdoriy moslik to'g'risida gap ketganda «nima qanchaligi» tushuniladi, ya'ni yaxlit, ifodali kompozitsiyalar va shakllarga erishish uchun turli fakturalar matolarini qanday nisbat va proporsiyalarda olish kerakligi tushuniladi. Bir narsada fakturasi bo'yicha turliche materiallarning qo'shilishi turli maqsadlarni ko'zlaydi: badiiy g'oya va yechimlar turli-tumanligi, texnologik ishlov berish zarurati, mahsulotlar ekspluatatsion sifatlarini oshirish, qimmatbaho matolarni tejash va hokazo.

Faktura xarakteri mato turiga bog'liq (masalan, poyabzal va charm-attor mahsulotlari uchun — tabiiy charm, sun'iy charm, zamsha, mo'yna, turli to'qimachilik matolari, rezina va boshqalar). Bir matoning o'zi (masalan, tabiiy charm) unga ishlov berish usuliga qarab turli fakturaga ega bo'lishi mumkin — silliq, yaltiroq, xira va boshqalar. Tabiiy mato fakturasi, masalan, charm, birinchi navbatda matoning tabiiy afzalliklarini ajratib ko'rsatishi kerak. Sun'iy matolarga bosmalash, siqish va hokazo usullar bilan turli rangli faktura yechimlari beriladi. Libos, poyabzal va charm-attor mahsulotlari assortimentini yangilash, boyitish yo'llaridan biri yangi matolar, fakturalar va rasmlarni doimo izlashdir.

Shaklni qabul qilishda mato yuzasidagi rasm (ornament) muhim ahamiyatga ega. Rasmning kattaligi fon va rasmning yoritilish nisbatlari, yuzaning rasm bilan to'ldirilish darajasi, joylashuv xarakteriga ko'ra bir shaklning o'zi turliche qabul qilinadi.

Faktura va rasm badiiy ifodalilikning faol vositalaridir. Faktura va rasm samarasi eng avvalo, matoning tabiiy sifatlarini namoyon etish, uning estetik o'ziga xosligini ochish uchun qo'llanadi. Mato fakturasi va rasmni juda ifodali bo'lsa, ularning tomoshabinga ta'sir kuchi mahsulot shakli ta'siridan ko'ra kuchliroq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ortiqcha ta'sirchanlik, rasm yoki fakturaning ko'zga tashlanuvchanligi yoqimsiz bo'lishi mumkin. Mato fakturasi mahsulot vazifikasi, o'lchamlari va xizmat muhitini hisobga olgan holda tanlanishi lozim.

Kompozitsiya elementi va vositasi sifatida zamonaviy libosda faktura muhim rol o'ynaydi, chunki matoning o'ng yuzasi tarixiy liboslardagidek

dekor bilan bezatilmaydi (kashta, applikatsiya va hokazo). Shu bilan birga, dekor — zamonaviy poyabzal, libos, charm-attor yuzasida qo'llanadi. Poyabzal, charm-attorlik mahsulotlari yuzasida dekor — bu perforatsiya, inkrustatsiya, applikatsiya, kashta, tikish. Ustga qo'yiluvchi dekor — bu bog'ichlar, tugmalar, xolnitentlar va hokazo, ya'ni barcha mumkin bo'lgan furnitura, shuningdek, yog'och, metall, plastmassa bezaklar. Dekor narsaga ancha yoqimli ko'rinish baxsh etish bilan chegaralanmaydi: u kayfiyat yaratadi, narsa vazifasini aniqlashga yordam beradi. Dekorativ motiv narsaning obrazli tavsifini yakunlaydi, xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi, konstruksiyasini namoyon etadi.

### 3.9. DEKOR TARIXI

Ixchamligi bilan ajralib turuvchi zamonaviy libosga bezak berish, shakllar va kompozitsion-konstruktiv yechimlar xos. Pardozlashning keng tarqalgan turi kashta tikishdir. Kashtani libosning har qanday predmeti — ko'ylak, bluzka, to'qilgan qalpoq, sviter, qo'lqop, ustki libos, poyabzal, jinsilarda uchratish mumkin. O'zini, o'z libosini bezatish istagi qadim zamonlardan kelgan.

Bezakning dastlabki turlaridan biri tananing alohida joylarini ranglar bilan bo'yash bo'lgan. Aytishlaricha, bu o'z muhitida ajralib turish, o'ziga e'tiborni qaratish uchun qilingan. Bezak berish hayotda o'rin uchun kurashning muhim vositasi bo'lgan.

Bo'yoqlarning mustahkam emasligi chandiqlash, tatuirovkalarga murojaat etishga majbur qilgan.

Chandiqlash, farazlarga ko'ra, jangchilar yarasiga taqlid sifatida paydo bo'lib, ular mardlik, kuch, chidamlilik, o'zini himoyalashga tayyorlikni ifodalagan. Tatuirovka mashhur avlod yoki qabilaga mansublikni tamg'alashni ko'zda tutgan, yozuvning boshlanishi bo'lgan, badanni bezashga bo'lgan katta intilishni isbotlagan.

Ibtidoi odam o'z sochlarini e'tiborsiz qoldirmagan, ularni butunlay qirib tashlagan yoki juda ham fantastik turmaklab qo'yan. O'z tashqi ko'rinishi bilan boshqa xalqlarni lol qoldirishga intilish quloqlari, burni, tishlari, boshi va hokazolarni badbashara holga keltirishgacha yetib borgan. Vaqt o'tishi bilan osma bezaklar paydo bo'lgan. Ularni osish uchun qulay joylar bo'yin, bel bo'lib, bu harakatlarga to'sqinlik qilmagan. Liboslar turli-tumanligiga har xil materiallardan foydalanish orqali erishilgan: charm, mo'ynalar, po'stloq, barglar va hokazo. Qadimda rimliklar, vavilonliklar, eronliklar charmga yaxshi ishlov berish bilan ajralib turishgan. Po'stga ishlov berishni odamlar ip tayyorlash yoki po'stloqdan mato tayyorlashdan oldin o'rganishgan. Po'stdan libos sifatida foydalanib, uning mo'ynasini ich tomonga qilib

kiyishgan, chunki badan haroratini saqlab qolish muhim bo'lgan. Po'stni ishlash va charmni bo'yashdan tashqari, ibtidoiy odamlar charmning turli bo'laklaridan libos taxlashni o'rganishgan. Charmda jangovar va ov sahnalarini aks ettiruvchi suratlar chizishgan.

Po'stloqqa charm singari ishlov berishgan. Uni g'ijimlashgan, tortishgan, yelimli suv bilan olishgan. Yaltiroq lok bilan qoplangan, tapudan tayyorlangan libos ancha chiroyi bo'lgan. Ba'zi qabilalar o'zlarining tapudan tayyorlangan liboslarini rangli rasmlar bilan bezashgan. Barglar, o't o'ramlari va hokazo liboslar tropik joyda yashovchilar uchun belbog'dan, old bog'ich, yubka, yelkaga tashlanuvchidan iborat bo'lgan. Palma o'simliklari, banan, aloe barglari tolalari ba'zi joylar aholisi uchun mato sifatida xizmat qilgan.

Insoniyat madaniyati taraqqiyotida to'qish va yigirish muhim rol o'ynagan. To'qish uchun o'simlik va hayvonot dunyosi mahsulotlari material sifatida xizmat qilgan — zig'ir, kanop, paxta, jun, ipak va hokazo. Qadim zamonlardayoq 2 m gacha kenglikdagi mato tayyorlay olishgan, nafaqat bir rangda, balki suratli matolar to'qishgan.

Odam qadimdan matoni ranglay olgan, bu haqda qazilmalar guvohlik beradi. Qadimdan Yevropada jun matolar tabiiy rangda bo'lgan (jun ranglari — oq, qora), Sharqda esa mato bo'yalgan. Qizil temir, qora bo'yoq, sariq ranglar ma'lum bo'lgan. Ip yoki tayyor mato bo'yalgan. Hindistonda qadimgi bo'yoqchilar matoga rasmni suyuq mum bilan kiritishgan, so'ng matoni bo'yovchi suyuqlikka botirishgan. Mum bilan qoplangan joylar bo'yalmay qolgan. O'ziga xos, o'raluvchi rasmlar mato joylarini tugunlab tugish, so'ng esa matoni bo'yoqqa botirish bilan hosil qilingan. Libos taraqqiyoti va rivojlanishi bilan turli bezak usullari paydo bo'lgan — applikatsiya, bezakli to'qish, inkrustatsiya, perforatsiya, naboyka, siqish, metall bilan ishlov berish.

Libosni bezatishning qadimiy va keng tarqalgan usullaridan biri kashta tikish bo'lib, unda odamning atrof-muhitga munosabati ifodalangan. Uning paydo bo'lishi ibtidoiy davr insoniyat madaniyatiga borib taqaladi. Kashtachilikda yuksab mohirlikka Qadimgi Sharq mamlakatlarida erishilgan. Ayniqsa, Vaviloniya boy kashtalari bilan mashhur bo'lgan. Vavilon, Misr va Frigiyaga kashtalarini savdogarlar Gretsiya va Rimga olib borishgan. Rimliklar va greklarning o'zlari ham badiiy kashtachilik texnikasi bilan tanish bo'lgan. Grek afsonalari kashtachilik san'atining paydo bo'lishini xudo Afina Pallada nomi bilan bog'lashadi. Qadim grek afsonalarida hikoya qilinishicha, Afina Pallada odamlarni turli san'at va hunarlarga o'rgatgan. Kashtalar boylar uchun bajarilgan, juda yuqori baholangan.

Faraz qilishlaricha, rus xalqi o'rtasida kashtachilik XIII—XIV asrlarda

tarqala boshlagan. U ham libos bezagi uchun ishlatalgan. Kashta mato, charmga tikilgan. Ipak, jun, oltin, kumush, qimmatbaho toshlar bilan kashta tikilgan. Kashtada marvarid bilan ishslash keng qo'llangan.

### 3.9.1. MILLIY ZARDO'ZLIK ORNAMENT NAQSHLARI

Tikuv tarz-tariqalarining bir qancha uslubiy xususiyatlari tahliliga hamda ularning tayyorlanish jarayoniga asoslanib, XIX asr va XX asr boshlaridagi Buxoro zardo'zlik yodgorliklarini to'rt guruhga ajratish mumkin.

1. XIX asrning 30—60-yillari;
2. XIX asrning 70—80-yillari;
3. XIX asrning 90-yillari, XX asrning birinchi o'n yilligi;
4. XX asrning ikkinchi o'n yilligi.

Birinchi davrga oid zardo'zlik yodgorliklari, eng avvalo, odmiligi va mukammal uslubga ega ekanligi bilan diqqatni tortadi. Ularda aks ettirilgan islimiyl kompozitsiyalar qanchalik oddiy bo'lsa, kashta gullari ham shunchalik ravon va jozibadordir. Kashtalar u qadar yirik bo'lmay, aksariyat hollarda butun maydonni bir tekisda to'ldirib turadi. Tagzaminning ma'lum qismiga kashtalar tikilib, buyumga ortiqcha zargarlik bezaklari va taqinchoqlar bilan zeb berilmagan. Zardo'zlikda ko'pincha yigirilgan zar va kumush iplar, buyumning ayrim qismlari uchun esa eshilgan zar (kumush) ip qo'llanilgan. Bu davrga oid buyumlarning chok kashtalari uchun juda oddiy bo'lgan naqshlar tanlangan (mavji yak ro'ya va mavji du ro'ya, bulbulko'z, mavji chor dar chor).

Xomashyo taqchilligi tufayli usta zardo'z bu kashtalarni o'ta mahorat va nozik did bilan ado etgan. Gul bosishdagi rang turlari g'oyat cheklangan sharoitda tikishlarning turli-tuman kompozitsiyalaridan barakali foydalanganlar, nur va soyalar o'ynoqiligini kuchaytirish maqsadida qator texnik usullarni qo'llagan holda, zardo'zlar buyumlarga chuqur badiiy ma'nodorlik bag'ishlashga muvaffaq bo'lganlar. Material sifatida sidirg'a rang silliq barqut, ayrim hollarda atlasni tanlagan zardo'zlar o'zlarining yuksak badiiy sezgirlikka ega ekanliklarini namoyon qilganlar. Olovrang qizildan tortib nopalmon qizilgacha bo'lgan o'nlab tusda tovlanuvchi bunday barqut eng maqbul material deb hisoblangan. Goh-gohida nopalmon barqut bilan moviy atlas ham ishlatalgan. Turli ko'rinishlarda tasvirlanuvchi butador va darham yo'lidagi gullar, darhami daraxt yo'lidagi yengil erkin kompozitsiyalar yoxud asosan 30—40-yillarda keng rasm bo'lgan guli chinni — xrizontema kashtalarini zardo'zlar o'z ishlarida bajonidil qo'llaganlar. Bu davr zardo'zligida jiyaklar so'nggi davrga oid buyumlardagidek hali uncha taraqqiy topmagan edi. Jiyaklar nisbatan ensiz, oddiy bo'lsa-da, kashtalari hamisha nafis tikilgan: u islimiyl — nozik

o'simlik novdasi, goho islimi du raftora — ikki yo'ldan iborat o'simlik novdasi ko'rinishida ifodalangan. Jiyak qirg'oqlari ensiz silliq yo'l — oba yoki bo'rttirib tikilgan oba lo'la tikishi bilan aylantirib chiqilgan. Bunday jiyakning ikki qirg'og'i bo'ylab kungura nusxa yo'l o'tkazilgan.

Dastlabki davr uslub xususiyatlarni deyarli butunlay saqlab qolgan bo'lsa-da, 70—80-yillar zardo'zligi o'ziga xos xususiyatlarga ham egaki, bu hol uni alohida guruhga ajratishni taqozo etadi. Butador (uning turlaridan biri butadoriy tavqnok) xilidagi kompozitsiyaga ega bo'lish, sidirg'a rang mayin barqutlardan foydalanish, odmi tikish usullarini qo'llash, islimiyl xildagi jiyaklarning mavjudligi kabi 70-yillar kashtalariga xos bo'lgan uslub xususiyatlardan tashqari, buyumning bejirimligiga, tantanavorligiga va bo'yoqlarning yorqinligiga erishish uchun bo'lgan intilishni ko'ramiz. Ranglar yorqinligiga, birinchidan, zardo'zlikda rangdor shoyidan ko'proq foydalanish va unga barqutni «yedirish», ikkinchidan, ranglarni ochadigan bir qancha yangi tikuv yo'sinlarini qo'llash orqali erishilgan. Kashtaning ayrim qismlari uchun qo'llanadigan va unga g'oyat yarashib turadigan, bundan tashqari, gullarning girdini aylantirib chiqishda ishlatiladigan zar ip yoki zar almashtirilib eshilgan ipak ipdan foydalanish diqqatga sazovor. Kashtalarga ma'lum darajada mayinlik bag'ishlab, rangini ochib yuboradigan rangli ipak eshishlar ham (pushti, to'q qizil, moviy, yashil, nopalmon) bu davrga xos bo'lgan asosiy belgilardandir. Zardo'zi birishimdo'ziy deb nomlangan murakkab texnikali zardo'zlikning o'ziga xos turi ham aynan shu davrga taalluqlidir.

Dastlabki davr kashtalarida gul butoqlari ancha real ifodalansa, bu yerda turli ko'rinishdagi xurmo yaproqlari, salb ko'rinishidagi girih va hokazo vositalar orqali talqin etiladi. Kashtalar hajm jihatidan «o'sa» boshlaydi. Dastlabki davrga xos bo'lgan yaproq nusxa kashta halqasi bilan qurshalgan maydagul girihsarlari naqshli yirik halqalar siqib chiqaradi (diametri 30—40 sm).

80-yillar oxirida esa ancha murakkab yangi kashtalar yuzaga keldi. Asosdagagi oraliq bo'sh joylarni ikkinchi darajali elementlar bilan to'ldirishga intilish paydo bo'ldi. Kashta gullari ayrim shoxobchalarga ajralib ketdi. Dastlabki davrga oid bo'lgan islimiyl kashtali ensiz, odmi jiyaklar hiyla murakkablashdi. Uchinchi davr zardo'zlik yodgorliklari uchun taalluqli bo'lgan keng «ochiq» jiyak turlari bunyodga keldi.

Uchinchi davr (1890—1910-yillar) zardo'zligi tikishning haddan ortiq mo'lligi, detallarining ko'pligi, ko'pincha ishning o'ta zargarona nozikligi bilan ajralib turadi. Turli ko'rinishdagi bo'rting girihlar, yulduzchalar va shunga o'xshash boshqa bezaklar buyumga o'zgacha zeb berib turgan, ular a'lo sifatli zar sim bilan tikilib, rangli shoyi iplarda g'oyat hafsla bilan

jilo berilgan. Butun kashta yuzasi bo'ylab sochilgan bunday bezaklar qimmatbaho zargarlik taqinchoqlarini esga soladi. Asosning ochiq joylari qo'shimcha elementlar bilan zich qilib to'ldirilganidan gazmolning rangi g'ira-shira ko'rinish turgan. Jiyak kashta hoshiyasini to'ldirish barobarida uning salmog'ini ham oshirib yuboradi. Milliy naqshlar islimi elementlarining uslublashuvi va geometrik shakllar kasb etishi tobora takomillashib boravergan.

Butador xilidagi butoqlar kashtasi ancha ilgari mumkin qadar real narsa deb talqin qilinar edi, 1890—1910-yillar buyumlarida esa ular mayda islimi uslublashtirilgan naqshlarga to'la, yirik-yirik, cho'zinchoq doiralar, kvadratlar, halqlar va hokazo ko'rinish kasb etgan. Milliy naqshlar ichida davqur kompozitsiyasi alohida o'r'in tutadi. Bu davr zardo'zligida paydo bo'lgan rango-rang gulli barqutlardan aynan shu turdag'i liboslar tikishda foydalanilgan. Unda gazmolning ancha-muncha qismi kashta gullardan xoli qilinib, a'lo barqut o'zining qiymatini yo'qotmagan. Ayrim 25—27 sm enlikdagi «ochiq» maydonlar ham xuddi shu milliy naqshlardan andaza olib tikilgan.

O'rta Osiyoning mohir ustalari qo'lida barq urib gullagan Buxoro zardo'zlik san'ati o'zining badiiy qiymati bilan madaniy hayotda muhim o'r'in tutadi. Necha asrlar davomida usta zardo'zlar tikishning eng ajoyib yo'llarini topdilar va uni takomillashtirdilar.

Ranglardagi nazokat chuqur his etilgan holda aniq ochiq rangli shoyilar zardo'zlikka tatbiq etila boshladи. Milliy naqshlarning ayrim elementlari va kompozitsion tuzilishlari beqiyos xayolot mahsuli ekanligi aslo sir emas. An'anaviy talqinlarning keng miqyosda qo'llanilishi va an'anaviy kompozitsion sxemalarning mo'lligiga qaramay, bunda qotib qolgan andaza yoki shablondan asar ham ko'rmaymiz. Bular hammasi ustalarning O'zbekiston xalqlari madaniy merosi xazinasiga bebahо hissa bo'lib qo'shiladigan chinakam san'at durdonalari yaratishiga imkon beruvchi qizg'in ijodiy mehnatidan darak berib turibdi.

### 3.9.2. ZARDO'ZLIK NAQSHLARI VA ULARNING TUZILISHLARI

Zardo'zlik san'atida qo'llaniladigan naqshlarning mutlaq ko'pchiligi islimi bo'lib, geometrik va shunga o'xshagan naqshlar undan keyingi o'rinda turadi. Islimi naqshlar turli-tuman dastagullar, yaproqlar, butoqlar, daraxtlar, shoxlar, gulli guldonlardan iboratdir. Meva shakllaridan tuzilgan naqshlarda biz marvarid, turunj, anor, olcha, uzum (3.2-rasm)larni ko'ramiz. Odam va hayvonot tasvirini inqilobdan oldingi Buxoro zardo'zligida sira uchratmaymiz. Bunday naqshlar faqat inqilobdan so'nggi davrlarda, u ham

bo'lsa, ayollarning uy ichida kiyadigan buyumlarida, xususan, do'ppilarda paydo bo'ldi. Masalan, bunday do'ppilarning tepe qismida tovus, ba'zilarining girdida qator qilib o'rdaknamo qushlar tasviri tushirilgan. Bunday buyumlar faqat maxsus buyurtma asosidagina tikilib, bozorda sotuvga chiqarilmaganligini zardo'zlarning o'zları qayd etadilar.

Buxoro zardo'zligida o'ziga xos va puxta ishlangan atamalar bo'lib, ular zardo'zlik sharoitining ayrim bosqichlarini anglatishdan tashqari, bu san'atning uzoq davrlik taraqqiyot jarayonidan ham darak berib turadi. Gullar turidagi naqshlar uchun gul atamasi, barglar turidagi naqshlar uchun barg atamasi nom bo'lib qolgan. Bir qancha naqshlar guruhi uchun umumlashtiruvchi bo'lib xizmat qiladigan bunday atamalardan tashqari, gul turidagilarga alohida, barg turidagilarga alohida mansub bo'lgan, aynan shularning o'zi uchun xos hisoblangan yana bir qancha nomlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, guli chorborg — to'rt yaproqli gul, guli shishbarg — olti yaproqli gul, guli hashtbarg — sakkiz yaproqli gul, lolagul va hokazolar. Yaproq'i sakkiztadan ortiq bo'lgan gullarni guli sadbarg — yuz yaproqli gul (V-2) yoki guli kashg'ariy — qarqargul deb atalgan. Keng hajmdagi gullar guli kosagul yoki guli g'al'agi (V-4) degan nomlar bilan yuritilgan.

Barg turidagi naqshlar quyidagilarga bo'lingan: dona-dona yaproqlar — yakkabarg, juft-juft yaproq — dubarg, uchtalik yaproqlar — seborg, majnuntol yaprog'i — bargi majnunbed (VII-1,6,9) va hokazolar.

Aksariyat ornamental gul turlari uzoq davom etgan rivojlanish davrida shu qadar ko'p uslublarga va geometrik ko'rinishlarga ega bo'lganki, hatto ularning dastlabki islimiyl shakllarini ilg'ab olish mushkul. Zamonaviy ustalar ularni xohlagan maqomda talqin qila boshlaganlar. Masalan, to'rt yaproqli gul naqshi xuddi ana shunday o'zgarishni boshidan kechirib, endilikda u kungurador peshtoqni eslatuvchi chor madohil (to'rt darvoza) deb atala boshlandi (3.4-rasm). Agar bitta yaproqli gul naqshi ikkinchisiga ustma-ust qo'ndirilgan bo'lsa, uni chor madohili durun ba berun deyilgan (madohil arabcha kirish degani). Bunday gullar ko'pincha islimiyl naqshlar bilan tikilib, eng uchida har ikki tomonga qarab turgan ikki dona yaproq tasviri bo'lgan. Odatdagidek, bu o'rinda ham islimiyl naqsh o'zi uchun mutlaqo yet nom bilan atalgan. Zardo'zlikda keng rasm bo'lgan, chekkalari xiyol yuqoriga qayrilgan nozik yaproq naqshi bargi shullukiy-zulukbarg yoki qisqacha shullukiy deb ataladi-yu, baribir u yaproq shaklini o'zida saqlab qolaveradi. Islimiyl naqshlar o'z navbatida boshqa tur naqshlarga ham ta'sir qilgan deb taxmin qilish mumkin. Masalan, yaproqlari nur yo'naliishida joylashgan ko'p bargli gul naqshidan nishon deb ataluvchi tamg'a belgisi bilan qo'shib yuboriladi. Bu atama XIX asrning so'nggi o'ttiz yilligida yuzaga

kelgan bo'lishi mumkin.

Kelib chiqishi turlicha bo'lган gul turlaridagi bunday o'zaro bog'liqlik islimiyl naqsh va ularning atamalaridagi o'ziga xos xususiyatlarning yo'qolib ketishiga sababchi bo'lган. O'rta Osiyo chorvador qabilalari milliy naqshlarida keng tarqalgan qo'chqor shohi tagalak, aftidan, bir qancha o'troq-dehqon xalqlar san'atidagi islimiyl naqshlariga kuchli ta'sir qilgan. Natijada novdalaridan biri yangi nom bilan o'ziga xos uslublashuvga ham ega bo'lган, ba'zi hollarda u haqiqatan ham qo'chqor shohining shakliy tasvirini eslatadi. Zardo'zlikda tagalak usulidan kashtalar orasidagi bo'sh qolgan asosni to'ldirishda foydalaniadi. U o'rama ko'rinishida, ba'zan bir juft shoxning bir-biriga o'ralib turganiga o'xshagan bo'lса, boshqa bir joyda u (ko'pincha katta-katta joylarni to'ldirganda) xuddi uzum zangidagi naychani eslatadi.

Bunga misol tariqasida ancha aniq tikilgan islimiyl naqshli XVIII asr etiklarini keltirish mumkin. Tagalak yo'lidagi naqshlarni ham shunda yaqqol ko'ramiz. Gullarning qirg'oqlarini aylantirib tikilgan ipda zardo'z birato'la asosni ham tagalak nusxa kashta bilan to'ldirib chiqqan. Chinnigul va qashqargul singari kashtalar nomi qanday kelib chiqqanligi haqida aniq mulohazalar mavjud. Bunga, aftidan, Xitoy chinnisidagi rasmlar asos bo'lган. Xitoy chinnilar O'rta Osiyoga keltirilar va g'oyat qadrlanar edi. Hatto, XIX—XX asrlarda Buxoroning shahar boylari uyida ular keng rasm bo'lган edi. Kalak (ayollar poyabzalining tovoniga taqiladigan nag'al) guli ham Xitoy chinnilaridagi naqshlardan olingen deb taxmin qilinadi.

XIX asrning so'nggi 30-yilida zardo'zlik gullarining nusxasi O'rta Osiyoga ko'plab olib kelingan rus zavod gazlamalaridan olingen. Sharq xalqlariga mo'ljallab to'qilgan gazlamalar o'zlarining chirolyi ko'rinishi, bo'yoqlarining yorqinligi va puxtaligi bilan ajralib turgan. Ular tezda xaridorgir bo'lib ketgan va Afg'oniston orqali keltiriladigan hind gazlamalari bilan bemalol bahs boylashar edi. Gazlamalardagi yirik-yirik gullar zardo'zlikka ham ko'chib o'tgan, ularni nomlaridan bilib olsa bo'ladi. Guli qal'agiy (qal'a so'zidan) nomi zardo'zlarga yaxshi tanish bo'lib, ular nusxasi Orenburgdan keltiriladigan rus gazlamalaridagi guldan olingen. Buxoro savdogarlar chegarasi posbonlar bilan qo'riqlanadigan bu shaharga mol olgani borar edilar.

Rang-barang naqshli, sirkor me'moriy yodgorliklar, ulardagi turli-tuman geometrik naqshlar zardo'zlik gullari va kashtalarni ijodiy boyitishda boy material bo'lib xizmat qiladi. Shu singari, kiruvchi mehrob naqshi odatda uchli ark ko'rinishiga ega, kitoba naqshi yuzasiga chirolyi qilib arabcha yozuv bitilgan qator cho'zinchoq halqachalar bo'lib, ular turar-joy binolarining, masjid-madrasalarning devor bilan shifti tutashgan yerida

joylashgan bo'ladi. Qadimgi Buxoro me'morchilik yodgorliklari ham koshin degan gulning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan. Zardo'zlik kashtalarini tikuvchi ustalar boshqa namunalarga ko'r-ko'rona taqlid qilmay, atroficha o'ylab ko'rganlar. O'z kasb-hunarlarining an'analari va spetsifik xususiyatlari asosida ijodiy qayta ishlaganlar.

Zamindo'ziy va guldo'ziy tarzida bajarilgan daxram kompozitsiyasi chopon, poyabzal va jullardan boshqa zardo'zlikka oid hech bir buyumda qo'llanilmaydi. Bu xildagi san'at namunalarini bizgacha g'oyat oz miqdorda yetib kelgan. Yuza bo'ylab bir tekisda, har tomonda yoyilib turgan bir dasta gul aks ettirilgan choponlar butador deb atalgan. Gulning o'zi esa buta deyilib, unda gulning poyasi va yaproqlari, majnuntol novdalari, xurmo shoxlari, turli katta-kichiklikdagi girihs, qo'sh bodom va hokazolar ifodalangan bo'lishi mumkin.

Bu tur kompozitsiyaga yana butadori tavqnok deb atalgan to'n ham kiradi. Bunday to'nlearning butun yuzasi buta naqshi bilan to'ldirilib, faqat yelkasida — tavq (arabcha halqa) deb atalgan chiroqli gardishli turunji bo'lgan. Butadori chilyolak yoki jomi chilyolak deb atalgan to'nlar shular sirasidandir. Ularning tikiladigan butun yuzasi bir tekisda chilyolak degan halqachalar bilan to'ldirilgani uchun shunday nom bilan ataladi. Butadori daraxt kompozitsiyasi ham butador tipidagi guruhga mansub bo'lib, aslida darhami daraxtning variantlaridan biri hisoblanadi. Darhami daraxtdan uning birgina farqi shundaki, bunda ma'lum bir oraliqda tik joylashgan daraxt tanasi to'xtovsiz takrorlanaveradi. Buta tikiladigan yuza bo'ylab to'g'ri-to'g'ri qatorlarga aksar holda shaxmat ko'rinishida joylashgan bo'ladi. Butador kompozitsiyasi ayollar libosida g'oyat noyob usul hisoblanib, u ko'proq katta yoshlardagi erkaklar va bolalar buyumida qo'llangan. Bu kompozitsiyaning butadori tavqnok, butadori chilyolak va butadori daraxt deb atalgan turlari nisbatan kam, shunda ham katta yoshdagি erkaklar va bolalar liboslarida qo'llanilib, ayollar libosida mutlaqo qo'llanmagan.

Davqur (davri qur — hoshiyalangan so'zining buzib aytilishi) deb nomlangan to'nlar juda keng ko'lamda qo'llangan. Bunday to'nlearning yeng uchlari, barlari va quiyi qismlari qur hoshiyasi bilan aylantirib tikilgan, to'n yelkasiga esa turunj naqshi tushirilgan. Eng keng rasm bo'lgan bu kompozitsiya yo umumiy markazga ega halqanamo kashta gullar bilan yoki oralari islimiyl naqshlarga to'la olti burchak qatlamlari bilan to'ldirib chiqilgan. Naqshlarning har bir qismi mayda gul, yaproq, butoq va xurmo barglari shaklida tikilgan. Yulduzli halqanening pastki qismida kashta bilan tikilgan yarim oy nusxasi deyarli har ikki buyumdan bittasida uchrab turadi.

Kulucha mursagi zardo'zlik bezaklarining tuzilishi jihatidan ikki

guruhga bo'lingan: butadori chilyolak va davqur. Butadori chilyolak xilidagi mursaklarning faqat beligacha oldi va orqasidan kashtalar bilan bezatilgan. To'ndan farqli o'laroq, davqur mursaklarining turunji ham yelkadan, ham ko'krakdan tikilgan. Bunday mursaklarning chap barida, quyiroqda, ko'ndalang bo'lib gul yoki butoq shaklida kashta bo'lgan. Mursaklar keng zardo'zli cholvorlar (poyjomalar) bilan kiyilgan. Ularga lampasga o'xshash kashtalar tikilgan, bu kashtalar ikki yon tomonga yirmochlar bilan poyjomaning pochasini qamrab olgan. Old tomonning quyi qismida butoq, gul yoki turunj joylashgan. Mursakning belidan osma bezakli feruza qadamali, ba'zan qimmatbaho toshlar, sirlar bilan bezatilgan vazmin to'g'ali belbog' taqilgan. Amir va uning amaldorlari bunday liboslarni shahardan tashqariga chiqqan kezlarida va turli tantanali marosimlarda zardo'ziy o'kchali etik va oppoq zardo'ziy salsa bilan kiyganlar. Harbiy amaldorlar esa bunday libosni salsa o'rniغا, chetlariga mo'yna solib tikilgan zardo'ziy telpak bilan kiyganlar.

Erkaklar zardo'ziy poyabzali barqutdan tikilib, ular bir qancha turlarga bo'lingan. Shulardan biri kavushi mirzoiy yoki kavushi xatirchigiy kavushlari bilan kiyiladigan mahsidir. Bunday mahsi-kavushlar bir xil rangdagi barqutdan tikilib, bir xil gulda bezatilgan. Yana poyabzal turlaridan biri mo'za: tagcharmli, o'kchasi past, o'rtacha yoki baland bo'lgan. Mo'za bilan mahsining yozgi-tobistoniy, qishki-zimistoniy turlari bo'lgan. Yozgi mahsilarga jaydari yarim shoyi mato — adresdan astar qo'yilgan, qishkilariiga mo'ynadan astar qo'yilgan, o'kchasi past bo'lgan. Zardo'ziy poyabzalining uchinchi turi — qo'nji uzun, o'kchasi baland mo'zi xatirchigiy bo'lib, ularni asosan suvoriyilar, ovchilar, chavandozlar kiyganlar.

Ayollar va bolalar poyabzali ancha oddiy girih va halqalar bilan bezatilib, ularning oralari yaproq nusxalar yoki tagalak gajaklari bilan to'ldirilgan. Bodom kashtasi kompozitsiyasi juda ko'p uchraydi, ayollar va bolalar poyabzali faqatgina guldo'ziy tarzida ado etilsa, katta yoshdagи erkaklar poyabzali ham guldo'ziy, zamindo'ziy tarzida tikilgan (3.1-rasm).

Erkaklar va ayollarning quyidagi buyumlari ham zardo'ziy usulda tikilgan: salsa, kuloh, ayollar do'ppisi, peshanaband. Buxoro ayollari 40—46 yoshdan boshlab kiyadigan kultapo'shak — bosh libosi, sarandos va rido — ro'mollari, miyonband — erkak va bolalar belbog'i, ayollar ko'ylagi o'mizi (yoqasi), girdini bezaydigan yo'l — zei kurta, yeng uchlari — no'gi ostin, ayollar kamzulining yoqasi, paranjining peshak va dumi — paranji kashtalari, chashmband — yuz niqobi, qopchuq — hamyon, shona xalta — taroq xaltasi, jildi soat — soat xaltasi, shaxsiy muhrini solib qo'yadigan muhrdon va boshqalar ham zardo'ziy usulda tikilgan.

Erkaklar zardo'ziy to'nları odatda zardo'ziy kuloh ustidan zardo'ziy

salla bilan kiyilgan. Kuloh to'n rangidagi barqutdan tikilib, islimiy naqshlar bilan oro berilgan. Bu naqsh uncha katta bo'Imagan butoq yoki guldani, ba'zan o'simlik mevasi — bodom yoki zirkning badiiy uslublashtirilgan ifodasidan iborat bo'lgan. Qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, to'nlar bilan kiyiladigan kuloh ham shunga munosib bo'lgan. Sallaning umumiy uzunligi 24 gaz (1 gaz — 78 sm) bo'lib, undan uchdan biri — sakkiz gaziga zardo'ziy bezak berilgan. Bir tomondan qirg'og'i bo'ylab 8—10 sm enlikda, juda qalin qilib zardo'ziy kashta tikilgan. Sallaning ikkinchi uchi — fachi sulla 20—25 sm uzunlikda bodomnusxa yoki shunga o'xshagan biron gul naqshi bilan bezatilgan. Sallani kuloh ustidan shunday o'ralganki, kashtasiz qismi kashtali hoshiya tagida qolib ketgan. Uning ikkinchi uchi — fachi sulla namoz o'qiyotgan paytda chap tomondan tushirib qo'yilgan.

Kallapo'shi zardo'ziy — erkaklar bosib libosini yoshroq odamlar, o'smirlar kiyigan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yasalgan bunday cho'qqinamo bosh libosi ayollar kallapo'shidan tagining ancha baland ko'tarilib turishi bilan farqlangan. Ayollar do'ppisi ham, erkaklar do'ppisi ham sidirg'a rang barqutga tagidan zamindo'ziy, guldo'ziy tarzida yaxlit gullar berib tikilgan. Ancha yengil va nafis bo'lganligi uchun ko'proq guldo'ziy tarzidagi gullar ishlatalgan. Do'ppilarga boshdan-oyoq islimiy kashtalar bilan ham, turli ko'rinishdagi geometrik shakllar bilan ham oro berib chiqilgan. Geometrik shakllar 6 va 8 qirrali shakllar bo'lib, ko'pincha ular bir-biriga qalashtirib tikilgan, oralari gul va yaproq nusxa naqshlar bilan to'ldirilgan. Chorgul naqshi ham erkaklar, ham ayollar do'ppisida baravar ishlatalgan. Chorgul kompozitsiyasida zargarlikka yoki zardo'zlikka oid qubba — bo'rtma taqinchog'i qo'llanilib, har bir butoq yoki gulga uch donadan qo'yib tikilgan. Bunday do'ppilar chorguli duvozda qubba (o'n ikki qubbali to'rtgul) deb atalgan.

Peshanaband barqutga, shoyi, guldor atlasga, ayniqsa, zavodda to'qilgan atlas ro'mollarga tikilgan. Keksa zardo'z ustalar XIX asrning 80-yillarida qizil alvon (alvoni surx) zardo'ziy peshanadandlar tikish rasm bo'lganini eslaydilar. Peshanabandlar ensizgina bo'lib, kashtalar qator qilib terilgan besh yoki yettita halqachalardan (chilyolak) iborat bo'lgan. Bizgacha saqlanib qolgan peshanabandlar, asosan, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga taalluqlidir. Kashta 8 dan 11 sm gacha enlikdagi yo'l bo'lib, chorsi ro'molda ko'ndalang tarzda joylashgan. Ro'molning ikki qarama-qarshi burchaklari bitta qilib buklanib, oldindan tayyorlab olingan tarh asosida kashtalangan, qolgan burchaklari esa boshqa orqasiga bog'lash uchun qoldirilgan. Peshanabandlar kashtasi zamindo'ziy va guldo'ziy tarzida ado etilgan. Majnunbed (majnuntol) kashtasi peshanaband uchun eng sevimli

mavzu hisoblangan, moh yarimoy kompozitsiyasi ham tez-tez uchrab turadi (3.3-rasm). Moh peshanabandi zargarlik to'g'nog'ichlari bilan bezatilgan.

Peshanaband aslida zardo'ziy do'ppi ustidan o'ralgan. XIX asr boshlarida ayollar zardo'ziy do'ppilarining ikki xili mavjud bo'lgan. Xiyla eskiroqlari cho'qqinamo bo'lib, uni do'ppi kavushnok deyilgan, keyinroq, 90-yillarning so'ngiga kelib paydo bo'lgan, usti yassi va gardishi baland do'ppilarni do'ppi taqsimiy deyilgan.

Soch o'rimlarini qoplab turadigan uzun «dum»li kultapo'shak bosh libosini yoshi katta ayollar kiyganlar. Sochlар har to'monga yoyilib ketmasligi uchun «dum»ning tagidan 2—3 joyiga tugma ham qadalgан. Bosh qismining sirtiga guldo'ziy tarzidagi islimiш naqshlar bilan sidirg'a bezak berilgan. Gardishning old qismi va «dum»ning qирг'oqlariga islimiш yoki ishkandar peshak kashtalari yo'sinida qilib yengilgina gullar tikilgan.

Chorsи sarandoz ro'moli ham zardo'zlik kashtalari bilan bezatilib, to'g'ri ikki buklangan holda boshga tashlab yurilgan. Bunda ro'molning to'rttalа uchi ham orqaga tushib tурган. Sarandozni do'ppining ustidan, peshanabandning ostidan taqilgan. Uchburchak rido ro'moli esa peshanabandning ustidan tashlab, bir uchi orqaga, ikki uchi ko'krakka tushirib taqilgan. Sarandoz ro'mollari popukli kattakon zavod atlaslaridan qilingan. Ular kashtalarining juda oddiy va yaxlit tuzilishlari bilan ajralib turadilar, o'rtacha enlikdagi jiyak (hoshiya) bilan aylantirilib, islimiш naqshlar bilan to'ldirib chiqilgan, to'rttalа burchagida bitta kashtasi, o'rtada umumiш markazga ega bo'lgan halqalardan iborat kattakon doira bo'lgan. Qalin to'qilgan, shoyi matodan qilingan ridolarga burchaklarida bodom kashtasi va o'rтasidan yarim doira nusxasi tikilgan.

Katta yoshdagи erkaklar va bolalar belbog'i shoyi va atlasdan tikilib, sarandozdagidek kashtalar bilan bezatilgan, faqat o'rtadagi doira bo'lмаган xolos. Kashtalarning jimjimadorlikdan xoliligi va tarhlarining oddiyligi ularni ro'moldan farqlab tурган.

Ayollar bayram liboslari uchun eni 7 dan 10 sm gacha bo'lgan zеi kurta — yoqa tikilgan. Bunday yoqalarning uzunligi tizzagacha tushgan. Ba'zan undan ham uzunroq bo'lgan. Unga tikilgan gul va kashtalar rang-barangligi, serbezakligi bilan diqqatga sazovordir. Zardo'ziy zеi kurtalarning haddan ortiq jimjimador kashtalari zardo'zlikdan tashqari, yana bosma islimiш naqshlar tushirilgan yupqa zarrin kumush qoplamlar bilan ham bezatilgan. Ayollar ko'y lagi yengining no'gi ostiniy alohida tikilib, uni boshqa har qanday bayram liboslariга ko'chirib o'tqazish mumkin bo'lgan.

Buxoro shahri ayollari mehmonga borayotib, bir nechta ko'ylakni ustma-ust kiyib olganlar. Ularning shimarilgan uzun yenglaridan nechta va qanaqa ko'ylak kiyganlari yaqqol ko'riniб tурган. Badavlat bo'lмаган

ayollar bunday zardo'ziy ko'yak o'rniiga yeng taqishgan. Yenglarni asosan shoyiga tikanlar, kashtalari enli jiyak ko'rinishida, oddiygina islimiylaqshlarga to'ldirib bezatilgan.

Xuddi yenglar singari kamzullarning yoqasi ham alohida tikilib, boshqa kamzullarga ko'chirib o'tqazish mumkin bo'lgan. Yoqalar silliq sidirg'a rang barqutga tikilgan. Paranjining faqatgina ko'krak qismidagi (har bir tomonidan bittadan) peshakka uncha katta bo'lмаган bodom nusxa zardo'ziy kashta tikilgan. Yolg'on yenglar — dumi paranjining uchlarini biriktirib turadigan ensizgina yo'lga ham xuddi shunday kashta tikilgan. Ot yoli parda — chashmbandning pastki qismidan 8—10 sm enlikdagi zardo'ziy jiyak islimiylar tarzidagi kashtalar bilan to'ldirib chiqilgan. Chashmband ham yuza qismidan, ham ochib yurilganda ko'rinish turgani uchun ichki qismidan kashtalar bilan bezatilgan. Asos o'rniida noparmon barqutdan foydalaniłgan.

Pul, taroq, muhr, cho'ntak, soat singari buyumlarni solib yuradigan turli xaltachalar bir xil rangdagi silliq barqutdan tikilgan. Bunday xaltachalarga islimiylar ko'rinishdagi butoqcha, bodomcha nusxa kashtalar bilan bezak berilgan. Hamyonlarga har ikkala tomonidan, qolgan barcha buyumlarga faqat bir tomonidan kashtalar tikilgan.

Buxoro shahri aholisining turmush tarzini belgilovchi zardo'zining hozirgi kunda ham o'z o'rni bor. Bular hammasi ustalarining Buxoro madaniy merosi xazinasiga bebaaho hissa qo'shadigan chinakam san'at durdonalaridir.

#### 4. SANOAT NAMUNALARI SIFATINI ESTETIK BAHOLASH

##### 4.1. SANOAT ISHLAB CHIQARISH LIBOSINI BADIY MODELLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

Sanoat mahsuloti texnik darajasining o'sishi bilan aholining libos va poyabzalga talabini aniqlovchi asosiy omillardan biri bo'lgan sifatning estetik jihatiga katta o'rinni ajratiladi. Hayotning ko'rsatishicha, barcha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yaxshi narsa, estetik omillar hisobga olinmasa talabgir bo'lmaydi. Bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot estetik ko'rsatkichlarini yaxshilashning samarali vositalarini ishlab chiqish vazifasini ilgari suradi.

Sanoat ishlab chiqarish libosi, libos, poyabzal, aksessuarlarni estetik baholash mahsulot estetik xususiyatlarini narsa shakli, uning ijtimoiy

qiymatini his etish orqali qabul qilinuvchi ijtimoiy tavsiflardir.

Estetik xususiyatlar mohiyati estetik baholashga mahsulot afzalliklari va kamchiliklarini aks ettiruvchi o'ziga xos umumiy sifat mezonlari kabi qarashni talab etadi.

Sifatning muhim belgilaridan biri bo'lgan estetik daraja mahsulot sifatining umumiy darajasi bilan chuqur bog'liq.

Demak, mahsulot shaklini tahlil etuvchi ekspert uni faqat ma'lum estetik etalonning amalga oshirilishi debgina baholab qolmay, balki uning haqiqiy ijtimoiy qiymatini ham aniqlaydi. Sanoat mahsulotining estetik xususiyatlarini to'liq va aniq baholash shakl takomilligi darajasi bilan ushu mahsulot qiymati o'rtasidagi muvofiqlikning tekshiruvini o'z ichiga oladi.

Estetik baho mezoni Vatanimiz va chet elda ishlab chiqilgan namunalar etalon qatori bo'lib, o'z estetik darajasi bo'yicha eng yaxshi, yaxshi, qoniqarli va yomon deb aniqlanadi.

Sanoat namunasi sifatini estetik baholash strukturasi 1-sxemada keltirilgan bo'lib, u baholanuvchi namunalar mohiyatiga izchil kirib borishga imkon beruvchi iyerarxik darajalar prinsipi bo'yicha tuzilgan.

Modelning badiiy mazmuni ijtimoiy qiymatlilik va morfologik ko'rsatkichlar qo'shilishining, ya'ni utilitar va badiiy-estetik sifatlar qo'shilishi natijasidir. Utilitar sifatlar modelning vazifasi hamda mavsumga mosligi, odam turiga, uning yoshiga mosligi; foydalanishda qulayligi; ma'lum mahsulotlarda materiallar qo'llanishining maqsadga muvofiqligi; ishlov berish texnologik usullarining ratsionalligi va optimalligi; ost va ust materiallarning asosiy materiallarga texnologik muvofiqligini o'z ichiga oladi.

Namunaning badiiy-estetik sifatlari modelning vaqtga muvofiqligi va hamohangligini o'z ichiga oladi. U o'z navbatida modaga muvofiqlikni va hokazoni anglatadi.


Modelning yaxlit tashkil etilishi kompozitsiya xususiyatlari va vositalari bilan yaratiladi. Bu odam bilan o'zaro ta'sir, qismlarning o'chamlari o'zaro va butun bilan mosligi, alohida qismlarning ritmik bog'lanishi, rang va faktura yechimining to'g'ri tanlanishi, dekor kiritilishi tabiiyligidir.

Libos, poyabzal shakli, badiiy mazmun odamning ma'naviy talablari va imkoniyatlarining kompozitsiya bilan o'zaro ta'siriga mos kelishi lozim.


Namuna konstruksiyasining afzalligi konstruktiv yechim tanlanishining oqlanishi, libosda, poyabzalda chiziqlarning odam gavdasi anatomik tuzilishi bilan bog'liqligi, shuningdek, konstruksianing mahsulot tarkibiy qismlari bo'lgan detallar bilan muvofiqlashganligi asosida aniqlanadi.

Keyingi pog'onalarda sanoat namunasining sifati estetik baholanadi.

Namunalar sifatini estetik baholashning malakali o'tkazilishi ekspert




3.1-rasm. «Bodom» nusxasining turlari:  
 1, 7, 8, 12 — bodom; 4, 10, 11 — qo'shbodom; 2, 3 — qo'shbodom xazonok; 5,  
 6 — bodomi xazonok; 9 — bodomi nalnok.



a

3.2-rasm. Zardo'zlik naqshlari va ularning tuzilishlari:  
 a) «Turunj» va «anor» nuxxalarining turlari: 1, 5, 7 — anorning zardo'z ustalari «gul» deb ataluvchi uslublashtirilgan meva shakli; 2, 6, 8 — turunj; 3, 9, 10 — turunji xazonok; 4 — turunji nalnok.



b

b) «Tavq» turunj (medalon) nusxasining turlari:

1, 2, 5, 6, 7, 11, 12 — «tijigul»; 3, 4, 8, 9, 10, 13, 14 — «ka'bagul».

kadrlarning malakasiga bog'liq. Yangi libos, poyabzal, libos aksessuarlari sifatini baholashda rassomlar bilan birligida konstruktorlar va texnologlar qatnashadi. Shuning uchun loyihalanadigan va ishlab chiqariladigan mahsulotlarning estetik darajasini tahlil qilish, baholash va nazorat qilish uchun muhandis-loyihachilar ham, muhandis-texnologlar ham estetik jihatdan yuqori malakali bo'lishlari kerak.

Yangi model yaratishning quyidagi bosqichlarini ajratish lozim: — eskizlarga yangi modellarni ishlab chiqish; maketlash — yangi fikrni hajmiy-fazoviy shaklda ishlab chiqish; badiiy modellashtirish — asosiy materialda yangi fikrni hajmiy-fazoviy shaklda amalga oshirish.

#### 4.2. ESKIZLASH

Yangi modellarning eskizlarini ishlab chiqishdan oldin ularning dastlabki chizgilar bajariladi. Topshiriqqa va mavzuga muvofiq rassom ma'lumotlar to'playdi, mavjud namunalarni o'rghanadi, tahlil qiladi, modalar jurnallari bilan tanishadi, maxsus ko'rgazmalarni borib ko'radi, turli manbalardan chizmalar va nusxalarni o'rghanadi. Dastlabki chizgilar ma'lumot to'plash, material yig'ish, o'rghanish va tahlil qilish bosqichi bo'lib, u mavzuning ijodiy ochib berilishi va mualliflik fikrlari paydo bo'lishiga yordam beradi. Dastlabki chizgilar — bu rassomning dastlabki fikr va g'oyalarini tasvirlash (fiksatsiyalash), shakllar, alohida detallar, yo'llar, rang, fakturalar, plastika va hokazo — faqat muallifgagina tushunarli bo'lgan dastlabki chizgilar bajariladi (4.1-rasm). Chizgini bajarishda turli tasvirilash vositalari qo'llanadi.


Rassom o'zining dastlabki fikrlarini eskiz ishlanmalarida qo'shib ifodalaydi. Eskiz rassomning dastlabki g'oya, fikrlarini qog'oz yoki boshqa materialda aks etishi, ya'ni yassi tasvir. Eskizlarda badiiy timsol tuzilishi muammolari hal etiladi. Muallif o'z kuchini xarakter, siluet keskinligi giperbolizatsiyasiga, harakatlar g'ayritabiyligi, ranglar va faktura ohanglarining kuchaytirilishiga sarflaydi. Eskiz matematik formulani eslatadi va o'zida badiiy timsol mohiyatini ifoda etadi. Ayni paytda eskizda muallifning keng ma'noda rassomligi o'z ifodasini topadi. Eskiz ifodali, tushunarli, qabul qilinishi oson bo'lishi, ma'lum ma'noni anglatishi kerak.

Badiiy eskiz — dastlabki fikrning emotsiyal yechimidir. Unda rassom chiziqlar xarakteri, plastikasini, umumiylar holatini hal etadi, modellar konstruksiysini qarab chiqadi. Eskizlarda model — g'oyalar kolleksiysi ishlab chiqiladi. Kolleksiya libos, poyabzalning butun assortimentini o'z ichiga olishi va ma'lum yosh yoki kasb guruhiga mo'ljallangan bo'lishi

mumkin. Kolleksiyada eskizlar soni turlicha bo'ladi. Eskizlardagi modellar xilma-xilligi bilan farqlanishi, plastik va kompozitsion o'zaro bog'lanishi, yagona yaxlitlikni tashkil etishi kerak. Yuqori badiiy darajada bajarilgan eskizlar — ko'rgazmalarda rassomlik polotnolari, grafik ishlar va hokazo bilan bir qatorda munosib o'rin egallovchi san'at asaridir. Bir kompozitsiyaga eng qiziqarli, yetakchi model g'oyalari guruhlanib, mavzu yuzasidan muallif takliflarining o'ziga xos reklamasini namoyon etadi. Yakunlangan kompozitsiyani bajarishdan oldin qog'ozda predmetlarning o'zaro joylashuvi, ranglar yechimi, bajarilish texnikasi, fon ishlanuvchi foreskizlar tayyorlanadi. Eng ifodali, plastik, kompozitsion, grafik jihatdan qiziqarli hal etilgan va mavzuni aks ettiruvchi foreskizlarning birida yakunlangan (oqlama) kompozitsiya bajariladi. Tugallangan ish — maket va namunalarda ishlangan modellarni o'z ichiga olgan ko'ppredmetli kompozitsiya. Bunday kompozitsiya turlicha ifodalanishi mumkin. Shartli muhitni ifodalovchi chiziqli — izli fon bilan yoki uzsiz, jurnal sahifasi kabi (matn kiritish bilan), plakat ko'rinishida va hokazo. Tugallangan kompozitsiya rassom ijodiy imkoniyatlarini ko'rsatadi, uning fantaziyasini rivojlantirishga, turli tasviriy vositalar va materiallar bilan ishlash tajribasini to'plashga yordam beradi, rassom fikrini tomoshabinga yaxshi va tushunarli yetkazishga imkon yaratadi. Dastlabki eskizlardan farqli, oqlama kompozitsiya ancha puxta chiziladi. Eng avvalo bu, umuman, figuralar, modellarning ichki tuzilishi, detallar, furnituraga tegishli. Ishlanish texnikasi — turlicha, har xil tasviriy ifoda usullarini qo'llash orqali bajariladi. Material — qog'oz yoki karton.

Rassom eskizi nafaqat modelning ajoyib g'oyasini aks ettirishi, balki zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlarida uni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatishi kerak. Bu borada ishlab chiqilayotgan shakllar, kompozitsiya va konstruksiya to'g'risida to'liq tasavvur beruvchi ishchi eskizlar bajariladi. Shu maqsadda bir modelning o'zi turli burilishlarda tasvirlanadi: libos — oldindan, yondan orqa tomonidan ko'rinishi, poyabzal — ichki va tashqi yon tomon, ustdan, pastdan ko'rinishi. Model kompozitsiyasi va konstruksiysi tushunarligiga alohida e'tibor beriladi. Ishchi eskizlar, odatda, chiziqli-konstruktiv, bir rangda, mahsulot, alohida detallar, proporsiyalarning aniqlangan shakli bilan bajariladi.

Charm-attorlik mahsulotlari ishchi eskizini tabiiy kattalikda bajarish maqsadga muvofiqdir. Bunda sumkalar, portfellar, jomadonlar va hokazolar ikki holatda: oldindan va yondan tasvirlanadi. Bu yerda esa mahsulotning ochilgan, kichraytirilgan masshtabdagi umumiyo ko'rinishi chiziladi. Mazkur usul mahsulotning umumi kompozitsion yechimini ko'rishga imkon beradi va konstrukturning andazalar ishlab chiqishdagi keyingi ishini osonlashtiradi, hamma o'lcham va proporsiyalar aniq bo'lgani uchun rassom g'oyasining buzilishiga yo'l qo'yilmaydi.



3.3-rasm. «Majnunbed» va «shulluk» nusxalarining turlari:  
4—majnunbed; 1, 5, 6, 9—bargi majnunbed; 7, 8—shulluk;  
2, 3, 10, 11—bargi shullukiy.



3.4-rasm. «Maxodil» nusxalarining turlari:

1, 2, 3, 6, 7, 10, 11 — maxodil; 5, 13 — chormaxodil; 9 — maxodili durun  
ba durun; 4, 8, 12 — chormaxodili durun ba durun.

Modellashtiruvchi tashkilot sharoitlarida bajarilgan eskizlar badiiy-texnik kengashda badiiy yechimning o'ziga xosligi va yangiligi, konstruktivligi, texnologiyaga muvofiqligi nuqtayi nazaridan qarab chiqiladi va tasdiqlanadi. Eskizlarda tasdiqlash sanasi, texnik topshiriq nomeri, namuna ko'rinishi, turi, vazifasi, tavsiya etiluvchi materiallar, mualliflar — rassom va konstruktor familiyalari ko'rsatiladi.

#### 4.3. ESKIZ GRAFIKASI

Eskiz mazmunining ochilishi va uning o'qila olishiga to'g'ri tasvirlash tili yordam beradi. Rassom eskizlar ustida ishlashda tasviriy ifodaning turli vosita va usullarini qo'llaydi. Eskiz mazmunining keng ochilishiga yordam beruvchi grafik yechim katta ifodalilikka ega. Rassom uchun ranglar toni rang ochiqligini bevosita his qilishdir. Rassomning amaliy ishi uchun oqdan qoragacha oddiy ritmnинг harakatida axromatik tonlardan to'qqiz ton yetarli deb qabul qilingan. Teng bosqichli axromatik shkalaga qarashda ko'z o'rta fon toniga moslashadi. Faqat o'rta ton fonidagina boshqa tonlar ularning haqiqiy ochiqligida qabul qilinadi: oqning oppoqligi, qoraning qoraligi va hokazo. O'rta ton (nafaqat kul rang) qator farqli xususiyatlarga ega. Unga yaqin va o'rta tonlarda tuzilgan kompozitsiya sokinlik hissini chaqiradi. Ochiq ton bir vatli ochiqlik kontrastini aniqlashga juda sezuvchan va atrofidagi ranglarga qarab bir ochiqroq, bir to'qroq bo'ladi.

Axromatik ton rang tonlarining to'yinganligini aniqlash uchun yaxshi o'Ichovdir. Turli tonlar iliqligi va sovuqligiga nisbatan neytral bo'lib, u bu belgilarni farqlash uchun qo'llanadi. Har qanday kompozitsiyaga o'rta kul rangga bo'yalgan romcha qo'yilsa, kompozitsiyaning umumiyligi tonal holatini, rang dog'larning to'yinganligi, ular ochiqligi va intensivligini aniqlash mumkin. Kompozitsiyani oq yoki qora romcha yordamida aniqlashda esa uning tonal holati va ranglar buzilib ko'rsatiladi.

Har qanday tekislikdagi tasvirning sharti bir dog'larning boshqalarga nisbatan ajralib turishidir. Shunday qilib, tekislikdagi har qanday tonal tasvir bir-biriga va tonga nisbatan ochiq tonlarning ajralib turishi va to'q tonlarning orqaga siljishiga asoslanadi. Biroq dog'larning ajralib turishi nafaqat ochiqlik, rang va to'yinganlikka, balki ular kompozitsiyada egallab turgan yuzaga ham bog'liq bo'ladi. Nisbiy yuza qancha katta bo'lsa, dog' yuzasi, ayniqsa, ochiq rangli, shunchalik ko'zga tashlanuvchi bo'ladi. Va aksincha, dog' qancha kichik bo'lsa, u shunchalik kam ko'zga tashlanadi. Kompozitsiyada dog'larning ajralib turishiga ular konturini qora (yoki biron-bir xromatik to'q) rang bilan chizib chiqish katta ta'sir ko'rsatadi. Kontur chizig'i qanchalik qalin bo'lsa, dog' shunchalik ko'rinarli bo'ladi. Kompozitsiya hosil qiluvchi

dog'larning ajralib turishi rassomga asosiyni ajratib ko'rsatish va ikkinchi darajalini pasaytirishga imkon beradi.

Ikki tonli kompozitsiyada bir ornament o'rinni egallaydi: qorada — oq yoki oqda — qora. Uch tonli kompozitsiyada ikki ornament (tasvir) bo'ladi, masalan, o'rta ton fonida oq va qora. Tasvirlardan biri yetakchi — asosiy bo'lishi mumkin. Ikki tonli kompozitsiyada dog' ajralib turish darajasi uning nisbiy o'lchamlari bilan aniqlansa, uch tonlida u boshqa sabablar bilan shartlangan: eng avvalo, eng ochiq va eng to'q dog'lar qabul qilinadi, chunki ular tonal diapazonni yopuvchi chekki bo'ladi, yarimtonlar esa kam ko'rinvchi bo'ladi.

Ochiqlik kontrastli kompozitsiya tuzishning bosh vositasidir. Axromatik ranglar tengbosqichli qatori uchun tonal kontrastlikning katta xilma-xilligi xos: maksimaldan (oq-qora) minimalgacha (o'rta tonlar orasida). Shuning uchun uch tonli kompozitsiyalarda turli tonal diapazonlar bo'lishi mumkin. Eng keng diapazonlardan qora rangli kompozitsiya o'rta tonlarda bajarilgan kompozitsiyadan ochiqroq, kontrastroq ko'rindi.

Ikki tonli kompozitsiyalar — eng oddiy tonal yechimlar. Kompozitsiyaga uchinchi tonning kiritilishi ochiqlik kontrastlarining tasviri imkoniyatlarni keskin oshiradi. Bunda ular o'rtasida kontrast proporsiyalar hosil qilish uchun uchta zarur va yetarli kattalik bo'ladi. Masalan, kompozitsiyada oq, qora va o'rta kul rangga asoslangan proporsiya hosil bo'ladi. Oq va qora o'rtasidagi kontrast oq va kul rang o'rtasidagi kontrastga ham, qora va kul rang o'rtasidagi kontrastga ham taalluqli. Bu teng qismlarga ajratishni, bir xillik prinsipini anglatadi. Agar kompozitsiya uch tondan — qora, oq va qoraga yaqin kul rangdan iborat bo'lsa, unda boshqa proporsiya bo'ladi: oq va qora o'rtasidagi kontrast oq va kul rang o'rtasidagi kontrastga, keyingisi kul rang va qora o'rtasidagi kontrastga tegishli, oltin kesim proporsional taqsimot turini — xilma-xillik prinsipini anglatadi.

Uch tonlilik san'at asarining aniq o'qilishini, uning konstruktivligini ta'minlaydi. Kompozitsiyada uchdan ortiq tonlar ham qatnashishi mumkin. Biroq qo'shimcha tonlar uch asosiya yaqinlashtirilishi kerak, aks holda, tasvir o'qilishi va boshqa xususiyatlarni yo'qotadi.

Kompozitsyaning umumiy tonal holatiga yorug', o'rtacha va qorong'i dog'lar yuzasi ham ta'sir etadi, ya'ni bu yuzalar proporsiyasi.

Quyidagi variantlar bo'lishi mumkin:

- a) ochiq, kul rang va to'q tonlar teng, kompozitsiya — statik, ayniqsa, tonlar teng darajali bo'lsa;
- b) ochiq tonlar va unga yaqin o'rta tonlar ko'p, to'q tondan kam, kompozitsiya — ochiq, tonal — dinamik;
- d) to'q rang va unga yaqin o'rta ton ko'p, ochiq ton kam, kompozitsiya

— to'q, tonal — dinamik;

    e) o'rtacha ko'p, ochiq va to'q tonlar yuzalar katta emas, kompozitsiya

— grafik.

Uch ton yuzalarining eng yaxshi o'zaro ta'siri ular matematik proporsiyalar bilan bog'langanda bo'ladi. Uch yuzalar uchun bu proporsiyalar quyidagicha hisoblanadi: ochiq, o'rtacha va to'q yuzalar — teng, katta yuza (tonlarning istalgani) — 50 foiz, o'rtacha — 31 foiz, kichigi — 19 foiz. Uch tonlar yuzalari o'rtasidagi tabiiy bog'lanish kompozitsiyaning tonal tartibini ta'minlaydi.

Tonal kompozitsiyalar yechimlarining asosiy turlari: ornamentlar rolini ochiq va to'q tonlar bo'yicha bajaruvchi o'rtacha fonda kompozitsiya; kompozitsiya ochiq fonda bajarilgan bo'lib, tasvir o'rta va to'q tonlarda bajarilgan; kompozitsiya to'q fonda, tasvir esa ochiq va to'q tonlarda bajarilgan.

Turli diapazonlarning tonlarning turli proporsiyalari va yuzalari bilan qo'shilishi rassom-loyihalovchilar oldida libos kompozitsiyasini ishlab chiqishda ijodiy izlanish va yechimlar uchun keng yo'l ochib beradi. Ornamental san'at sharti tasvirning yassiligidir. Ikki tonli kompozitsiyalar — doim yassi. Ko'ptonli kompozitsiyalarda rejallilikdan saqlanish uchun quyidagi qoidalardan biriga rioya qilish zarur: hamma ochiq dog'lar teng ochiq, hamma to'q dog'lar teng to'q, yarimtonlar ikki yoki uchta bo'lishi va ular juda yaqin bo'lishi kerak; ochiqlardan — ikki kuchli yaqin ton, to'qlardan — bir yoki ikki kuchli yaqinlashtirilgan ton, yarimton — bitta. Bu qoidalardan har biri kompozitsiyani uch tonliga yaqinlashtirgandek bo'ladi.

Eskizlarni grafik bajarish vositalari — qalamlar, siyoh, tush, bo'yoqlar (akvarel, guash, tempera va yog'li), sangina, ko'mir, flomasterlar, applikatsiya uchun rangli qog'ozlar va hokazo. Eskizlar bajariluvchi material turli navdagi qog'oz va karton bo'lishi mumkin.

Eskizlarning axromatik va xromatik yechimi ikki va uch tonli, yoki chiziqli-dog'li bo'lishi mumkin. Eskizlar turlicha bajarilishi mumkin — bular bir rangli, ikki yoki uch rangli grafika, ko'p rangli grafika, turli dekorativ-rassomlik yechimlar usuli.

Eskizning chiziqli yechimini mo'yqalam, pero, qalam, flomaster bilan amalgalish mumkin; dog'li faktura tavsiflarini ifodalovchi yechimlar — bo'yoqlar, rangli siyohlar, tush bilan bajarilishi mumkin. Eskizlarni bo'yoqlar bilan bajarishda turli texnika qo'llanadi — dog'li quyish, enkaustika, monotipiya, rangli qog'ozlar va bo'yalmalar qo'llangan applikatsiya. Eskizlarni bajarishda turli texnikaning qo'llanishida rassom uchun fikrining timsoliy tavsifini ifodalovchi faktura yechimini aks ettirish imkonи paydo bo'ladi. Bo'yoqni (akvarel, tush, temperani) mo'yqalam bilan turlicha surtish

mumkin — tiniq, pastasimon, lessirovka bilan va hokazo.

Materiallar fakturasini grafik tasvirlash uchun (charm, mo'ynalar, to'qimachilik materiallari va boshqalar) eskizlar bajarishning turli usullari qo'llanadi: oq qog'ozda eskizni igna bilan chizib chiqish, so'ng akvarel bilan ma'lum yuzani quyib chiqish; chizuvchi material sifatida mum bilan ishlash; aplikatsiyalarni montaj qilish — mustaqil yoki boshqa usullar bilan birgalikda; materiallar tayyor fakturasini yuzasiga qalin surtiluvchi bo'yoqlarni surtish, so'ng ularni qog'ozda eskizning muvofiq uchastkalarida bosmalash, yumshoq tukli materiallar fakturasini hosil qilish uchun eskizga bo'yoqni gubka bilan surtish; bo'yoqni eskiz yuzasiga yarimquruq qattiq cho'tka bilan surtish, mo'ynali fakturalarning turli variantlarini hosil qilish uchun unga suv bilan aralashtirmagan guashni surtish va hokazo.


Eskizlar bajarishning turli usullaridan foydalanish rassom ijodining boshlang'ich bosqichidayoq muallif qobiliyati va fikrini har tomonlama to'liqroq ochishga imkon beradi.

#### 4.4. LIBOSNI MAKETLASH

Ijodiy jarayon bosqichi sifatida har qanday holda maketlash maqsadga muvofiqlik. Maketlash — yangishakllar, mantiqiy va mukammal konstruksiyalar, uyg'un va ifodali kompozitsiyalar, optimal texnologiya va hokazoni izlashdir. Maket — narsaning hajmli tasviri bo'lib, uning vazifasi, shakli, kompozitsiyasi, konstruksiyasi haqida tasavvur beradi.

Maket yordamida shakl, uning barcha burilish va rakurslari, rangli va faktura yechimlarida ko'rgazmali o'qiladi. Muallif kelgusi modelni qanchalik aniq tasavvur etsa va uni eskizda chuqurroq ishlasa, maket shunchalik eskizga muvofiq keladi. Tasdiqlangan eskiz bilan har qanday nomuvofiqlik yoki undan cheklanish maketni tuzatish, tahrir qilishni talab etadi, ba'zan esa eskiz g'oyasi hajmda o'z ifodasini topmasa, eskizdan voz kechish va yangisini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Maket ba'zan dastlabki (eskiz) g'oyasiga nomuvofiqlik taassurotini tug'dirishi mumkin. Bunday nomuvofiqlik loyihalovchida eskizlarni ishlab chiqishda fazoviy fikrlash, hajmli shakl yaratish bo'yicha yetarlicha tajriba yo'qligi tufayli paydo bo'ladi.

Libos maketlanishi, asosan, nakolka usulida amalga oshiriladi. Model qog'ozdan, maket yoki asosiy matodan maneken yoxud odam figurasiiga «yopishtiriladi». Maket materiali o'z plastik xususiyatlari bilan rassom bo'lajak model loyihasida nimani ko'zda tutganini anglatishi kerak. Ko'pincha bu ip-gazlama, bo'z bo'ladi. Asosiy material muvofiq ko'rinishni berishi uchun bo'z kraxmallanadi, yelim bilan shimdirliladi, bo'yaladi,



4.1-rasm. Libos elementlarining dastlabki eskizlari.

bezatiladi va hokazo. Nakolka (materialni manekenga ignachalar bilan qadash) usuli bilan maketlash rassom fikrlarini boyitadi, uning ijodiy imkoniyatlari diapazonini kengaytiradi. Maketlashda materialning plastik xususiyatlari, g'ayrioddiy nisbatlar, qismlarga ajratishlar, ritmlar, libosning ritmlari, kompozitsiyada ranglar va fakturalar qo'shilishi, dekorativ va konstruktiv yechimlar aniqlanadi va hokazo.

Libos elementar shaklini yaratishning ma'lum usuli bu mato polotnosini arqoq chizig'i bo'yicha ikki buklab, yaxlit bo'lakda egilishda yelka to'g'ri chizig'ini hosil qilish bilan bajarishdir. Bukanish o'tasida kesik hosil qilish orqali tunika — qadimgilar libosi asosi hosil qilinadi. Bu prinsip bilan yaratilgan libos tektonikasi yelka belbog'da ushlab turilgan material plastik sifatlariga bog'liq bo'ladi, shaklning tushib turuvchi qatlari esa materialning o'z og'irligi, uning miqdori va sifati hisobiga hosil bo'ladi. Bunday shakldagi libos yenglari ham to'g'ri polotno bo'lib, yelka bilan to'g'ri chiziq bo'yicha birlashtirilgan.


Gavda shakli yoki uni takrorlovchi shaklga yaqin shakkarni yaratish turli shakl hosil qiluvchi elementlarni kiritishni talab etadi, ular yordamida material sferik yuza bo'ylab gavda va uning qismlari shakli bo'yicha taxlanadi. Bu holda matoning qiya joylashuvini qo'llash mumkin. Bunda konstruktiv yechimning mukammalligi muhim rol o'ynaydi.


Maketlashda shakl, o'ziga xos konstruktiv yechimlar aniqlanadi, kompozitsiya izlanadi, detallar, bezaklar va hokazo aniqlanadi. Model shakli, kompozitsiyasi va konstruksiysi odam timsoli bilan moslashtiriladi. Mo'yna, charm, zamsha, baxmal va hokazo materiallar maket modellarini ishslashda, izlashda juda zarur.


Yangi g'oya, fikr maketda ishlanganidan so'ng, u asosiy materialda yaratiladi. Rassom yaratgan model loyiha shakldagi narsa hayotining boshlanishidir. Ommaviy iste'molchigacha sifatli mahsulot yetkazib berish ishlab chiqarish — iste'mol bosqichlarida jamoa faoliyatini aqlii tashkil etishni talab qiladi.


#### 4.5. SANOAT ISHLAB CHIQARISH LIBOSLARINI MODELLASHTIRISH


Sanoat ishi amaliyoti ko'rsatishicha, hozir mahsulotlar sifatini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijodkor xizmatchilarning roli juda oshgan. Aholini yuqori sifatli, moda talablari va uning ehtiyojlariga javob beruvchi tovarlar bilan ta'minlash uchun modellar ishlab chiqarish muddatlarini qisqartirish, mahsulotlarni loyihalashtirish bosqichida ish tashkil etilishini takomillashtirish zarur.

















Hozirgi vaqtida libosni modellashtirish uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich — moda yo'nalishini ikki yil oldinga aniqlovchi yo'naltiruvchi kolleksiya yaratish. Uni yaratishda o'zida bo'lajak modaning asosiy belgilarini jipslashtirgan modellar ishlab chiqilib, ular o'z aksini eng avvalo yangi shaklda, so'ng detallar va bezaklarda topadi.

Ikkinci bosqich — yo'naltiruvchi sanoat kolleksiyasini yaratish. Bu bosqichda modali siluetlarning konstruktiv asoslari ishlab chiqiladi. Yo'naltiruvchi kolleksiya sanoat modellari kolleksiyalarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich — bir asosiy shakl va konstruktiv asos bo'yicha sanoat kolleksiysi namunalarini yaratish. Libosni sanoat ishlab chiqarish sharoitida modellashtirish turi bir konstruktiv asosda, maket yordamida modellar sanoat kolleksiyasini ishlab chiqishdir. Bunda dastlab ommaviy ishlab chiqarish sharoitlarida o'zini oqlagan va sinalgan konstruksiyalar aniqlanadi. So'ngra maket materialda o'lcham — to'lalik va yoshlar guruhi, tavsiya etiluvchi texnologiyalar, kichik mexanizatsiya, xomashyo, yangi bezaklar turi, aniq oqim va uskunalarni hisobga olgan holda, modellar seriyasi ishlab chiqiladi. Maketdagi modellar tikuvchilik korxonalari bilan muvofiqlashtiriladi. Maketlarda oxirigacha ishlangan modellarga nomer qo'yiladi, ularga konfektion xaritalar rasmiylashtiriladi. Sinab ko'rilgan maket, andazalar konstruksiyalaridan foydalaniib konstruktor andaza ishlab chiqiladi, tasvirlash xaritasi, asosiy o'lcham uchun o'lchamlar tabeli tuziladi, namuna qirqiladi. Modelni asosiy materialda o'lchab ko'rishda muallif qatnashishi shart. Tayyor model ishchi badiiy kengashda dastlab shartli — tipik figurada (manekenchida), so'ng badiiy-texnik kengashda taqdim etiladi. Model — «namuna» attestatsion komissiya tomonidan tasdiqlanadi. So'ng hamma o'lchamlar va uzunliklarga tabel tuziladi, andazalar ko'paytiriladi. Texnolog esa ishlov berish texnologiyasi va tayyor namuna bo'yicha tavsiyalarga muvofiq texnik ta'rif tuzadi. Bir konstruktiv asosda bajarilgan ikki-uch modelga har bir model xususiyati ko'rsatilgan bitta texnik ta'rif tuziladi.

Maket modellashtirish uslubi bilan ishlash barcha ish uchastkalarida mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlaydi — modellashtirishdan boshlab to namuna tayyorlashgacha. Maket modellashtirish uslubining afzalligi model yaratishdan to namunaning texnik hujjatlari bilan chiqishgacha davrni qisqartirish, konstruksiya va texnologiyada noaniqlikni bartaraf etish, bir konstruktiv asos bo'yicha modellar sonini oshirish, modellar seriyasini fabrika laboratoriyasida dastlab ishlab chiqmasdanoq ishlab chiqarishga tushirish, yangi assortiment modellari ustida ishlash uchun zarur vaqt rezervini yaratishdan iboratdir.

#### 4.6. LIBOS MODELLARI TURLI-TUMANLIGINI YARATISHNING ASOSIY SHAKL VA YO'NALISHLARI

Modellashtirishda quyidagi libos shakllari qabul qilingan: asosiy (to'g'ri burchak, trapetsiya) va ulardan hosilalar. 4.2-rasmida libos asosiy shakllarining rivojlanish sxemasi keltirilgan va ularning shartli belgilari ko'rsatilgan. Asosiy shakllar uzunligini tanlashdagi mo'ljallardan biri tizza chizig'idir (yuqori-past), bu uzunlik shakllarini katta deb ataymiz. Shakllar yon abrisini saqlab qolib, bez chizig'iga mo'ljal bilan uzunlikni qisqartirib, boshqa shakllar hosil qilamiz. Ularni o'rta va kichik deb ataymiz, ular kattalar kabi (mos uzunlikda) odam bo'yvi va proporsiyalariga mos keladi. To'g'ri burchak va trapetsiya, ikki trapetsiyaning qo'shilishi yo'li bilan libos shakllari hosilalari yaratiladi.

Bunday shakllarda to'g'ri yon abris ko'zda tutiladi. Botiq yoki bo'rtma kontur chiziqlar odam figurasiiga nisbatan libosni yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirishga yordam beradi, asosiy shakllarni hamda ularning geometrik ko'rinishini muvofiq ravishda rivojlantiradi.

Shakl hajmliligi shaklni chegaralovchi chiziqlar bo'rtib chiqish darajasi bilan aniqlanadi, rassom g'oyasi moda, odam figurasi o'lchamiga bog'liq bo'ladi. Shakl hajmliligiga figura va mato rangi ham ta'sir ko'rsatadi. Hosila shakllar ham turli kattalikka ega bo'lishi mumkin — katta, o'rtacha va kichik, bu bilan kattalik va massa bo'yicha shakllarning yana ham turli-tumanligiga erishiladi.

Libosning uyg'un, kompozitsion tashkil etilgan shakli uning hamma elementlarining birligini yaratishda yuzaga keladi, ya'ni o'lchamlar mosligi shakl hosil qiluvchi hamma qismlarning muvofiqligi va o'zaro tobelligidir.

Shakl elementlari teng kattaliklarining takrorlanishida (1:1) elementlarning o'zaro tobelligi paydo bo'lmaydi. Shaklning noteng qismlarga ajratilishida uning katta qismi kattaligi bo'yicha ajralib turadi va o'ziga kichikni bo'ysundiradi. Kattaliklar notengligi kuchli ifodalangan nisbatlarda katta kattalikdan kichikka qarab yo'nalgan dinamika yuzaga keladi.

Oltin kesim prinsipi libos turli shakllarining odam bo'yvi, bilak hamda libos qismlarining optimal proporsional nisbatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu holda dastlab libosning umumiy uzunligi va uning katta qismi uzunligi o'rtasidagi nisbat, so'ng uning katta va kichik qismlari o'rtasidagi nisbat aniqlanadi. 158—96—108 tipik gavdali ayol figurasi uchun assortiment shakli, vazifasi, antropologik ma'lumotlarni hisobga olgan holda libosda eng maqsadga muvofiq proporsiyalar va gorizontal kesishlarni ko'rib

chiqamiz («Tikuv, trikotaj, mo'ynali mahsulotlar. Ayollar tipik figurasi. Libosni loyihalash uchun o'lcham belgilari» OST 17—326—81) (4.2-rasm).

Figuraning asosiy balandligi o'lcham belgilari quyidagilar, sm: 1-eng yuqori nuqta balandligi ( $R=158$ ); 10-bo'yin nuqtasi balandligi ( $V_{b.n.}=135,5$ ); 7-bel chizig'i balandligi ( $V_{b.ch.}=99$ ); 12-belosti chizig'i balandligi ( $V_{bo.ch.}=70,2$ ); 9-tizza nuqtasi balandligi ( $V_t=43,5$ ).

Libos uzunligining bo'yga va libos kesilishiga ratsional nisbatlarini aniqlash asosida proporsionallik prinsipi — oltin kesim yotadi. Hisoblash uchun zarur o'lcham belgilari va ularning belgilari 4.4-rasmida keltirilgan:  $L_k^1$  — katta shakldagi liboslar uzunligi (4.4-a rasm);  $L_o$  — o'rtacha shakl libos uzunligi (4.4-b rasm);  $L_k$  — kichik shakl libos uzunligi (4.4-d rasm);  $L_u$  — libos ustki qismi uzunligi va  $L_p$  — libos pastki qismi uzunligi (4.4-e, f, g rasm). Libos turli shakllari proporsiyalarini aniqlash bo'yicha hisoblarda o'rtacha balandligi 4 sm ga teng poshna hisobga olinadi. Katta shakl libos proporsiyalari (palto, plashlar, nakidkalar)  $L_k$  — to'g'ri burchak, trapetsiya va hosila shakllar (4.3-4.4-a rasmlar):

$R: L_k = 1,62:1$ ,  $L_k = 100$  sm deb qabul qilamiz.  $V_{b.ch.}: L_p = 1,62:1$  da  $L_p = 63,5$  sm deb olamiz, agar  $L_u = V_{b.n.} - V_{b.ch.} = 36,5$  sm bo'lsa, unda  $L_k: L_p = L_p: L_u$  da  $L_p = 60$  sm;  $N_k = V_t - (6,9)$  sm (bu yerda  $N$  — past chizig'i holati).

Qisqartirilgan uzunlikdagi katta shakl (yarimpalto, plash, nakidka) libos proporsiyalari.  $L_k^1$  (4.3 va 4.4-a rasmga qarang)  $V: L_k^1 = 1,62:1$  da  $L_k^1 = 86$  sm,  $N_k^1 = V - (6,9)$  sm deb olamiz.  $L_o$  — to'g'ri burchak, trapetsiya, hosila shakllar o'rtacha shakldagi libos proporsiyalari (kurtka) (4.3 va 4.4-b rasmga qarang).  $R:L:L=L:1,62:1=1:0,62$ ;  $L=62+(2,5)$  sm,  $N_o = V - (2,5)$  sm. O'rtacha shakl libos uzunligining 2—5 sm ga oshirilishi uning funksional sifati bilan talab etiladi — kurtka odam figurasining belini to'liq yopadi.

Kichik shakldagi libos proporsiyalari (kurtkalar, bluzkalar, jiletlar)  $L_k$  (4.5 va 4.4-d rasmlarga qarang).

$$L = V - V = 36,5 \text{ sm}; L_k: L_o = L_o: L_k = 1,62:1 = 1:0,62;$$

$$L_k = 38 \text{ sm } N_k = V - (0,3) \text{ sm.}$$

Aniqlangan shakl uzunliklarini bo'yga quyidagi koeffitsiyentlarni e'tiborga olgan holda hisoblash mumkin. Katta shakl uchun — 0,64R, qisqartirilgan katta shakl uchun — 0,64R, o'rtacha shakl uchun — 0,44R, kichik shakl uchun — 0,24R, shuningdek, uzunlashtirilgan kichik shakl (qisqartirilgan o'rtacha) ni topish mumkin — 0,34R.

Libosni badiiy loyihalashtirish jarayonida kichik shakl uzunligini yaqinlashtirib, modul deb qabul qilish mumkin, uni kattalashtirishda o'rtacha shakl uzunligi hosil bo'ladi. Biroq rassom g'oyasiga yoki moda o'zgarishiga

qarab u yoki bu mahsulot uzunligi o'zgartirilishi mumkin.

Libosning hosila shakllarida gorizontal qismlarga ajratish holatlarini aniqlashni qarab chiqamiz. Libosda bel chiziqlarining tabiiy joylashuvi. Libos katta shakllarida ustki va pastki qismlar oltin kesimga yaqin nisbatlarda bo'ladi, ya'ni:

$$L_k:L:L=1,62:1=1:0,62.$$

O'rta libos shaklida bez chizig'ini qayd etishda uning pastki qism uzunligini belosti qatning balandligidan 5—6 sm yuqoriroq o'rnatish maqsadga muvofiqroq. Bu holda libos uzunligi va uning qismlari o'rtasida oltin kesim prinsipi saqlanib qoladi.

$$L:L^1=L^1:L^1=1,62:1=1:0,62; L^1=24 \text{ sm}.$$

Qismga ajratish chizig'i 3—6 sm tabiiy holatidan pastda joylashgan.

Libos kichik shakllarida gorizontal kesilish holati:

$$L_k:L_k^{\circ}=L_k^{\circ}:L_u^{\circ}=1,62:1,00=1:0,62; L_u^{\circ}=12,15 \text{ sm}.$$

Qismga ajratish chizig'i ko'krak chizig'idan 5—8 sm yuqori joylashgan.

Libosning yuqori shakllarida bel chizig'ining yuqori joylashishi, shuningdek, libos yuqori qismining gorizontal kesilish chiziqlari (koketkalar chizig'i) ko'krak darajasidan yuqori hamda undan pastda joylashishi mumkin — bu libosda boshqa gorizontal kesishlar, modali chiziqlar mavjudligiga bog'liq.

Ishlab chiqarishda chiqarilayotgan mahsulotlar xilma-xilligiga erishish yo'llarining tahlili ko'rsatishicha, ommaviy ishlab chiqarish libosini modellashtirishini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri modellarni bir asosiy shakl va konstruktiv asosda ishlab chiqarishdir.

Libosning asosiy shakli uchun mukammal, ishlab chiqarishda sinalgan asosiy ko'rsatkichlarning optimal qiymatli konstruksiya xarakterlidir. Mukammal konstruksiya libosning figurada yuqori sifatlari o'tirishini ta'minlaydi, shuningdek, u texnologik va tejamli bo'lishi kerak.

Libosning turli kompozitsion-konstruktiv yechimlariga erishish yo'llarining tahlili konstruktiv asosda va asosiy shakl asosida turli model — konstruksiyalar yaratishning ikki asosiy yo'nalishini ajratishga imkon berdi.

Birinchi yo'nalish. Modellar seriyasi yagona negiz — shakl va konstruktiv asosda yaratilib, ularda old va orqanening balans nuqtalarining doimiy holati

(narsaning figurada muvozanat nuqtalari), doimiy (kesilish) chiziqlari va tugunlari asos qilib olinadi (4.5-a rasm). Bu holda asosiy detallarning andazalari to'plami o'zgarmaydi.

Ikkinchi yo'naliish. O'sha negiz shakl va konstruktiv asosda modellar xilma-xilligi, turli xildagi ichki qismlarga ajratish — gorizontal, vertikal, qiya — yordamida erishiladi (4.5-b rasm). Mahsulot balansini aniqlovchi nuqtalar, polochkalar va orqa, yenglar, yelka va yon kesmalari o'zgarmay qoladi. Demak, bunda modellar xilma-xilligiga turli kompozitsion-konstruktiv chiziqlar hisobiga erishiladi.

Umuman, negiz shakllar va konstruktiv asoslar xilma-xilligiga quyidagilar orqali erishiladi:

- turli fakturalar, tuzilishlar, ranglar, rasmlari bo'lgan matolardan foydalanish hamda ularning bir modelda qo'shilishi;
- ustga qo'yiluvchi dekor, turli furnituralardan foydalanish;
- turli kattalikdagi va shakldagi ustga qo'yiluvchi detallardan foydalanish;
- yoqaning turli shaklini qo'llash, yoqasiz mahsulotlarda tomoq kesimining turlicha yechimi;
- tugmalarni shakllantirish — kesik yoki havo o'tkazgichli, plankalarda, gulfik, bog'ichli va hokazo;
- kesmalarni kantovkalash (pasti, bort, yeng pasti, yoqa, shlitsa) va hokazo.

Agar bir negiz shakli (geometrik shaklda) kattaligi bo'yicha o'zgartirilsa (4.4-rasmga qarang), konstruktiv asos saqlangan holda, modellar xilma-xillagini hosil qilish mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish sharoitlarida bir modeldan boshqasiga o'tish murakkabliklarga olib kelmaydi: asosiy operatsiyalar texnologiyasi, asosiy andaza xo'jaligi — o'shanday bir xil, alohida modellar turi shkalalarida prinsipial (katta) o'zgarishlar kuzatilmaydi. Bu chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash, modelni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy etish davrini qisqartirishga imkon beradi. Modellashtirishning bu uslubidan poyabzal va sumkalarni loyihalashda ham keng amaliy qo'llaniladi.

Quyidagi rasmlarda modellashtirilgan kiyimlarning turli bichimdagи esklizlari ko'rsatilgan.

#### 4.7. POYABZALNING HAJMLI SHAKLINI YARATISH

Poyabzal ustini loyihalash jarayoni qoliplardan shartli o'ramalar olish, turli konstruksiyalar tayyorlanmali, deformatsiyalari xarakterini o'rganish, turli uchastkalarda charmning cho'zilish darajasi va poyabzal usti shakllanish usullarini o'rganish va hokazoni o'z ichiga oladi. Poyabzal

ustini loyihalash jarayoni ust modelini badiiy ishlab chiqish (maked yaratish) va model andazalarini ishlab chiqish (ishlangan va tasdiqlangan maked bo'yicha)ga bo'linadi. Ular bo'yicha material bichiladi va tayyorlanmalar tayyorlanadi.

Poyabzalni badiiy modellashtirish jarayoni nafaqat model ustini ishlab chiqishni, balki ayni paytda pastini ham hal etish, ya'ni namuna (model) ning yaxlit yaratilishini o'z ichiga oladi. Ijodiy eskizda aks etgan dastlabki g'oyani sinab ko'rish, uning yechimini tekislikdan hajmliga o'tkazish, odatda, makedlash orqali amalga oshiriladi.

Makedlash ijodiy jarayonida boshlang'ich obyekt odam oyog'i kafti o'lchamlari va shakliga mos keluvchi poyabzal qolipidir. Qoliplarni va poyabzalni loyihalash nuqtasi nazaridan oyoq kaftida uch uchastka (joy) ajratiladi: tovon qismi, o'rta qism, barmoq qismi. Oyoq kafti skeleti keltirilgan (4.6-rasm): 1—katta dastak suyagi; 2—ichki to'piq; 3—taran suyagi; 4—taran suyagi boshchasi; 5—ladya ko'rinishli suyak; 6—tovon suyagi; 7—birinchi barmoq suyagi; 8—sesamsifat suyak; 9—katta barmoq asosiy falangasi; 10—bosh barmoq tirnoq falangasi; 10—ikkinchi va uchinchi barmoq tirnoq falangasi; 11—suyakaro bog'lovchi; 12—kichik dastak suyagi; 13—tizza suyaklari o'rtasidagi bo'g'inlar; 14—tashqi to'piq; 15—tovon suyagi; 16—suyakaro mushaklar; I—birinchi qiyiq suyak; II—ikkinchi qiyiq suyak; III—uchinchi qiyiq suyak; IV—kubsimon suyak.

Oyoq kaftini o'lchashda asosiy yo'naltiruvchi nuqtalar belgilanadi (4.7-a rasm): 1—birinchi yoki ikkinchi barmoqda kaftning oldingi nuqtasi — tovondan eng uzoq nuqta; 2—birinchi barmoqda eng yuqori nuqta; 3—birinchi plus suyagi boshchasi markazi; 4—kaft ichki konturining eng bo'rtib chiquvchi nuqtasi; 5—kaft egilishi nuqtasi; 6—ichki to'piq markazi; 7—kaftning orqadan eng bo'rtib turuvchi nuqtasi; 8—ichki to'piq markazi; 9—beshinchi plusfalanga qismining eng bo'rtib turuvchi suyagi; 10—kichik barmoq oxiri nuqtasi; 11—uchinchi barmoqaro bo'shliqning eng chuqur nuqtasi; 12—kaft o'rtasi nuqtasi, 3, 4 va 9 nuqtalar qo'l bilan aniqlanadi; 12—nuqta kaft uzunligini aniqlagandan so'ng, qolgan nuqtalar vizual aniqlanadi.

Poyabzal qolipi oyoq kaftining umumlashtirilgan, stillangan modelini aks ettiradi. Poyabzal qoliplari guruhlar va nomerlar bo'yicha poyabzal kabi taqsimlanadi. Qolip nomeri santimetrlarda ifodalangan kaft uzunligini aniqlaydi (4.7-b rasm).

Utilitar va estetik sifatlar birinchi navbatda qoliplar mukammalligiga bog'liq, chunki qoliplarni loyihalashda odam oyoq kaftining anatomiyasi va fiziologiyasini yetarlicha hisobga olmaslik, noqulay poyabzal yaratilishiga olib keladi, u tez deformatsiyalanib, oyoq kaftidagi turli patologik og'ishlar


rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Ekspluatatsiya jarayonida poyabzal qulayligi, eng avvalo, o'lchamlar va kaft shakli hamda poyabzal shakli o'rtaсидаги nisbatlar qanchalik o'zaro muvofiqligiga bog'liqdir. Shuning uchun poyabzal qolipini yaratishdan oldin kaft turli burlish, rakurslarda o'рганилди (4.8-rasm).

Kaft shaklidan qolip shakliga o'tishda qolip izida tovon joyidagi kaft plantar qismining shaklini va tashqi tayanch gumbazini to'liq tasvirlash; qolip izini tuzishda ichki gumbazga muvofiq joyiga panja va poyabzal o'rtaсида qoluvchi tirqish qoldirilishi kerak (aks holda ichki gumbaz tayanch bo'lib qoladi, bu esa uning vazifasiga kirmaydi); qolipning barmoq uchlari joyini o'zgarishsiz qoldirish, shu sababli standart qoliplarni loyihalashda barmoq suyaklari boshlariga mos keluvchi maxsus bo'rtishlarni ko'zda tutish maqsadga muvofiq emas. O'tkazilgan izlanishlar asosida tovon qismi turlicha ko'tarilgan ratsional shakldagi qolip ko'ndalang-o'qli kesilish izlari konturlari ishlab chiqildi.

Poyabzal qolipi — shakllar unifikatsiyalanishining injener-texnik-konstruksiysi. Qoliplar shakli unifikatsiyasi negizida poyabzal turi va poshna balandligini hisobga olgan holda barcha guruuhlar bo'yicha aniq tasnifi yotadi. Vazifasi bo'yicha, ishlab chiqariluvchi poyabzal turiga ko'ra qoliplar quyidagilarga bo'linadi: 1—yopiq poyabzal uchun (botinkalar, yarimbotinkalar, tuflilar, sandaletlar, opankalar); 2—yengil poyabzal uchun (sandalilar, sport, uy, yo'l tuflilar); 3—yengil ochiq poyabzal uchun (uchi va tovon qismlari ochiq tuflilar); 4—issiqlashtirilgan poyabzal uchun usti yuftadan (yarimetikchalar); 5—qayiqcha-tuflilar uchun; 6—usti yuftadan etiklar va yarim etiklar; 7—xromli oshatishli charmdan etiklar uchun; 8—sport poyabzali uchun; 9—maxsus vazifali poyabzal uchun.

Tovon qismi ko'tarilishiga qarab  $h_q$  poyabzal qoliplari quyidagilarga taqsimlanadi: poshnasiz poyabzal uchun qoliplar — 0; past poshnali poyabzal uchun — 3, 5, 10, 15, 20, 25; o'rta poshnali poyabzal uchun 30, 35, 40, 45; yuqori poshnali poyabzal uchun — 50, 55, 60, 65; juda yuqori poshnali poyabzal uchun 60 dan yuqori. Uch qismi ko'tarilish balandligi  $h_q$  o'q bo'yicha tayanch yuzadan iz uzunligi bo'yicha minimal tushirish nuqtasigacha o'lchanadi. Ayollar qolipi uchun tovon uzunligiga minimal tushirish — 5 mm, boshqalar uchun — 10 mm. Poyabzal ma'lum guruuhining chegaralarida qoliplar shakli unifikatsiyasi uch qismigacha amalga oshiriladi.

Qolip va poyabzalning uch qismi — stil va moda xususiyatlari ifodalanishidir. Demak, poyabzal yangi shaklini yaratishda uch qismi shakli, poshna balandligi va shakli o'zgaradi. Uch qismi to'ldirilishiga qarab dekorativ pastga tushirish oshiriladi yoki kamayadi. Uch qismi



4.2-rasm. Zamonaviy libosning geometrik shakllari.

shakli almashtiriluvchi qolip konstruksiyani ishlab chiqarish sharoitida qiyinchiliklitsiz va katta xarajatlarsiz poyabzal modellarini chiqarishni yangilash va kengaytirishga yordam beradi, prinsipial yangi qoliqlar shaklini ishlab chiqishga imkon yaratadi.


Kompozitsiya bo'yicha o'quv mashg'ulotlari sharoitida badiiy mакетлаштириш, ижодија јарон ва хажмиј-фаџоији фикрлаш үчун бoshlang'ich објект сифатида, зарур qolip shaklini olishdan boshlanadi. O'quvchilar oldiga murakkab ijodiy vazifa qo'yiladi — mакетда mavsum modasi, istiqbol modasi yoki umuman fantaziyalı taklif, masalan, tarixiy poyabzal asosida muvofiq yangi poyabzal shaklini ishlab chiqish. Oyoq panjasining anatomiya va fiziologiyasini bilgan o'quvchi qolipning yangi shaklini topish yo'lida ijodiy izlanishni boshlaydi. Har qanday mavjud qolip boshlang'ich sifatida qabul qilinadi. Eskizga muvofiq qolip ustiga qipiқ yoki charmni, keyin uch

qismiga ishlov berish bilan uch qismi shaklini «yasash» vazifasi qo'yiladi. Qolip uch qismini uzaytirishning eng oddiy uslubi taklif etiladi. Buning uchun qolip uch qismiga muallif fikriga muvofiq hajm va proporsiyalarda plastilindan foydalanib surtiladi. Uch qismi shakli qolipning butun yasalish shakliga mantiqan va kompozitsion mos kelishi, uning plastik yaxlitligini buzmasligi kerak. Shuning uchun qolip uchini izlash jarayonida yangi shaklni turli pozitsiyalar — yuqoridan, oldindan, yon tomondan doimo tekshirish va korreksiyalab borish kerak. Shunday qilib, tayyorlangan qolipning uch qismi ustida hech qanday nuqson bo'lmasligi lozim.

Aytib o'tish lozimki, nafaqat qolipni tayyorlash, balki barcha detallarni va umuman maketni tayyorlash, ishlov berish qunt va tozalikni talab etadi. Maket yetarlicha badiiy did bilan bajarilishi kerak. Aks holda maket tayyorlanishining past sifati eskizda berilgan eng original (asl) va o'ziga xos taklifdan ham taassurotni pasaytiradi.

Qolip uch qismini korrektirovkalashdan so'ng plastilin qatlami qolipga mato tortish (sarja turidagi) va unga pylonka hosil qiluvchi modda (silikat yelim bo'lishi mumkin) surtilish bilan mustahkamlanadi.


Poyabzal — kichik skulptura shakl bo'lib, uning plastikligi va ifodaliligi ikki tarkibiy tuzilma — poyabzal usti (tayyorlanma) va pasti (tagcharm bilan poshna)ning tabiiy qo'shilishiga bog'liq. Bu ikki shakl qo'shilishi qolip bo'ylama iziga, panja gumbazi chizig'iga mos keladi. Panja gumbazi



4.3-rasm. Ayollar tipik gavdasining o'lchamlari.

tarang, egiluvchan plastik tizimni tashkil etadi. Poyabzal esa o'z tuzilishi, plastik yechimi bilan panja tuzilishi va shaklini ajratib ko'rsatishi kerak. Badiiy, kompozitsion nuqtayi nazardan poyabzalda takrorlanuvchi panja gumbazi juda muhimdir: u poyabzal va odam oyog'ining plastikasi, mukammalligi, xushbichimligini aniqlaydi, odam va narsa figurasingin ifodaliligi, tektonikasi, timsoliyligini qayd etadi. Bu chiziqning ravonligi va egiluvchanligi uch qismining ko'tarilishi va poshnaning tektonikasi, poyabzal old va orqa qismi, ust va tag o'rtasidagi proporsional nisbatlarga bog'liq bo'ladi.


Bo'ylama iz chizig'i ifodali bo'lib, poshnali poyabzal odam figurasini xushbichim va plastikroq ko'rsatadi. Poyabzalning utilitar sifatlarini ham esdan chiqarmaslik kerak. Poyabzal qulayligi uning ichki shaklining panja bilan qanchalik o'zaro bog'langanligi, turli tayanch nuqtalarida poyabzalga panja bosimining taqsimlanishi statika va dinamikaga bog'liq. Buning



4.4-rasm. Libos shaklining odam tanasiga bog'liqligi:  
a — katta; b — o'rtacha; d — kichik; e, f, g — turli shaklli liboslarda  
gorizontal kesimlarning joyylanishi.

uchun poyabzalning shunday konstruktiv yechimi talab etiladiki, uning strelka yuzasi shakli panja planlar qismining hamma uchastkalarida to'liq mos kelsin. Poyabzalning bu muhim utilitar sifatlari ularning optimal konstruktiv-texnologik yechimida estetik jihatlarga o'tadi va poyabzalni yanada yaxlitroq va uyg'unroq qiladi.

Bo'lajak model shaklining maketda ishlab chiqilishi poyabzal usti ham tagini bir vaqtida hal etish bilan amalga oshiriladi. Muallif oldidagi



4.5-rasm. Bitta bazali asos yordamida libosning turli modellarini yaratish.

vazifalarga qarab mahsulot tagi turlicha tayyorlanishi mumkin: tayyor tagcharm va poshnani tanlash; poyabzal tayyor quyma tagini tanlash; poyabzal pasti yangi yechimini izlash; aralash, masalan, poshnani tanlash va tagcharmni yasash. Poyabzal pasti maketi qo'yilgan vazifalarga ko'ra alohida yoki qolip bilan birga bajariladi. Pastning murakkab shakllarini qolipdan alohida bajarish maqsadga muvofiqdir. Poyabzal maketini turlicha yaratish mumkin: vakuum apparatda polivinilxlorid plyonkadan olingan qobiq bo'yicha; mato yoki boshqa materiallar yordamida quyma olish bilan; pape-mashe usuli bilan. Maketlashtirish oldiga qo'yilgan maqsadga qarab (proporsiyalarni aniqlash, konstruksiyani aniqlash, andazalarini ishlab chiqish, hajmiy shakldan umumiyligi taassurot olish, yangi istiqbolli model yaratish, rang va faktura yechimlarini ishlash) u yoki bu usul tanlanadi. Bunda asosiy vazifa — ijodiy fikrlash va yangi modellar hajmida badiiy afzalliklarni, konstruktiv xususiyatlarni hisobga olgan holda aks ettirishga o'rGANISHdir.

#### 4.7.1. POYABZALNI MAKETLASHTIRISH

Polivinilxlorid plyonkadan qattiq qobiqcha bo'yicha poyabzalni maketlashtirish. Poyabzal shaklini «yalang'och» qobig'ida ham, dastlab ichki va oraliq detallar mustahkamlangan qolipda ham «yasay» boshlash mumkin. Ikkala holda ham «yasash» jarayoni bir xil. Poyabzal shakli, uning kattaligi, hajmliligi, mashtablilagini to'g'ri, to'laroq tasavvur etish uchun qobiqni dastlab ichki va oraliq detallar mustahkamlangan qolipda olish maqsadga muvofiqroq. Bunday holda hosil bo'lgan maketdan qobiqni yoyishda ichki va oraliq detallar qalinligi uchun oldindan joy qo'yilgan shartli taqsimlanishlar hosil bo'ladi. Bunda barcha joylar va yo'nalishlarda maksimal aniq joy qoldirishlariga erishiladi. Yuzasi tayyor poyabzal yuzasiga teng yuza hosil bo'ladi. Panja va poyabzal usti orasida joylashgan barcha detallar (agar shu tarzda maket yaratishga qaror qilinsa), qolipa ular poyabzalda qanday ketma-ketlikda kelsa, shunday ketma-ketlikda mustahkamlanadi. Barcha detallar qalinligi standart talablariga javob berishi kerak.

Nakollar nuqtasiga, qolipga shlyapkasisiz mixlar qoqiladi. Qattiq qobiqqa detallar konturi va kompozitsion chiziqlarni kiritishda chiqib turgan mixlar oriyentir nuqtalar bo'ladi. Mos o'lchamli patak qolipga mustahkamlanadi. Charm va to'qimachilik astarlar dastlab mashinada yoki yelim bilan bevosita qolipda mustahkamlanadi. Astar odatda NK yelim bilan tortiladi. Astarni tortishda burmalanishlardan saqlanish kerak.

Bikr dastak va uch ostilari uchun loyihalanuvchi modelda ishlatiluvchi

materiallar, shuningdek, mum (tish qoliplashda qo'llanuvchi) qo'llanadi, mumdan ushbu detallar o'lchamlariga mos keluvchi andazalar kesiladi. Kesilgan detallar 4—5 daqiqaga 70—80° C haroratlari suvgasi solib qo'yiladi. Mum muloyimlashadi, istalgan shaklga kira oladi va bu ko'rinishda uni qolipda mustahkamlash oson bo'ladi. Shakllantirilgan taglik va uch ostining chetlaridan standart talablarga ko'ra kenglikda joy qo'yish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, zadniklar yaxshi yotishi uchun pataknini tovonda qolipga mustahkamlashdan oldin uni kamaytirish (qisqartirish, toraytirish) kerak.


Qolip yuzasida qattiq qobiq hosil qilish uchun yupqa list-parda ko'rinishidagi turli plastmassalar qo'llanadi. U isitishda (60—120° C) muloyimlashishi va shakllanishi, sovitishdan keyin esa shaklini saqlab qolishi kerak. Masalan, kichik miqdorda plastifikatorli polivinilxloriddan qilingan parda bunday xususiyatlarga ega.


Qattiq qobiq olish uchun tayyorlangan qolip vakuum-apparat stoliga o'rnatiladi, parda listi qo'yiladi va rama yopiladi. Elektr-isitgich plyonkani muloyimlashish haroratigacha isitadi. Plyonka muloyimlashgach, u suriladi. Stol ko'tariladi, ustki holatgacha keladi, qolip pardani tortadi va o'zining ustki qismi bilan muloyimlashgan plyonkada shaklni siqib chiqaradi. So'ng kameradan havoni yutib oluvchi vakuum-nasos yoqiladi va muloyimlashgan plyonka qolipning butun yon yuzasini qoplab oladi. Hosil bo'lgan qobiqqa sovishga vaqt berib, tayyorlangan qobiq yuzasini aniq nusxalovchi joy kesib tayyorlanadi. Qobiq olish uchun zarur vaqt quyidagicha, C: pardani isitish — 20—22, shakllantirish — 10—12, pardani qo'yish va olish — 15—20 daqiqa.

Qobiqdan pardani olmasdan maketga eskizga muvofiq «steklograf» yoki «rangtasvir» qalamlari bilan kompozitsion va konstruktiv chiziqlar diqqat bilan chiziladi. Qobiqqa detal konturlarini chizishda ushbu poyabzal turi uchun o'rnatilgan asosiy o'lchamlar muvofiq texnik hujjatlardan olinadi.


Maketni chizib chiqish ijodiy jarayon bo'lib, poyabzal kompozitsiyasi asoslarini bilish va ularni amalda qo'llay olishni talab etadi. Maket yuzasida chiziqlar joylashuvini ishlashda model muallifi chiziqlar, shakl detallarining panja yoki panja va tizza anatomik tuzilishi bilan o'zaro bog'liqligini unutmasligi kerak. Buning uchun qolip maketga tovon qismi ko'tarilish balandligi hisobga olinmasdan o'rnatilgan tekislikka perpendikular joylashtirilib, poydevor chiziqlar chiziladi (4.9-a rasm).


Poydevor chiziqlar tovon qismining eng bo'rtma nuqtasidan quyidagi masofalarda o'tkaziladi (D — panja uzunligi, sm, ya'ni nomerlash metrlar




















tizimida qolip nomeri): tashqi to'piq nomeri — 0,20 D; panja egilish nuqtasi — 0,41 D, panja o'rtasi — 0,50 D; tashqi boylam — 0,62 D; ichki boylam — 0,73 D; kichik barmoq oxiri — 0,80 D (4.9-b rasm). Poydevor chiziqlarni kiritishda astar va taglik detallari qalinligi hisobga olinadi, bu kattalik tovon qismining eng bo'rtgan nuqtasidan poydevor chiziqlargacha bo'lgan masofalarga qo'shiladi.

Maketga (qobiqqa) qolipdan qator yo'naltiruvchi chiziqlarni belgilash maqsadga muvofiq — ustki bog'lanishlar nuqtasi, panja egilish nuqtasi. Tovon qismi aylanasi chizig'i bo'yicha mavjud standartlar va texnik hujjalarga muvofiq dastaklar va gulchin balandligi olinadi. Bundan tashqari, qattiq qobiqda oyoq uchi o'rtasidan o'rta chiziq belgilanadi — a nuqtadan b nuqtagacha (4.9-d rasm)). Maket chizib chiqilgandan so'ng qalam bilan poyabzalning bo'ylama izi belgilanadi, chizib chiqilgan chiziqdan 0,8—1 sm qo'yib, hosil bo'lgan qobiq kesib chiqiladi va u qolipdan olinadi.



Botinkalar, yarimetiklar maketini ishlab chiqishda qattiq qobiqqa qo'shimcha oyoqning ma'lum uchastkalari tuzilishini hisobga olgan holda, dastak hamda tizzalarga muvofiq keluvchi ustqo'ygich modellashtiriladi. Rangli maket hosil qilish uchun qattiq qobiq dastlab atseton bilan artiladi, bu bo'yoq qatlamini yaxshiroq mustahkamlaydi. Bo'yoq qurigach, maket yuzasi pulverizator, matodan tampon yoki cho'tka yordamida yupqa lok qatلامи bilan qoplanadi. Bunda yog'och uchun hamda rassomchilik uchun qo'llanuvchi lokdan foydalaniladi. Maketga rang berilgandan so'ng kompozitsion-konstruktiv chiziqlar aniqlanadi, bezak beruvchi va sof texnologik tikishlar kiritiladi, furnituralar modellashtiriladi, ularning o'rni aniqlanadi va mustahkamlanadi. Poyabzal pastini plastilin, karton, qog'oz va hokazo modellashtirishda model taklif etiluvchi mato rangi va fakturasi (bo'yoqlar yordamida) imitatasiyalanadi.

Shunday qilib, rassom uni tayyorlamasdan turib yangi model maketi yaratiladi. Maket korxona rahbariyati, badiiy-texnik kengashga, o'quv sharoitlarida esa — rahbar-o'qituvchiga tasdiqlash uchun taqdim etilishi mumkin. Bitta tayyorlangan qolipdan bir shakldagi bir necha qattiq qobiqlar, kompozitsiyani o'zgartirib esa yechimlar turli-tumanligini olish mumkin. Shunday qilib, bir shaklning turli badiiy yechimiga erishiladi.

Ushbu poyabzal maketini hosil qilish uslubi model-konstruktiv kompozitsion chiziqlarni aniqlash va loyihalashning sof texnik bosqichi — belgilashlar va andazalarni hosil qilish vazifasi maqsad qilib qo'yilganda juda yaxshi ish beradi. Yaratilayotgan model to'g'risida bu uslub to'liq timsoliy-fazoviy tasavvur bera olmaydi, chunki parda yuzasida model xususiyatlari o'z hajmida to'liq aks etmaydi, modelning muhim kompozitsion jihatlari — rangli va faktura yechimlarini ifodalash imkoniyati chegaralanadi; poyabzal



4.6-rasm. Oyoq skeleti.




4.7-rasm. Oyoq kafti va poyabzal qolipining asosiy oriyentir nuqtalari.

pastini badiiy nomlab chiqish qiyinlashadi, maketning o'z badiiy afzalliklari uzoq saqlanmaydi; eng muhim kamchilik shundaki, qolipning plastilindan tayyorlangan uch qismi parda bilan tortilishda katta bosim va yuqori harorat ta'siri ostida deformatsiyalanadi.

Matodan qattiq qobiq tayyorlash. Vakuum-apparat bo'limgan taqdirda qattiq qobiqni parda hosil qiluvchi modda surtish bilan matodan tayyorlash mumkin. Buning uchun qotma olish uslubi qo'llanadi. Bu uslub qolipa bir tekis mato tortish va uni izma-iz NX yelimi yoki mixlar bilan shunday mustahkamlashki, qolipning yon yuzasida qatlar hosil bo'lmasin. Mato oldindan tayyorlangan andaza bo'yicha qirqiladi; bunda u shunday joylashtiriladiki, andazaning o'rta chizig'i mato diagonal yo'nalishi bilan mos kelsin. Qolipning tovon qismida mato to'qnash yoki ustma-ust yelimlanadi. So'ng tortilgan matoga pylonka hosil qiluvchi modda surtiladi, u matoga shimdiriladi va qattiq qobiq hosil qiladi. Parda hosil qiluvchi modda sifatida 15—18 li nitroselluloza yelimi, YuF—2 yelimi, silikat yelimi xizmat qilishi mumkin. Yelim mato yuzasiga bir tekis surtiladi. Yelim qatlami qalinligi 0,5 mm dan oshmasligi lozim, aks holda qotma sinuvchan bo'ladi. Ko'rsatilgan yelimlar rangsiz bo'lib, ular tortilgan matoning oq rangi saqlab qolinishiga imkon beradi va maket yuzasiga kompozitsion-konstruktiv chiziqlarni belgilashda juda muhim. Mato tortishdan oldin qolip yuzasiga vazelin qatlamini surtish zarur. «Yalang'och» qolipdan qattiq qobiq hosil qilishda uning yuzasini talk bilan ishlash kerak, bu ish mato pylonka hosil qiluvchi bilan qoplanganda qolipa yopishmasligi uchun qilinadi.

Qattiq qobiqni quritish isitishsiz, taxminan 12 soat ichida amalga



4.8-rasm. Turli burilishdagi oyoq kaftlari.

oshiriladi. Maketning modelda keyingi badiiy ishlanishi oldingi uslubdagidek.

Poyabzal korxonalarida matoda maketlashtirish uslubi ham qo'llanadi. Matodan (ko'pincha sun'iy charmdan) qattiq qobiq o'lchamlari bo'yicha tayyorlangan andazalar bo'yicha ust detallari qirqiladi, ular biriktiriladi, hosil bo'lgan tayyorlanma qolipga tortiladi. Bunday maket poyabzal usti konstruksiyasi, proporsiyalari, hajmlari to'g'risida yetarlicha to'liq tasavvur beradi. Maketning kamchiligi poyabzal pasti yechimi yo'qligi, rang va faktura yechimlari aniq emasligidadir.

«Pape-mashe» usulida maket yaratish polivinilxlorid plyonkadan qattiq qobiq bo'yicha poyabzalni maketlashtirishga nisbatan qator afzalliklarga ega: poyabzalning ham usti, ham pastining hajmli yechimi imkoniyati paydo bo'ladi; modelning barcha hajmli detallari va konstruktiv xususiyatlarini aks ettirish imkonи; maketning qog'ozli negizida har qanday bo'yovchi vositalar yaxshi mustahkamlanishi va saqlanishi sababli poyabzalning ranglar va faktura yechimlarini ifodalashning chegaralanmagan imkoniyatlari vujudga keladi. Pape-mashe usulida maket yaratishni o'quv mashg'ulotlarida hamda yangi shakllarning istiqbolli modellarini ishlab chiqishda qo'llash tavsiya etiladi.

Pape-mashe usuli bilan maketlash yordamida poyabzalni badiiy modellashtirish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi: qolipni tayyorlash; model pasti shaklini tayyorlash; model usti va pasti qobiqlarini yaratish, ularni o'zaro butun yaxlitlikka birlashtirish; ust qobig'ida eskizga muvofiq kompozitsion konstruktiv chiziqlarni aniqlash va chizib chiqish; modelning rangli va faktura ishlanishi; ustga qo'yiluvchi detallarni aniqlash va tayyorlash, ularni maket ustiga kiritish va model shakli hamda kompozitsiyasi bilan muvofiqlashtirish.

Birinchi ikki bosqich — qolipni va poyabzal pasti shaklini tayyorlash — yuqorida ta'riflangan. Keyingi bosqichlar bajarilishini ko'rib chiqamiz. Bunda aytib o'tish kerakki, model usti va pasti qattiq qobiqlarini turlicha tayyorlash mumkin: alohida, so'ng ularni shakllardan yechib olib, yaxlit butunlikka birlashtirish; yoki avval tayyorlangan qolip va past shaklini birlashtirish, uni kesish, masalan, bo'ylama iz chizig'i bo'yicha, so'ng shakldan yechib olib birlashtirish.

Model maketiga ishlov berish usuliga qarab yuqori va past alohida yoki birgalikda yaratiladi. Tayyorlangan shaklning butun yuzasiga ho'l, yupqa, suvni oson shimuvchi qog'ozning mayda bo'laklari birinchi qatlami qo'yib chiqiladi. Bu tayyorlangan qattiq qobiqni shakldan yechib olish oson bo'lishi uchun qilinadi. Keyingi qog'oz qatlamlari kazein yelimi yoki kraxmal kleysterda ho'llab, tayyorlangan shaklga 3—4 qatlam qoplanadi. Birinchi

qatlamni suv bilan ho'llash o'rniga tayyorlangan shaklga qobiqning shaklga yopishuvi oldini oluvchi yupqa yog' qatlamini surtish mumkin. Qattiq qobiq hosil qilish uchun shunday qog'oz ishlataladiki, suv yoki yelim bilan ho'llangach, u shakli yuzasiga plastik tsin va uning abrislarini takrorlasin. Qobiq uchun qo'llanuvchi qog'oz kichik yo'lchalar qilib kiritiladi, ularning kattaligi shaklning muvofiq uchastkasi qiyaligiga bog'liq. Qog'ozni yirtish tavsiya etiladi, toki uning shaklda mustahkamlangan bo'laklari maketning silliq, tekis yuzasini hosil qilishi oson bo'lsin. Qog'oz qatlamlari burmalar hosil qilmay yotqizilishi kerak. Oxirgi ustki qatlamni oq qog'ozdan qilish yaxshiroq, bu modelning keyin chizib chiqilishi uchun juda muhim.

Poyabzal modeli ustki va pastki qobiqlarini birga yoki alohida bajarishda qog'oz yo'llar shunday yopishtiriladiki, shakl izida kichik tirqishlar qolsin, ular qobiqlarni birlashtirishda yo'naltiruvchi bo'ladi, yaxlit qobiq yasashda esa qismarlarni kesish va ularni shakldan yechib olish uchun xizmat qiladi. Qobiq to'liq qurigandan keyingina yechiladi. Qobiqn ni shakldan yechib olishdan oldin qolipning uch qismi, ko'tarilish va tovon qismlarining eng bo'rtma joylaridan iz orqali bo'ylama yo'nalishida o'tuvchi kesish chizig'i o'tkaziladi.

Maket murakkabligiga qarab to'liq yoki qisman kesiladi. Qobiq kesigi yelimanadi, qog'oz bo'laklari ichkaridan va tashqaridan qo'yiladi. Hosil bo'lgan qobiq yengil, mustahkam, modelning maketda ishlov berish operatsiyalarini bajarish uchun qulay bo'ladi. Qobiq yuzasidagi ba'zi bir g'adir-budurliklarni, butun yuza tozaligiga erishish uchun, najdak qog'oz bilan tekislash mumkin.

Qobiqqa kompozitsion-konstruktiv chiziqlarni belgilash badiiy shakl yaratishda ijodiy jarayonning davomidir. Bu ish bosqichi qolip usti va tovon qismida o'rta chiziq o'tkazishdan boshlanadi. So'ng mакет yuzasiga barcha chiziqlar, tikishlar, relyeflar, furnitura va hokazo kiritiladi. Ishning bu bosqichiga modelning maketda va eskizda o'xhash bo'lishi bog'liq. Bu ish umumiyyidan — alohidaga prinsipi asosida bajariladi, ya'ni dastlab asosiy qismlar va yirik detallar chiziqlari kiritiladi, so'ng maketda mayda ikir-chikirlar ishlanadi. Bu ish bosqichining bajarilishi rassom ijodiy faoliyatida asosiy rol o'ynovchi poyabzal kompozitsiyasi asoslarini yaxshi egallahini talab etadi.

Qobiqda bajarilgan rasm barcha hajmli detallarning keyingi bajarilishi uchun negiz bo'ladi. Bunda har bir detal qobiqdan kalkaga to'liq yoki qisman o'tkaziladi. Kalkada hosil bo'lgan andaza bo'yicha qalinligi u yoki bu hajmni ifodalash uchun yetarli bo'lgan materiallardan (qog'oz, karton, mato, charm va hokazo) detallar tayyorlanadi.

Maket rangi va fakturasi model taklif etilayotgan materiallarga o'xshashi

kerak. Maketda modelning rangli va faktura yechimini ikki yo'nalishning birida o'tkazish mumkin. Uni muallif vazifalar va yechimlar murakkabligiga qarab tanlaydi: 1) hamma detallarni qobiqda maketni keyingi rangda ishlov berilish bilan mustahkamlash; 2) qobiq, har bir detalga rangda alohida ishlov berilishi va keyin ularning birlashtirilishi. Bunda turli tasviriy vositalar — akvarel, guash, temper va yog'li bo'yoqlar, flomaster, rangli tush va hokazo qo'llanadi.

Materiallarning yaxshi qurishiga erishish uchun turli usullarni qo'llash mumkin. Bu bilan modelning maketda timsoliy-fazoviy yechimi yakun topadi.

Tayyorlangan negiz shaklda, oldindan ishlab chiqilgan eskizlar bo'yicha bir-biridan kompozitsion-konstruktiv chiziqlar joylashuvi, xarakteri, dekor, ranglar va faktura yechimi, ustga qo'yiluvchi detallar bilan farqlanuvchi bir necha modelni maketda bajarish mumkin. Bu narsa ishlab chiqarish sharoitida modellar seriyasini yaratishni va bir negizli moda shaklini joriy etishni xilma-xillashtirish imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan eskiz bo'yicha maketda va materialda mukammal hajmli shakl yarata olish mutaxassisning mahorati va ijodiy qobiliyatini namoyon etadi.

#### 4.7.2. POLIMER MATERIALLARDAN POYABZAL USTINI TAYYORLASH

Hozirgi vaqtida polimer materiallardan silikon matritsalarda, tayyorlanmalarni yuqori chastotali isitish uskunali presslarda siqish usulida poyabzal ustini tayyorlash uslubi keng tarqalmoqda. Bu jarayonning samaradorligi shundaki, bir operatsiyada barcha kerakli elementlari bo'lган tayyor ust olinadi. Tabiiy charm o'rnda qoplama ko'rinishida, mato asosga surtilgan polivinilxlorid qo'llanadi. O'rama materialdan poyabzal usti tayyorlanmasi olishning bir necha usuli ma'lum. Ulardan eng keng tarqalgani — tayyorlanmalarni presslash bilan bir vaqtida, TVCHda isitish bilan ishlov berishdir. Bunda kontur bo'yicha tayyorlanma o'ramadan oldindan kesiladi va silikon matritsaga yotqiziladi. Ishchi holatida tayyorlanmali matritsa press plitalari orasida qoladi va muvofiq bosim hamda isitilishga uchraydi, shundan so'ng matritsa boshqa pozitsiyaga o'tkazilib, bosim ostida sovitilishi yuz beradi. Jarayonning keyingi bosqichi — tayyor tayyorlanmaning matritsadan olinishi.

Bu uslub afzalliklari: tabiiy charmning sun'iy bilan almashtirilishi tufayli ish tejalishi, qator texnologik va pardozlash operatsiyalarining bekor bo'lishi tufayli ish unumdorligining oshishi, ishlab chiqarishning tez qayta

qurilishi imkoniyati va poyabzal yangi namunalarini chiqarishga tayyorligi va hokazo.

Shu bilan bir qatorda, siqish texnologik jarayonida yangi uslubning tarqalishini chegaralovchi ba'zi kamchiliklar ham bor: sun'iy charm ustki qobig'i bo'lgan polivinilxloridning gaz va nam o'tkazmasligi poyabzalning gigiyenik xususiyatlariiga putur yetkazadi, bunday usul poyabzal assortimentini qisqartiradi, sovuqqa kam chidamliligi esa 5—10°C dan past haroratda poyabzal usti nozik, qattiq, sinuvchan bo'lismiga olib keladi. Poyabzal ustini tayyorlash yangi uslubining kamchiliklarini bartaraf etish yo'llari izlanmoqda. Masalan, turli gigroskopik noto'qima materiallar va tabiiy charm stikalari polivinilxlorid qoplamali sun'iy charm uchun negiz sifatida qo'llanadi. Bu charmning gigiyenik xususiyatlari va uning absorbsiyalanish xususiyatlarni yaxshilashga imkon beradi.

#### 4.7.3. CHARM-ATTORLIK MAHSULOTLARINI MAKETLASHTIRISH

Oldin qayd etilganidek, xaltalar, portfellar, hamyonlar, jomadonlarning ishchi eskizlarini mahsulotning tabiiy kattaligida bajarish tavsiya etiladi. Bunday eskiz rassom ishini mакет yaratishda, konstruktor ishini lekala ishlab chiqishda osonlashtiradi. Sumkalarni eskiz bo'yicha mакетlashtirishda quyidagi ish bosqichlarini ajratish mumkin: lekalalar tayyorlash, alohida detallarning o'lchamlarini belgilashda fakturali-rangli yechimi, detallarning hajmda ishlanishi, mакет montaji, kompozitsion xususiyatlarni aniqlashtirish.

Lekalalar eskizga muvofiq chetlarda egilish joyi va detallarni o'zaro birlashtirish uchun joylarni belgilash bilan tayyorlanadi. Barcha tashqi, asosiy va qo'shimcha detallar, furnitura va bezaklar uchun lekalalar qog'oz, karton, mato, sun'iy charm va hokazolardan tayyorlanadi.

Sumka detallari ma'lum vazifa, shakl va o'lchamlarga ega. Sumkalarning tashqi detallari shakl va o'lchamlari turlicha bo'lib, mahsulotning vazifasi va o'lchamlariga bog'liq. Asosiy tashqi detallar sumka korpusini tashkil etadi. Sumka devorlari — uning old va orqa tomonlari mahsulot korpusini hosil qiluvchi detallar. Sumka korpusi butun polotnodan tashkil topishi mumkin. Korpusi tarkibiy qismlardan iborat sumkada quyidagi detallar bo'lishi mumkin: tub, klinlar, botan, klapan. Sumka qismini fald va koketka tashkil etishi mumkin.

Qo'shimcha tashqi detallar mahsulot korpusini tashkil etmaydi, bunda har bir detal o'z funksional vazifasiga ega.

Ichki detallar mahsulot ichida bo'ladi yoki detallarning ichki tomonlarini shakllantiradi. Bu — astar, ichki cho'ntaklar, devorchalar va boshqalar.

Oraliq detallar tashqi va ichki detallar orasida joylashadi, konstruksiyani mustahkamlash, unga qattiqlik berish uchun xizmat qiladi; ular karton, viniplast, qalin qog'ozdan tayyorlanadi; konstruksiyani mustahkamlash va mahsulot yoki alohida asosiy va qo'shimcha detallar bo'rtma yuzasini hosil qilish uchun penopoliuretan, paxta, noto'qima mato, flanel va hokazolardan foydalaniladi. Yordamchi materiallar detallarni birlashtirish, furniturani o'rnatish va mahsulotni bezatish uchun qo'llanadi. Furnitura asosan qora va rangli metallardan, plastmassalardan, ba'zan yog'och va boshqa materiallardan tayyorlanadi.


Sumkalar furniturasiga har doim yuqori ekspluatatsion va estetik talablar qo'yildi. Shuning uchun metall furnituraga himoyalovchi antikorrozion va dekorativ qoplamlar surtiladi.

Sumkalar o'lchami katta diapazonga ega. Hajmli shakl sifatida sumka uch o'lchamga ega — uzunlik (gorizontal yo'nalishda old qismi maksimal o'lchami), kenglik (gorizontal yo'nalishda yon qismi maksimal o'lchami) va balandlik (vertikal yo'nalishda old qismi maksimal o'lchami).

Sumkalar va boshqa charm-attorlik mahsulotlarini badiiy modellashtirishda detallar fakturasi — rangli yechimi juda muhim bosqichdir. Suv bilan eritiluvchi bo'yoqlar bilan ishslash ularning qog'oz tirnashi bilan bog'liq. Shuning uchun quyidagi bo'yash usullari tavsiya etiladi: qog'oz varag'ining undan yirik detallarini qirqquncha bo'yash, kesilgan yirik detallarni bo'yash, kichik yuzali detallar tayyorlanganidan so'ng bo'yash. Masalan, uzun dastalarni avval hajmda tayyorlash, so'ng rangda hal etish mumkin. Charm-attorlik mahsulotlarining maket yaratishdagi fakturasi — rang yechimi poyabzal maketini yaratishdagidek amalga oshiriladi hamda xuddi shunday tayyorlashda qo'llanuvchi materialarni imitatasiyalashi kerak.

Charm attorlik mahsulotlarining shakl va kompozitsion yaxlitligi, mukammalligi tayyorlanish usullari, choklar, tashqi chetlar va detallarga ishlov berish, mahsulot detallarini mustahkamlash uslublariga bog'liq. Mahsulotning tayyorlangan detallari bichish chiziqlari bo'ylab qatlanadi, detallarda zarur chiziqlar, keder yoki kantovkalashning ko'rinvuvchi taassurotlari yaratiladi, barcha dekorativ tikishlar ishlatiladi va hokazo. Xuddi shu tarzda ustga qo'yiluvchi cho'ntaklar, dastalar, furnituralar detallari alohida bajariladi. Avval korpusning asosiy detallari, keyin qo'shimcha detallar birlashtiriladi. Qo'shimcha detallar joylashuv joyi va proporsiyalari aniqlashtirilib va korreksiyalanib, maket yuzasiga mustahkamlanadi. Maketda qiyalanish, qog'ozning tirnalishi oldini olish uchun biriktirish joylarida rezina yelimpan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishlab chiqariluvchi modellar assortimentini kengaytirish va sifatini



4.9-rasm. Poydevor chiziqlarini hisobga olgan holda rasmni qattiq qobiqqa tushirish.

yaxshilash maqsadida charm-attorlik sanoatini rivojlantirish bir negiz asosda unifikatsiyalangan modellardan foydalanib, modellar ishlab chiqish yo'nalishida bormoqda. Bir seriyada modellar xilma-xilligiga, masalan, turli konfiguratsiya va konstruksiyalı dastalarni qo'llab, turli tashqi cho'ntaklarni mustahkamlashning xilma-xil uslublarini qo'llab, turli dekorativ bezaklardan foydalanib, faktura va rangi bo'yicha turli materiallardan foydalanib erishish mumkin. Modellar xilma-xilligini yaratishning bunday yo'li kompozitsiya asoslarini yaxshi tushunish va ularni qo'llay olish, bir shaklning ichida turli kompozitsion yechimlar yarata olishni talab etadi.

Galanteriya mahsulotlarining bajarilish sofligi nuqtayi nazaridan yuqori darajada bajarilgan maketlar muallif g'oyasini ochib beradi va bo'lajak modelning badiiy darajasi va timsoliy-fazoviy tuzilmasini to'la namoyon etadi.

Badiiy maketda ishlangan poyabzal va charm-attorlik modellari asosiy materialda dastlabki fikrni yakuniy ifodalash asosidir. Maket materialda tayyorlangan namuna bilan muvofiqlashtirish va taqqoslash uchun saqlanadi. Keyingi konstrukturlik-texnologik ishlarni o'tkazish uchun o'sha tayyorlangan shakl (qolip)dan qattiq qobiq olib, masalan, polivinilxloriddan maket nusxasi tayyorlanadi. Olingen maket nusxasi bo'yicha andazalar ishlab chiqiladi. Bunda ular bo'yicha tayyorlangan qolipa tortilgan tayyorlanmalar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan maketga to'liq mos kelishi kerak. Modelni asosiy materialda bajarishda yangi namunaning ham badiiy, ham konstrukturlik-texnologik afzalliklari yakuniy tekshiriladi. Yangi model mukammalligiga ishonch hosil qilgach, uni ishlab chiqarishga joriy etishga tayyorlaydilar.

## A D A B I Y O T L A R   R O ' Y X A T I

1. ЭЙЧЕЙА А. О.А. ООАИЕАНДАИИА ИДИАЕОЕДИАИЕА ЭИНОРПА. Й., 1982.
2. ЙАДИИ О.И. ЭИИИЧЕОЕY ЭИНОРПА. Й., 1985.
3. ЙАДИИ О.И. ООАИЕАНДАИИА ИДИАЕОЕДИАИЕА ЙААЕАУ ИДИУОЕАИИАИ ИДИЕЦАИАНДАА. Й., 1981.
4. ЙАДИИ О.И. ЎНОАОЕЕА ОИДИ ЕИИНОДОЕОЕЕ ЭИНОРПА (А ЭНОИДЕ+АНЕИ АНЯЕОА). Й., 1982.
6. ЙАДИИ О.И. ААДИАЕНЕЕ ЭИНОРП: НОЕЕ Э ЙАА. Й., 1982.
7. ЙАДИИ О.И. Е АД. ЙЕАНДЕ+АНЕИА ЕИИИЧЕОЕИИА НААИАДАЧЕА ДҮЧАИНЕИАИ АДИАИИАИ ЭИНОРПА. — А НА: ЙАО+УА ОДОАУ ЙОЕЕИ. Й., 1979, №. 65—70.
8. ЧАОАДААНЕАЙ Д.А. ЭИНОРП АЕY НОАИУ. Й., 1973, №. 1, 1974 №. 2.
9. X.X. KAMILOVA, XAMRAYEVA. TIKUV BUYUMLARINI KONSTRUKSIYALASH. Т., 2003.
10. G. HASANBOYEVA. KOSTYUM VA MODA TARIXI. Т., 2002.
11. P.A. GONCHAROVA. BUXORO ZARDО'ZLIK SAN'ATI. Т.: O'ZBEKISTON, 1989.
12. ЭИЧЕЙА А.А. ОААО А ЭИНОРПА. Й., 1989.
13. МИА А.А. ОААОА Е ЕО ЭДАНЕАУА НИ+АДАИЕY. Й., 1980.
14. ЭИЧЕЙА А.А. ИНШАУ ООАИЕАНДАИИА ИДИЕДИЕАИЕY ОАЕНДОЕЕУИУО ЭЧААЕЕ. Й., «ЭААЕАЙ Е ЙЕУАААЙ ИДИУОЕАИИНОУ», 1981.
15. ЙАДИИ О.А. ЭИИИЧЕОЕY ЭИНОРПА. Й., «ЭААИДИАУОЕЦАА», 1999.

16. GOTTFRIED BAMMES. FIQURLICHES GESTALTEN. BERLIN, 1988.
17. Ё҃АДАЕІАА Ё, ААДААІІАА І, ЕАІАДІАА І. Ё҃ЕРНӨДЕДІААІАЫ ОЕЕЕІІАЕҮ ЫАУ. ЙДАА, 1986.
18. N. SODIQOVA. O'ZBEK MILLIY KIYIMLARI TARIXI. T., 2004.
19. INTERNET AXBOROTLARDAN FOYDALANILDI:  
[WWW.STACY.COM.RU](http://WWW.STACY.COM.RU).  
[WWW.LIVEJOURNAL.COM](http://WWW.LIVEJOURNAL.COM).  
[SOLF.SUSYO.RU](http://SOLF.SUSYO.RU).  
[WWW.PROM.KZ](http://WWW.PROM.KZ).













## MUNDARIJA

Kirish .....	3
1. Libosning paydo bo'lish tarixi .....	9
1.1. Qadimiy Misr libosi .....	9
1.2. Qadimiy Gretsiya libosi .....	11
1.3. Qadimiy Rim libosi.....	12
1.4. G'arbiy Yevropa libosi (V—XX asrlar).....	13
1.5. Rus xalqi libosi.....	14
1.6. O'rta Osiyo xalqlari milliy libosi .....	15
2. Libos modasi.....	16
2.1. Moda tushunchasi .....	16
2.2. Xalqaro moda ustalari. Libosni badiiy loyihalash — dizayn .....	17
2.3. Badiiy loyihalash va sanoatda ko'plab ishlab chiqarilayotgan buyum sifati .....	19
2.4. Libosni badiiy loyihalash jarayoni .....	20
2.5. Odam tanasining proporsiyalarini va shakl tavsifi .....	20
2.6. Libos shakli .....	28
2.7. Libos mazmunining tasviriy ifodasi .....	31
2.8. Libos shaklining fazoviy xossalari.....	33
3. Libos kompozitsiyasi asoslari.....	35
3.1. Tektonika tuzilishi va shakl birligi. Kompozitsiya toifalari .....	35
3.2. Kompozitsiya xususiyatlari .....	36
3.3. Kompozitsiya vositalari .....	39
3.4. Libos kompozitsiyasida rang .....	44
3.5. Libosda ranglar uyg'unligi .....	48
3.6. Libos — xususiylik — rang .....	50
3.7. Materialarning plastik va manzarali xususiyatlari .....	53
3.8. Libos kompozitsiyasida faktura va dekor .....	57
3.9. Dekor tarixi .....	59
3.9.1. Milliy zardo'zlik ornament naqshlari .....	61
3.9.2. Zardo'zlik naqshlari va ularning tuzilishlari .....	64
4. Sanoat namunalari sifatini estetik baholash .....	77
4.1. Sanoat ishlab chiqarish libosini badiiy modellashtirish xususiyatlari .....	77
4.2. Eskizlash .....	79
4.3. Eskiz grafikasi.....	89
4.4. Libosda maketlash .....	92
4.5. Sanoat ishlab chiqarish liboslarini modellashtirish .....	93
4.6. Libos modellari turli-tumanligini yaratishning asosiy shakl va yo'nalishlari.....	95

4.7. Poyabzalning hajmli shaklini yaratish.....	110
4.7.1. Poyabzalni makedlashtirish.....	115
4.7.2. Polimer materiallardan poyabzal ustini tayyorlash .....	122
4.7.3. Charm attorlik mahsulotlarini makedlashtirish.....	123
Adabiyotlar ro'yxati .....	126

S.U.Po'latova, H.H.Saidova, X.Q.Rahmonov

## LIBOS KOMPOZITSIYASI

Muharrir	G.Umarova
Badiiy muharrir	J.Gurova
Öexnik muharrir	T.Smirnova
Musahhih	H.Zokirova
Kompyuterda tayyorlovchi	A.Yuldasheva

Bosishga 06.09.06 y. da ruxsat etildi. Bichimi 60%<sup>84<sup>1</sup>/<sub>16</sub></sup>. «Oayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 8,0. Nashr. t. 8,6. Adadi 1000. 130-raqamli buyurtma.

«ARNAPRINT» MCHJ da sahifalanib, chop etildi.  
Öoshkent, H.Boyqaro ko'chasi, 41.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

S.U.PO'LATOVA, H.H.SAIDOVA, X.Q.RAHMONOV

# LIBOS KOMPOZITSIYASI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

TOSHKENT  
2006